mehnatga munosabatlarni shakllantirish zarur bo'lib, yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi, mehnat kasb hunarlari bilan hissa qo'shishlari pedagog-tarbiyachilarning oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov „Bugun biz tarixiy bir davr da –xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar,qo'yib,tinch osoyishta xayot kechirgan,aavvalom bor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib,demokratik davlat vafuqarolik jamiyati qo'rish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.Ana shu haqiqatni xalqimiz xar tamonlama to'g'ri tushunib,tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabulqilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadga erishishning asosiy manbai va garovi ekani xayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Tabiat,ijtimoiy voqealik bir butun bo'lib uni o'rganishda fanlarning o'zaro bog'liqligi obyektiv qonuniyatdir.Qadrlar tayorlash milliy dasturida belgilanganidek.Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlari to'g'risida yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi o'rgatish usullari: jamoa bo'lib bajaradigan ijodiy, mustaqil ijodiy, yakka tartibdagi ijodiy, qiz va o'G'il bolalar ijodiyotidagi umumiylik va xususiylik, ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan predmetlar turlariga oid masalalar yoritilib berilgan.

Bolalar bog'chasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar bolalarga berilgan ta'lim natijasida ularda bo'cha yoshidan boshlab, ijodkorlik rivojlanishini ko'rsatadi. Ijodkorlik maktabgacha yoshidagi bolalarda rasm chizish, loy va plastilindan uyinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishlarini isbotladi. Alatta bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Bolada ijod kurtaklarini rivojlantirish vazifalari uning yoshiga xos anatomik, psixologik xususiyatlariga bo'liq bo'ladi. Quyida mana xususiyatlarni ayrimlari ustida to'xtalib o'tamiz. Maktabgacha yoshidagi bolaning predmetlar sifati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurining to'laligi uning analizatorlari qay darajada ishlashiga bo'liq bo'ladi. Tadqiqotlar 6 -7 yashar bolalarda ko'roish va asosiy sifatlarini shakli mutanosibli rangiYu tarkibiy qismlarini shuningdek, fazodagi o'rnini idrok eta oladi. Ma'lumki bolalar 6 – 7 yoshga etkach, tevarak atrofdagi narsalarga qiziqishi ortadi. Tafakkur jarayonlari rivojlanishi bilan bola predmetlarni ifodali tasvirlapy oladigan bo'ladi. Bolalar ijodkorligida san'atkor ijodidagi singari tasavvur katta rol o'ynaydi. Ma'lumki uning kuratklari bola bo'chaga kelmasdanoq nish ura boshlaydi. Ta'lim jarayonida ertkalar eshitish har xil rasmlarni tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta – sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning o'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar uchun o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiroish va tasvirlash hamda texnik usullarni tanlash imkoniyati yaratilsa, ularda uyinchoq yasash mash'ulotlarda ijodiy tasavvur elementlari namoyon bo'ladi. Odatda bolaning ijodiy tasavvuri tasvirlangan qahramonlarning kiyimlari yangi detallar o'ylab topishda yoki savatcha tayoqcha, belkurak singari predmelarni qo'shishda ko'rinadi. Tarbiyachi bo'cha bolasiga mustaqil fikrlashni o'rgatishga ixtiyoriy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini bilishi va bolaga rahbarlik qilib rejali ijodiy ishga yo'naltirishi kerak. Bo'cha yoshidagi bolalarda tasavvurni shakllantirish jarayoni to'g'risida gshapitrar ekanmiz uning bola ongida obrazlar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan emontsional tomonini aytmalik mumkin emas. Bolalar o'zlari ko'rgan va eshitgan barcha narsalardan ta'sirlanadilar. Ular o'zlari idrok etgan narsalarga muayyan ijodiy yoki salbiy munosabatda bo'ladilar. Bu albatta tasvirlash faoliyatiga ta'sir etadi. Bola yaratgan obraz etarli muayyan belgilariga ega bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolap rivojlanishining xususiyatlari va unda tasvirlash qobilyatining o'yinchoqlavr yasash mash'gulotlarida bolalar ijodkorligini o'stirishning umumiy vazifalarini belgilaydi.

“Bolalar ijodkorligi termini hozir katta guruhdagi bolalarga nisbatan qo'llaniladi. ” Fikrlash mash'ulotlari barcha yosh guruhlardagi ta'limning muhim qismidir. Ularda bolalar o'z bilimlarimni mustaqil amaliy ishga tadbiiq etish imkoniga ega bo'ladilar. Tarbiyachining o'zi bolalarga biror predmetni yasash jarayonini ko'rsatib berishi mumkin. Odatda bolalar o'ylab qo'yilgan mavzuni yarim yo'lda qoldirib ketmaydilar. Ular boshlagan ishlarini oxiriga etkazadilar. O'z harakatlarining to'g'riligini isbotlash uchun ko'pincha byuir predmetning

shaklini tarbiyasi aytmasa ham o'zlaricha qayta – qayta yasayveradilar va ularni birta syujetga birlashtiradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, mash'ulotda tarbiyachi har bir bolaga rahbarlik qilishi mavzu bo'yicha yo'naltiruvchi savollar berishi, maslahatlar berishi kerak bo'lsa, birgalashib figuralar yasashi kerak. Bolalarning tasvirlashga turlicha yondoshishiga ijodiy ish namoyon bo'ladi. Goho bolalar o'zlari yasagan o'yinchoqni o'zlariga yoqmagani uchun buzib tashlash va yangi variantda yasashga ahd qiladilar. Bu hol bolalar ijodkorligi yuqoriroq darajada namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Chunki, endi bola o'zi yasagan ishni mustaqil baholaydigan o'z bilim va ko'nikmasi asosida tasvirni yaxshilay oladigan bo'ladi. Tayyorlov guruhida bolalar ijodkorligini rivojlantirish masalasi kengroq qo'yiladi va u bolaning rivojlanganligi umumiy tayyorgarlik darajasi belgilanadi. Tayyorlov guruhidagi ishlar bolalar ijodiy harakteridagi topshiriqlarni bajarib borib, predmetlarni tasvirlashda mustaqil va rejali faoliyat ko'rsatishga o'rganadigan yo'sinda tashkil qilinadi.

Bolalar ijodkorligining muvofaqiyatli rivojlanishi ularga kattalarning to'g'ri rahbarlik qilishiga ta'limning u yoki bu usullarni qo'llashga bo'liqdir. Mustaqil ishlash ko'nikmalari asosida jamoa bo'lib o'yinchoqlar yasash tasvirlashning tanish usullarini qo'llash ijodkorlikning o'sishiga yordam beradi. Bolalarda estetik kechinmalar his – tuy'ular tevarak – atrofdagi narsalarning go'zalligini ko'ra bilishga ifodali obrazning ifodalilik elementlarini ko'ra bilish ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar ijodkor fani psixologiya, fiziologiya, bolalar adabiyoti, nutq o'stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, maktabgacha pedagogika, oila pedagogikasi va tasviriy san'at fanlari bilan o'zaro bo'liqdir. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim – tarbiya berishda o'yinchoqlar yasash katta ahamiyatga ega. U maktabda muvofaqiyatli o'qishi uchun zarur hususiyatlar ko'rib idrok etishni hotirani obrazli fikrlashni rivojlantirishga qo'l mehnati ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beradi. Bolalar ijodkorligi estetik didni shakllantiradi. Go'zallikni his qilishga uning rang – barangligini tushunishga o'rgatadi.

Tasviriy san'at sohasidagi ishlar oilasida, degan edi. Haykalarosh I. Ya. Gintsburg, - o'yinchoq yasash xuddi matematika fanlaridagi orifmetika kabi rol o'ynaydi. U predmet to'g'risidagi tasavurning alifbosidir. U predmetni o'qish, uni bayon etishning dastlabki shaklidir. Rasm chizishda predmet nisbiy tasvirlanadi, predmet hossalarning mohiyati uning eng asosiy ma'nosi ko'pincha buziladi. Gohida esa mutlaqo yo'qoladi. Bularning hammasi o'yinchoqlar yasash orqali predmetni tasvirlashda aniq ifoda etiladi. Kattalarning mohirona rahbarligi bilan bolalarda faoliyatning har – xil turlarini qiziqish ancha erta namoyon bo'la boshlaydi. Bo'channing katta guruhidayoq qurilish materiallari bilan o'ynashga yoki rasm chizishga ishqiboz bolalar . Afsuski, bo'sh vaqtlarida loy va plastilindan o'yinchoq yasaydigan yoki aplikatsiya bilan shu'ullanadigan bolalarni kamdan - kam ko'rish mumkin. Aslida bu mash'ulotlar ham faoliyatning boshqa turlari kabi bolalarning jalb etishi mumkin. Mustaqil faoliyat bolalarni tapsvirlash usullaridan dadilroq foydalanishga o'rgatadi bundan tashqari bolalar loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda xuddi rasm chizishdagi kabi materiallardan bemalol foydalanishga odatlanadilar.

Bolalar tasavvuri bo'yicha o'yinchoq yasash doimo predmet uning formasi mutanosibli haqidagi bilimlarga asoslanadi. Bolalarning mash'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida o'yinchoq yasashi asosan tasavvur va fikrlash bo'yicha yasashdan iborat bo'lib, o'z qimmatiga ega. Bunday mash'ulotlarda bolalar o'z ijodiy imkoniyatlarini ochadilar va predmetni tasvirlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar tez – tez o'yinchoq yasashga odatlangan bolalar mavzuni darhol o'ylab topadilar. Ba'zan ularda ishga kirishmaslaridan oldin. Masalan, sayrda ko'rganlari ta'siri bilan biror o'ya vujudga keladi.

7-mavzu. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati

Reja:

1. Qo'g'irchoq teatrining yaratilish tarixi.
2. Qo'g'irchoq teatrining turlari.
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrini tashkil

etish.

Tayanch tushunchalar: teatr, marionetka, axloqan pok, emotsional holatlar, emotsional holatlar.

1.1 Qo'g'irchoq teatrining yaratilish tarixi

O'zbekiston Respublikasida kechayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy-ma'naviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish keskin rivojlanib borayotganligi-jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasini kun tartibiga ko'ndalang qo'yimoqda. Darhaqiqat, kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan mas'uliyatli, ma'naviy yetuk, axloqan pok, bir so'z bilan aytganda jamiyat taraqqiyoti uchun munosib xissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, obyektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish

uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan yanada ahamiyatlidir. Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Teatr yunoncha "Tiyation" so'zidan olingan bo'lib, tomoshaxona degan ma'noni bildiradi. Jajji kichkintoylar sevimli teatri, bu ko'g'irchoq teatri. Qo'g'irchoqbozlar ayni vaqtda musiqadan yaxshi xabardor bo'lganlar. Musiqa ham badiiy bezak sifatida, ham ko'proq qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan. Qo'g'irchoq o'yini xalq og'zaki ijodiga asoslangan ajoyib-g'aroyib san'at turidir. Uning yozma matni bo'lmagan. Dunyo qo'g'irchoq tetrlarining bolalarning axloqiy – estetik sifatlarini shakllantirishdagi tarbiyaviy xususiyati turli usullar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Shu jihatdan olib qaralganda, qo'g'irchoq teatri-estetik tuyg'ularni, bolalarning qiziquvchanligi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda qulay vositahisoblanadi. Har bir qo'g'irchoq teatri o'ziga xos va mos milliy xarakterga ega. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida barkamol insonni tarbiyalash vositasi sifatida quyidagi qo'g'irchoq teatrlari tashkil etilgan:

Dunyo sivilizatsiyasida tashkil etilgan qo'g'irchoq teatrlari

YEVROPADA

Fransiya - "Polishinel"

Rossiya - "Petrushka"

Belgiya - "Pushenellenkelder"

Angliya - "Panch"

Italiya - "Pulchinella"

Gretsiya - "Sayyor"

JANUBI-SHARQIY

OSIYODA

Eron - "Shabbozi"

Xindiston - "Kaxpultli"

Xitoy - "Syansi"

Yaponiya - "Uotura Bunrakuken"

O'ZBEKISTONDA

O'zbekistonda Namangan va Sirdaryo viloyatlaridan tashqari barcha viloyatlarda davlat qo'g'irchoq teatri tashkil etilgan. Ulardan faqat Samarqanddagi qo'g'irchoq teatri Asror Jo'rayev, Andijondagi qo'g'irchoq teatri "Lola" nomi bilan ataladi.

MAQSAD

Dunyo qo'g'irchoq teatrlarida O'zbek milliy merosidagi qo'g'irchoq teatrlarida Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyoda mamlakatlari ilmiy amaliyotida qo'g'irchoq teatri vositasida jamiyatda yashash mazmuni va estetik zavqni shakllantirish Xalq yaratgan og'zaki ijodiyotga hurmat xissini paydo qilish, inson va hayvonlarga mehr uyg'otish va go'zallikni ko'ra bilish Qo'g'irchoq teatri namoyish qilinadigan tomoshalar orqali bolalarda "yaxshi" va "yomon" tushunchalarini farqlashga o'rgatish hamda axloqiy, ma'naviy va estetik tushunchalarni tarbiyalash Bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etish, sabr, chidamlilik, boshlagan ishni nihoyasiga yetkazishga o'rgatish Qo'g'irchoq teatri orqali axloqiy-estetik didni shakllantirish Axloqiy-estetik sifatlar bolalarda go'zallik xaqidagi bilimlar, hayot

voqeligi, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini, o'zini tuta bilishni, muloqotga kirishuvchanlik, yaxshi-yomonni farqlash, o'z-o'ziga baho berish kabilarni tarbiyalash masalasini o'z ichiga oladi. Inson hayoti o'z-o'zini anglashdan boshlab, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoniamalga oshishi tugallanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida, axloqiy tarbiya berishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim: Turli yosh guruhlari bolalari uchun sodda elementlar axloqiy tushunchalar haqida ma'lumot berish; har bir o'rgatiladigan u yoki bu fazilatlar rasmlar, multfilm tasmlar, axborot kommunikativ texnologiya vositalari asosida va bolalarga jonli harakatlari orqali tushuntirish; bolaga doimiy ravishda "nima yaxshi", "nima yomon" ma'nosini anglab, o'z fikrini sodda bayon etishga ko'maklashish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni teatr tomoshalariga oshno qilish, ularning qo'g'irchoq o'yinlarini tashkil qilishda quyidagilar maqsad qilib olinadi; bolalar uchun ijodkorlik, faollikni ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratish;

teatr ko'rish odobiga o'rgatish; teatr tomoshalarini jarayonida bolalarning nutqi va jismoniy rivojlanishidagi uzviylikni ta'minlash;

xalq yaratgan boy merosimizga bo'lgan muhabbat hissini uyg'otish;

qo'g'irchoq teatrini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil qilish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Har bir qo'g'irchoq teatri bolaning ruhiyatiga quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

qo'g'irchoq teatri uchun tanlangan ertak bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo'lsa bolada butun vujudi bilan uni ko'rish va unga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi;

kuzatishlarimizdan ma'lumki, ayrim bolalarda ertak qahramoniga nisbatan ruhiy tetiklik yoki qo'rqish, nafrat, ko'ziga yosh olish yoki kulib yuborish kabi emotsional xolatlar namoyon bo'ladi;

qo'g'irchoq teatri yakunida o'tkazilgan suhbatda bolalar qo'g'irchoq teatrida ko'rganlari haqida qiziqish va xursandchilik bilan qo'g'irchoq teatrini doimo ko'rishga xohish bildiradilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish mazmunini bosqichma-bosqich amalga oshirish ijobiy imkoniyat beradi.

Birinchi bosqich.

Maktabgacha ta'lim muassasasida qo'g'irchoq teatrini tayyorlashda jihozlar, ya'ni quyidagi moddiy ta'minot amalga oshiriladi:

manba tanlash (ertak tanlash). Tanlangan ertak bolaning yoshiga mos kelishi;

musiqqa tanlash;

qo'g'irchoq teatrini ko'rsatish rejasini tuzish.

Ikkinchi bosqich:

ko'zlagan maqsadga erishishda ertak mazmuniga ko'ra qahramonlarni tanlash va so'zlarini yod oldirish;

qo'g'irchoqlarni yasash va kiyintirish;

tarbiyachi bilan hamkorlikda shyerlarni yod olish.

Uchinchi bosqich:

tarbiyachi va bolalar bilan hamkorlikda teatr turiga ko'ra ertakni sahnalashtirish;

qo'g'irchoq teatrini namoyish, bolalarni qiziqishlari va ularga yoqqan qahramonlar haqidagi fikrlarini aniqlash.

«Hunarmand» uyushmalarida qo'g'irchoq ustalar bilan uchrashuv Oilalar bilan

Uchrashuvlar o'tkazish MTMLarining ilg'or ish tajribalarini o'rganish Davlat qo'g'irchoq teatrlariga tashrif Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axlohiy-estetik sifatlarni shakllantirishda hamkorlik aloqalari

1.2. Qo'g'irchoq teatrining turlari

Qo'g'irchoq teatrining 5 ta turi mavjud:

1. Soyali qo'g'irchoq teatri;

2. Qo'l qo'g'irchoq teatri;

3. Stol qo'g'irchoq teatri;

4. Marionetka qo'g'irchoq teatri;

5. Barmoqli qo'g'irchoq teatri;

1. Soyali qo'g'irchoq teatri

Soyali qo'g'irchoq teatri 2 xil bo'ladi: oq va qora.

1. "Oq" teatr uchun qora doskaga gazlamalar tortilgan bo'ladi. Orqasiga lipuchka yoki najdachniy qog'oz yopishtiriladi.

2. "Qora" teatr uchun qora rangli shirmatanlanadi. Qo'g'irchoq teatri qahramonlari cho'pga qoqiladi ular qora rangda bo'ladi orqadan chiroq yoqib turiladi.

2. Qo'l qo'g'irchoq teatri

Qo'l qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoqlar, ya'ni ertak qahramonlari qo'lga kiygizilgan bo'ladi. Qahramonlar shirma orqasida ko'rsatiladi.

3. Stol qo'g'irchoq teatri

Stol qo'g'irchoq teatri 4 xil bo'ladi.

1. Qog'ozdan yasaladi;

2. Kartondan yasaladi;

3. Taxtadan yasaladi;

4. Plastmassadan yasaladi.

Bu teatr stol ustida ko'rsatiladi. Bu teatr turi maktabgacha ta'lim muassasalari uchun qulaydir.

4. Marionetka qo'g'irchoq teatri

Marionetka qo'g'irchoq teatri 3 xil bo'ladi: arqonli, temirli, cho'pli. Bu teatr turida qo'g'irchoqlarning qo'l va oyoqlari leska, ingichka sim yoki arqon bilan bog'langan holda teatr o'tkaziladi.

5. Barmoqli qo'g'irchoq teatri

Barmoqli qo'g'irchoq teatri qo'g'irchoqlar barmoqlarga kiygizilib qug'irchoq teatri ko'rsatiladi.

1.3 Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatri tashkil etish.

Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida katta spektakllarni qo'yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o'zlarining o'yinchoqlari yordamida qo'yish mumkin. Bu kichik ko'rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg'otadi va bayram ertaklariga ko'tarinki rux baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo'g'irchoq teatri orqali ko'rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi.

Qo'g'irchoqlar turlari

1. Qo'lqopli qo'g'irchoq turi.

2. Trossli qo'g'irchoq turi (simli).

3. Iplar yordamida (marionetka) boshqaradigan qo'g'irchoq turi.

4. Ochiq usulda boshqariladigan (planshetli) qo'g'irchoq turi.

5. Soyasi tushirilib o'ynatiladigan qo'g'irchoq turi.

6. Niqob (maska) bilan ishlanadigan qo'g'irchoq.

Qo'g'irchoqlarni boshqarishda qo'l harakati.

Qo'g'irchoq teatri aktyori uchun eng zarur bo'lgan yo'nalish bu uning qo'l harakatchanligidir. Haqiqatdan ham inson xatti-harakatining eng faol ijrochisi bo'lgan qo'l qo'g'irchoq teatri o'zining mo'jizakorligi, sehrgarlik kuchini yanada yaqqol namoyon qiladi. Dramaturg asaridagi qiyofalar musavvir va qo'g'irchoq ustasining ijodiy ko'magida dunyoga kelgan qahramonlar qo'g'irchoq teatri aktyori qo'li bilan jonlanib, mantiqli, maqsadli xatti-harakatga moyil qilinadi. Bu o'z o'rnida qo'g'irchoq teatri aktyoridan qo'llarining naqadar harakatchan, chiniqqan, chidamli bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun qo'g'irchoqlarni katta mahorat bilan boshqarib, turli mantiqli xatti-harakatlar sodir qilish bilan birga, qo'l yalang'och holda, qo'lqopli holatda yoki dumaloqcha kiygan holatda turli harakatlarni amalga oshirib, turfa obrazlar yaratadi va boy imkoniyatlarini namoyon etadi. Demak, qo'g'irchoq teatri aktyorning qo'l harakatchanligi cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Sahnada bajarilayotgan harakat uch xil holatda bo'ladi:

1. Jismoniy harakat bajariladigan ishning tashqi holati (kiyinish, gul taqdim qilish, o'smaqo'yish va boshqalar). Bu harakat asosan psixik harakatni amalga oshirish uchun moslama sifatida xizmat qiladi.

2. Psixik harakat insoningiga, ruhiga, holatiga ta'sir qilib, uni o'zgartirishga olib keladi (tushuntirish, maqtash, rad etish, kulish va h.k.).

3. So'zli harakat-so'z bu fikr bayoni. So'zni sahnada aniq maqsadga erishmoq uchun aytiladi. So'z inson ruhiyatiga, ya'ni intellektiga, tasavvuriga va his tuyg'ulariga har tomonlama ta'sir qilish kuchiga ega. Jismoniy, psixik va so'zli xatti-harakatlarning barchasi sahnada bir maqsadga erishish uchun yo'naltiriladi.

Qo'g'irchoq Qo'l barmoqlarining qo'g'irchoqda joylashishi Qo'g'irchoqni Egishda barmoqlar holati Sahna ortidagi aktyor holati Qo'g'irchoq teatrida qo'g'irchoqboz jonsiz o'yinchoqqa jon baxsh etadi. Qo'g'irchoqboz soatlab oyna oldida mashq qilib, obrazni jonlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun qo'g'irchoqboz jismoniy sog'lom, qo'l va barmoqlari abjir, epchil bo'lishi kerak. Chunki, qo'g'irchoqbozning har bir qo'l harakati qahramon fikrini ifodalab berishi kerak. Qo'g'irchoqboz har xil holatda, tizzalab o'tirgan holatda, yotgan holda to'siq ortida rol ijro etishi mumkin. Ishtirokchilarning bo'yiga moslab to'siq yaratish kerak. To'siq qanday balandlikda bo'lishidan qat'iy nazar, uning ustki qismiga birlashtirilgan taxta (reyka) qo'g'irchoq uchun taxminiy yuradigan maydon hisoblanadi. Aktyor sahnada qanday yursa, qo'g'irchoq ham shartli maydonda xuddi shunday yurishi kerak, ya'ni reykaning pastga tushib ham, chiqib ham ketmasligi kerak. To'siqdan qo'g'irchoqni uchdan ikki qismi tomoshabinga aniq ko'rinishi shart. Sahna ichkarisiga uzoqlashgani sari qo'g'irchoqni balandroq ko'tarish kerak, chunki to'siqdan uzoqlashganda qo'g'irchoq tomoshabinga kichrayib ko'rinadi. Qo'g'irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo'lishi kerak. To'siqda jihozlar qancha kam bo'lsa shuncha yaxshi, chunki qo'g'irchoqlar harakati va ijrochilari uchun erkinlik va osonlik yaratiladi. Qo'g'irchoq spektaklini musiqasiz tasavvur qilish qiyin, musiqa parda ochilganda, yopilganda, ko'rinish o'rtasida, sahna o'zgarishidagi bo'shliqlarni o'ldirib turadi, spektaklni mukammallashtiradi.

Asar bilan tanishtirish va rollarni taqsimlash.

Ish asar tanlash, uni tasdiqdan o'tkazish, bolalar bilan asarni to'laqonli tahlil qilish, rassom bilan asar dekoratsiya va qo'g'irchoqlarni eskizini tayyorlash va tasdiqlashdan iborat. Shuningdek tayyor eskizlarni qo'g'irchoq yasash ustaxonasiga ularni tayyorlash uchun topshirish zarur bo'ladi. Shunday qilib, bolalar uchun tanlangan asar yaxshi dramaturgiyaga asoslangan zamon talabiga javob bera oladigan, chuqur g'oyali bo'lishi kerak. Albatta spektakl bolalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Asarning eng asosiy tomonlaridan biri spektaklda bolalarning ijodiy imkoniyatlarini to'laqonli ochib bera oladigan turli xil xarakterli obrazlar bo'lishi shart. Chunki har bir bola o'zining ijodiy tomonlarini ocha oladigan obrazga ega bo'lmog'i darkor. Demak spektakl yaratishda rejissyor rassom qo'g'irchoq ustasi kompozitor va butaforlar hamkorlikda ishlaydi.

Qo'g'irchoqlar ovozi.

Qo'g'irchoq teatrida sahna jihozlari va butaforlar soxta bo'lmaydi, balki aktyorning qo'lida qo'g'irchoq ham har xil matolardan yasalgan jonsiz personajdir. Aktyor tomoshabinlar ko'z o'ngida qo'g'irchoqni harakatga keltirib, uni o'zi sahnada o'rab turgan jonsiz narsalarni ko'rishga, sezishga va his qilishga olib keladi. Bu esa aktyorning qo'g'irchoqqa sahna, jihoz va anjomlarga ishonch bilan qarab, ular bilan to'g'ri munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlaydi. Qo'g'irchoq bilan ishlash jarayonida esa, qo'g'irchoqning o'zi jonsiz mato bo'lsa, uning predmet bilan ishlash jarayoni ham jonsizlikni tug'diradi. Shuning uchun u sahnada jonli, aniq mantiqqa moyil harakat qilishi uchun aktyor xatti-harakatini ichki ko'zguda aniq ko'rib, so'ng uni qo'lidagi qo'g'irchoqga mantiq va meyor qonuni asosida ko'chiradi. Shunda qo'g'irchoqning plastik xatti-harakati jonli kechadi.

Hayvonlar ovozi va ular xatti-harakatlari.

"Hayvonlar hiyoboni" mashqini oladigan bo'lsak, bu yerda shart-sharoit "yaylov". Demak, erta tong. Ertalab uyg'ongan har bir jonzor xoh u qush bo'lsin, xoh u echki yoki yumronqoziq - birinchi navbatda uyg'onib o'zini o'rab turgan shart-sharoitni ko'radi. So'ng uni baholaydi.

Uning atrofini o‘rab turgan borliqqa o‘z munosabatini bildirib, so‘ng xatti-harakat qilishga o‘tadi. Hayvonlar hiyoboni” mashqidagi quyon o‘ziga yegulik biror nima izlab yurganda unga hamla qilmoqchi bo‘lgan bo‘rini ko‘rib, jon saqlash uchun yashirinib oladi. Echki bolasi o‘yinqaroqlik qilib onasidan uzoqlashib qolganini anglab, bor ovozi bilan onasini “belab” chaqiradi. Uning tovushini eshitgan ona echki yugurib kelib bolasini o‘zidan uzoqlashgani uchun uni koyib, o‘zi bilan olib ketadi. Ochilgan lolalardan guldasta tergan yumronqoziq gullarni qizga sovg‘a qiladi va h.k. Bu mashqda bolalar quyon, bo‘ri, echki, yumronqoziq kabi hayvonlar xatti-harakatini, ovozini o‘zi bajarayotgan plastik harakatining mantiqidan, badanining harakatchanligiga moyilligidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri, aniq maqsadli harakat qilishga o‘z tanasini o‘rgatmog‘i lozim. Albatta bolalar aynan shu hayvon yoki parrandaning o‘ylab topgan shart-sharoitga o‘z munosabatini bildirgan va uning harakati nimaga asoslanganini aniq bilgandagina xatti-harakatga o‘tiladi. Bolalar yorqin va kuchli tasavvurga egabo‘lishi lozim. Uning tasavvuri asosli hamda puxta o‘ylab topilgan, hayot kuzatishlaridan, to‘plagan bilimlariga asoslangan bo‘lmog‘i darkor. Bolalar tasavvurini rivojlantirish va ungatushuntira olishi uchun hayotni o‘rganish, tabiat va jonzotlarning xarakterini, ularning munosabatlarini, plastikasini, insonlarning xulq-atvorini, har xil sharoitlarda o‘zini tutishini, kasb- korini hayotda tutgan o‘rni va mavqeiga qarab o‘zgarishini kuzatib o‘rganish va bu bilim xazinasidan ijod paytida unumli foydalanishi kerak. Qo‘g‘irchoq teatrida bolalar ruhiyati e‘tiborga olinib rang-barang obrazlar yaratiladi. Demak, qo‘g‘irchoq teatri aktyori faqatgina tasavvurga emas, balki kuchli fantaziyaga ham ega bo‘lishi shart. Fantaziya bu yo‘q narsani, voqealikda uchramaydigan voqea, hodisalarni, hech qachon bo‘lmagan va bo‘la olmaydigan narsalarni yaratadi. Fantaziya aynan qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun kerakli jarayon hisoblanadi. Chunki qo‘g‘irchoq teatri sahnasida hech qaysi teatrdagi bo‘lmaydigan va bo‘lishi mumkin bo‘lmagan voqea va hodisalar sodir bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda qo‘g‘irchoq teatrida tasavvur bilan fantaziya bir-biriga bog‘langan holda aktyor ijodiga yordam beradi.

8-mavzu. Qo‘g‘irchoq teatri personajlari yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish mazmuni va qo‘g‘irchoq yasash usullari

Reja:

- 1. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy qobiliyatlarining qo‘g‘irchoq teatri vositasida shakllantirish**
- 2. MTTda qo‘g‘irchoq teatrida tashkil etish va qo‘g‘irchoq yasash usullari**

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikasiya - bu tasviriy faoliyat turlari bo‘lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofnii obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she‘ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo‘ladi. Bu jarayonda ko‘rish, sezish, qo‘l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko‘rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo‘lib, uning shaklini o‘zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog‘oz, bo‘r, bo‘yoqlar) bilan ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o‘shishiga sabab bo‘ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o‘z navbatida, bolalarning oqilona o‘shishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog‘lanadilar, ularning o‘ziga xos sifatleri, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o‘xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko‘rgazmali, obrazli fikr

yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri -boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarda bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishiga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy-ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarurbo'lgan malaka, ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, ko'z faslida sayohat uyushtirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofnii kuzatishda paydo bo'luvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarini tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ularni ko'rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Maktabda qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsadi sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni maktab hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

9-ma'ruza. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatri va jihozlarini yasash

R e j a:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarining turli yosh guruhlarida ertaklarni sahnalashtirish.
2. Ertaklarni sahnalashtirish va atributlarni tayyorlash.

Tayanch tushunchalar: sahnalashtirish, atribut, syujet, personaj, xatti-harakat, ifodali, aniq talaffuz.

1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarining turli yosh guruhlarida ertaklarni sahnalashtirish.

Bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an'alarimizni singdirishda, ularga shu aziz Vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofdagi bo'layotgan voqea hodisalarni, o'zini odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab avaylash, unga mehr uyg'otishda qo'g'irchoq teatrlarini sahnalashtirish ahamiyati kattadir. Chunki sahnalashtirishda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko'rib, tinglabgina qolmay balki

unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar ertaklarni sahnalashtirishini ko'rganlaridan so'ng, qahramonlarning harakati, axloqi, odobini birgalikda muhokama qilish, bola qalbida ezgulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish to'yg'usini tarbiyalaydi. Bolalar bilan birgalikda ertaklarni sahnalashtirish orqali ertak qahramonlarining ("Oltin tarvuz", "Zumrad va Qimmat") o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi, ularga mos xatti-harakatlarni ijroda qanday aks ettirish kerakligi haqida fikrlanadi, sahna nutqini (*ifodali, aniq talaffuz*), sahnada harakat erkinligi, so'z va harakat uyg'unligi tarbiyalanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning bolalarga ta'siri ham har xil bo'ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she'riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she'r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Topishmoq predmet, voqea-hodisalar

o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, maqollar mazmuni hayotiy misollar vositasida sharhlashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o'qishda tarbiyachidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Xalq og'zaki ijodidan ertak janri bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o'qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shilib ketadi. Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining - yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish shakli bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifoda vositalarining jonliligi, bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi. Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiynchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan, «Halollik» ertagida asosiy fikr kambag'allarga yordam ko'rsatish, o'z mehnati bilan hayot kechirish bo'lib, bu hatto butun xalq istagi ekanligi g'oyasi ilgari surilgan. Bunday g'alaba maishiy ertaklardan tashqari, sehrli ertaklarda ham ifodalangan. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi. Bolalar ertakni tahlil qilish jarayonida «*Kishilardagi qanday sifatlar sizga yoqdi? (yoki yoqmad?) Nima uchun?*», «*... nima uchun jazolandi? (yoki rag'batlantirildi?)*», «*Nima uchun ertakdagi ba'zi qahramonlarga hatto tabiat kuchlari ham yordam beradi? (yoki ba'zilaridan yuz o'giradi?)*» kabi savollarga javob topish jarayonida mushohada qiladilar, muhokama qilib, xulosaga keladilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq tanishtiriladi. «*Bo'ring tabib bo'lgani haqida ertak*» (*Anvar Obidjon*), «*Ko'zacha bilan tulki*», «*Olapar, Mosh, Musicha*» kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Ertak matni ustida ishlashda savollarga javob berish, bolalarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik asvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar karakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi. Maktabgacha ta'lim tajribasidan ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o'zaro munosabatlarini to'g'ri tasavvur etishga yo'naltiriladi. Bunda tanlab o'qish va qayta hikoyalashning ahamiyati katta. Bunday ertaklarni tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. Tarbiyachi, bolalar rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq - atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga

bo'lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

«*Davlat*» ertagi oddiy turmushga tegishli hodisalarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakni o'qishga tayyorlash uchun ota-bobolarimiz atrofni, tabiatni, borliqni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o'tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, harakterlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. «*Davlat*» ertagi matni ustida ishlash jarayonida bolalar «*Dehqonning xonadoni qanday hayot kechirar ekan?*», «*Nima uchun Davlat dehqonning xonadonidan ketishni istamaydi?*» kabi savollarga javob topish orqali ertak qahramonlarini baholaydilar, ahil va inoq bo'lib, halol mehnat qilish lozim degan xulosaga keladilar.

Ertak ustida ishlashda bolalarni ertakni o'qib berishga, balki uni aytib berishga o'rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og'zaki nutqni o'stiradi, bolalar nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi. Bolalarni ertak tilidan erkin foydalanishga o'rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni tarbiyachi aytib berishi mumkin. Bola ertak mazmunini o'zlashtirib olgandan so'ng, uning tili ustida ishlashga alohida ahamiyat qaratilishi zarur. Ertak mazmunini qayta hikoyalashda, qahramonlarga tavsif berishda bolalarning o'z nutqida til vositalaridan o'rinli foydalanish talab qilinadi. Til vositalaridan foydalanish uchun talab va vaziyat, ehtiyoj yaratish zarur. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni bolalar ongiga yetkazish, yod oldirish yo'li bilan bog'lanishli nutqni o'stirish, nutqning ta'sirchanligini oshirish lozim. Masalan, «Rostgo'y bola» ertagida bola o'z rostgo'yiligi bilan podshoga ma'qul bo'lganligi hikoya qilingan. Ertak g'oyasiga mos xulosa esa «*Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir*» maqoli bilan ifodalangan. Bolalar ushbu maqol mazmunini tushunib olishsa, o'zlari ham yuqoridagi kabi ertak tuzib, hikoya qilib berishlari mumkin

10-mavzu. Ijodiy faoliyatga o'rgatish maqsad va vazifalari

Reja:

1. Ijodiy faoliyatga o'rgatish metodikasi fanining maqsad va vazifalari.
2. Bolalar ijodkorligi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi
3. Ijodiy faoliyatga o'rgatish metodikasi fanining manbalari

Mavzuga oid tushunchalar

Bolalar ijodkorligi fanining maqsadi, vazifasi, boshqa fanlari bilan aloqasi va bo'liqligi.

Bolalar bo'chasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar bolalarga berilgan ta'lim natijasida ularda bo'cha yoshidan boshlab, ijodkorlik rivojlanishini ko'rsatadi. Ijodkorlik maktabgacha yoshidagi bolalarda rasm chizish, loy va plastilindan uyinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishlarini isbotladi.

Mustaqil Respublikamiz amaliyotda qo'llanayotgan baxt qonunimizda belgilab qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama kamolga etgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari iymon, e'tiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, sabr-toqatlik, mehnatsevarlik milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarurdir.

Asirlar davomida inson aql-zakovati bunyod etilgan boy ma'naviyat tufayli, - deydi Prezidentimiz I.A.Karimov –halqimiz mag'rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki va yozma ijodiyot, avloddan – avlodga o'tib kelayotgan iymon-e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi yangi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim sohasidagi siyosatimizni belgilab berdi. Uzluksiz ta'lim tashkil etish rivojlantirish prinsiplari.

Uzluksiz ta'limni isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimi va turlari masalalarini qamrab olgan. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Har bir insonning ayniqsa endigina hayotga qadam

qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtacha qo'yilgan maqsadga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsalar ularning sobit qadam, g'ayrat inshoatiga to'la-to'kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab etishlari kerak». Mehnatni sharaflash mehnat aholini qadr-qiyamatini uning mashaqqati uchun astoydil kurashish, o'sib kamol topayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida mehnatga munosabatlarni shakllantirish zarur bo'lib, yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi, mehnat kasb hunarlari bilan hissa qo'shishlari pedagog-tarbiyachilarning oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov „Bugun biz tarixiy bir davrda –xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar,qo'yib,tinch osoyishta xayot kechirgan,aavvalom bor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib,demokratik davlat vafuqarolik jamiyati qo'rish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.Ana shu haqiqatni xalqimiz xar tamonlama to'g'ri tushunib,tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabulqilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadga erishishning asosiy manbai va garovi ekani xayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Tabiat,ijtimoiy voqealik bir butun bo'lib uni o'rganishda fanlarning o'zaro bog'liqligi obyektiv qonuniyatdir.Qadrlar tayorlash milliy dasturida belgilanganidek.Tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlari to'g'risida yangi fundamental va amaliy bilimlar shakllanadi o'rgatish usullari: jamoa bo'lib bajaradigan ijodiy, mustaqil ijodiy, yakka tartibdagi ijodiy, qiz va o'G'il bolalar ijodiyotidagi umumiylik va xususiylik, ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan predmetlar turlariga oid masalalar yoritilib berilgan.

Bolalar bog'chasida olib borilgan tadqiqotlar va amaliy ishlar bolalarga berilgan ta'lim natijasida ularda bo'cha yoshidan boshlab, ijodkorlik rivojlanishini ko'rsatadi. Ijodkorlik maktabgacha yoshidagi bolalarda rasm chizish, loy va plastilindan uyinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishlarini isbotladi. Alatta bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Bolada ijod kurtaklarini rivojlantirish vazifalari uning yoshiga xos anatomik, psixologik xususiyatlariga bo'liq bo'ladi. Quyida mana xususiyatlarni ayrimlari ustida to'xtalib o'tamiz. Maktabgacha yoshidagi bolaning predmetlar sifati va xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurining to'laligi uning analizatorlari qay darajada ishlashiga bo'liq bo'ladi. Tadqiqotlar 6 -7 yashar bolalarda ko'roish va asosiy sifatlarini shakli mutanosibli rangiYu tarkibiy qismlarini shuningdek, fazodagi o'rnini idrok eta oladi. Ma'lumki bolalar 6 – 7 yoshga etkach, tevarak atrofdagi narsalarga qiziqishi ortadi. Tafakkur jarayonlari rivojlanishi bilan bola predmetlarni ifodali tasvirlay oladigan bo'ladi. Bolalar ijodkorligida san'atkor ijodidagi singari tasavvur katta rol o'ynaydi. Ma'lumki uning kuratklari bola bo'chaga kelmasdan oq nish ura boshlaydi. Ta'lim jarayonida ertkalar eshitish har xil rasmlarni tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta – sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning o'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bolalar uchun o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiroish va tasvirlash hamda texnik usullarni tanlash imkoniyati yaratilsa, ularda uyinchoq yasash mash'ulotlarda ijodiy tasavvur elementlari namoyon bo'ladi. Odatda bolaning ijodiy tasavvuri tasvirlangan qahramonlarning kiyimlari yangi detallar o'ylab topishda yoki savatcha tayoqcha, belkurak singari predmelarni qo'shishda ko'rinadi. Tarbiyachi bo'cha bolasiga mustaqil fikrlashni o'rgatishga ixtiyoriy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlarini bilishi va bolaga rahbarlik qilib rejali ijodiy ishga yo'naltirishi kerak. Bo'cha yoshidagi bolalarda tasavvurni shakllantirish jarayoni to'g'risida gshapitrar ekanmiz uning bola ongida obrazlar paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan emontsional tomonini aytmalik mumkin emas. Bolalar o'zlari ko'rgan va eshitgan barcha narsalardan ta'sirlanadilar. Ular o'zlari idrok etgan narsalarga muayyan ijodiy yoki salbiy munosabatda bo'ladilar. Bu albatta tasvirlash faoliyatiga ta'sir etadi. Bola yaratgan obraz etarli muayyan belgilariga ega bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolap rivojlanishining xususiyatlari va unda tasvirlash qobilyatining o'yinchoqlavr yasash mash'ulotlarida bolalar ijodkorligini o'stirishning umumiy vazifalarini belgilaydi.

“Bolalar ijodkorligi termini hozir katta guruhdagi bolalarga nisbatan qo'llaniladi.” Fikrlash mash'ulotlari barcha yosh guruhlardagi ta'limning muhim qismidir. Ularda bolalar o'z bilimlarini mustaqil amaliy ishga tadbiq etish imkoniga ega bo'ladilar. Tarbiyachining o'zi bolalarga biror predmetni yasash jarayonini ko'rsatib berishi mumkin. Odatda bolalar o'ylab qo'yilgan mavzuni yarim yo'lda qoldirib ketmaydilar. Ular boshlagan ishlarini oxiriga etkazadilar. O'z harakatlarining to'g'riligini isbotlash uchun ko'pincha byuir predmetning shaklini tarbiyasi aytmasa ham o'zlaricha qayta – qayta yasayveradilar va ularni birta syujetga birlashtiradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, mash'ulotda tarbiyachi har bir bolaga rahbarlik qilishi mavzu bo'yicha yo'naltiruvchi savollar berishi, maslahatlar berishi kerak bo'lsa, birgalashib figuralar yasashi kerak. Bolalarning tasvirlashga turlicha yondoshishiga ijodiy ish namoyon bo'ladi. Gohi bolalar o'zlari yasagan o'yinchoqni o'zlariga yoqmagani uchun buzib tashlash va yangi variantda yasashga ahd qiladilar. Bu hol bolalar ijodkorligi yuqoriroq darajada namoyon bo'layotganini ko'rsatadi. Chunki, endi bola o'zi yasagan ishni mustaqil baholaydigan o'z bilim va ko'nikmasi asosida tasvirni yaxshilay oladigan bo'ladi. Tayyorlov guruhida bolalar ijodkorligini rivojlantirish masalasi kengroq qo'yiladi va u bolaning rivojlanganligi umumiy tayyorgarlik darajasi belgilanadi. Tayyorlov guruhidagi ishlar bolalar ijodiy harakteridagi topshiriqlarni bajarib borib, predmetlarni tasvirlashda mustaqil va rejali faoliyat ko'rsatishga o'rganadigan yo'sinda tashkil qilinadi. Bolalar ijodkorligining muvofaqiyatli rivojlanishi ularga kattalarning to'g'ri rahbarlik qilishiga ta'limning u yoki bu usullarni qo'llashga bo'liqdir. Mustaqil ishlash ko'nikmalari asosida jamoa bo'lib o'yinchoqlar yasash tasvirlashning tanish usullarini qo'llash ijodkorlikning o'sishiga yordam beradi. Bolalarda estetik kechinmalar his – tuy'ular tevarak – atrofdagi narsalarning go'zalligini ko'ra bilishga ifodali obrazning ifodalilik elementlarini ko'ra bilish ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor beriladi. Bolalar ijodkor fani psixologiya, fiziologiya, bolalar adabiyoti, nutq o'stirish, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish, maktabgacha pedagogika, oila pedagogikasi va tasviriy san'at fanlari bilan o'zaro bo'liqdir. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim – tarbiya berishda o'yinchoqlar yasash katta ahamiyatga ega. U maktabda muvofaqiyatli o'qishi uchun zarur hususiyatlar ko'rib idrok etishni hotirani obrazli fikrlashni rivojlantirishga qo'l mehnati ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beradi. Bolalar ijodkorligi estetik didni shakllantiradi. Go'zallikni his qilishga uning rang – barangligini tushunishga o'rgatadi. Tasviriy san'at sohasidagi ishlar oilasida, degan edi. Haykalarosh I. Ya. Gintsburg, - o'yinchoq yasash xuddi matematika fanlaridagi orifmetika kabi rol o'ynaydi. U predmet to'g'risidagi tasavurning alifbosidir. U predmetni o'qish, uni bayon etishning dastlabki shaklidir. Rasm chizishda predmet nisbiy tasvirlanadi, predmet hossalarning mohiyati uning eng asosiy ma'nosi ko'pincha buziladi. Gohida esa mutlaqo yo'qoladi. Bularning hammasi o'yinchoqlar yasash orqali predmetni tasvirlashda aniq ifoda etiladi. Kattalarning mohirona rahbarligi bilan bolalarda faoliyatning har – xil turlarini qiziqish ancha erta namoyon bo'la boshlaydi. Bo'chaning katta guruhidayoq qurilish materiallari ilan o'ynashga yoki rasm chizishga ishqiboz bolalar . Afsuski, bo'sh vaqtlarida loy va plastilindan o'yinchoq yasaydigan yoki aplikatsiya bilan shu'ullanadigan bolalarni kamdan - kam ko'rish mumkin. Aslida bu mash'ulotlar ham faoliyatning boshqa turlari kabi bolalarning jalb etishi mumkin. Mustaqil faoliyat bolalarni tapsvirlash usullaridan dadilroq foydalanishga o'rgatadi bundan tashqari bolalar loy va plastilindan o'yinchoqlar yasashda xuddi rasm chizishdagi kabi materiallardan bemalol foydalanishga odatlanadilar.

Bolalar tasavvuri bo'yicha o'yinchoq yasash doimo predmet uning formasi mutanosibliqi haqidagi bilimlarga asoslanadi. Bolalarning mash'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida o'yinchoq yasashi asosan tasavvur va fikrlash bo'yicha yasashdan iborat bo'lib, o'z qimmatiga ega. Bunday mash'ulotlarda bolalar o'z ijodiy imkoniyatlarini ochadilar va predmetni tasvirlash ko'nikmalarini mustahkamlaydilar tez – tez o'yinchoq yasashga odatlangan bolalar mavzuni darhol o'ylab topadilar. Ba'zan ularda ishga kirishmaslaridan oldin. Masalan, sayrda ko'rganlari ta'siri bilan biror o'ya vujudga keladi. Ayrim hollarda bola uni shu zahoti tarbiyachiga aytadi va kattalarning ishi bolaning istagiga e'tibor bilan qarash va kechqurun unga shu istakni eslatib

2-semestr

1-2-mavzu. Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash ("Origami usuli"). Reja:

- 1.Qog'oz sanoati haqida malumot.
- 2.Qog'oz ishlab chiqarish xomashyosi.
- 3.Qog'oz ishlash tayyorlash texnologiyasi.
- 4.Qog'oz va kartonning turmushda va sanoatda ishlatilishi.
- 5.Qog'oz turlari haqida malumot.

Odamlar asrlar davomida oz xotiralarini suyakka, toshga, hayvonlar terisiga, loyga bitik qilib kelganlar. Fikrlarning ilk shakli muayyan shartli belgilar bilan ifodalangandir.

Dastlabki kitoblar - by, qoyalar bolib, ibtidoiy odamlar unga ovchilik qorol-yaroglari, o Utop va sahroda yashovchi xayvonlarning rasmlarini o yib ishlaganlarYozuvning dastlabki turi piktografiya deyiladi. "Piktos" - grekcha rasm demakdir.

Keyinchalik odamlar yozuvni amalda qo llashga harakat qilib, Dajla va Frot vodiylarida loy kolr bolib, odamlar ilk sahifani loy plastinkadan tayyorlab, uning yumshoq sathiga uchi o'tkir qamish bilan uzaytirilgan uchburchak shakldagi belgilarni qoyyishgan. Yozuvning bu usuli mixxat deb atalgan. Ossuriya podshohi Amurbenipal, eramizdan oldingi VII asrda o'z poytaxtida sopol kitoblarning katta kutubxonasini tashkil qilgan. Qadim Hindistonda yozublar palma barglariga bitilgan. Novgorod ruslari qayin po 'stlogiga yozishgan. Qadimgi greklar mum kitoblarni ixtiro qilishgan. Misrliklar yozish materiallarini Nildan olganlar. Nil vodiysi botqoqliklarida qamishga og`shash o'simliklar mol bolib, qadimgi Rim xalqi ularni papirus deb ataganlar. Silliq, poyasiz bargsiz bu o'simlikning bo yt 4 metrga yetardi. Fergament kitobi taxminan eramizning III asrida Kichik Osiyodagi qadimiy shahar Pergamedada paydo bolgan. U hayvonlar terisidan tayyorlangan, bu anchagina murakkab va kolr mehnat bilan bajarilgan. Teh maxsus eritmada namlangan, cho "zilgan, quritilgan, keyin qirqilgan, sayqal berilgan va tekislangan.

Bir kitob uchun birpoda mol so‘ygun. Eramizdan V asr muqaddam Uzoq Sharq mamlakatlarida shoyiga yozish rasm bo‘lgan.

XIX asrda saksoniyalik to‘quvchi Keller birinchi bo‘lib, yog‘och tayyorlashda eng arzon xomashyo yog‘ochni maydalash usulini topdi. Yog‘och maydalashda doimo xo‘llab turiladigan charx toshidan foydalaniladi. Qog‘oz massasi yog‘och tselmoloza va to‘ldirgichlar, bo‘yiq moddalari, yelimdan iborat. Tselmoza qancha ko‘p bo‘lsa, qog‘ozning sifati shuncha yuqori bo‘ladi.

2. Qog‘oz ishlab chiqarish xomashvosi.

Qog‘oz ishlab chiqarishda yog‘och, poxol (somon, ip, gazlama, eski islatilgan qog‘oz, makalatura) xomashyo hisoblanadi,

Ip gazlamadan qog‘ozning qimmatbaho va maxsus navlarini ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Poxoldan karton, o‘rash qog‘ozlari tayyorlanadi.

Poxol va asosan yog‘ochdan qog‘oz ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi bolgan tselmoloza tayyorlanadi.

3. Qog‘oz tayyorlash texnologiyasi.

Qog‘oz ishlab chiqarish murakkab texnologik jarayon bolib, unda turli xomashyo va ximikatlar ishlatiladi. Tselmoloza qog‘oz kombinatsiyasi, turli korxonalar kompleksida bolib, u yog‘och ombori, qog‘oz fabrikasi, smola va yog‘och zavodini o‘z ichiga oladi. Qog‘oz-smola kombinatlari daryo va kollar qirg‘og‘iga quriladi, chunki qog‘oz ishlab chiqarishda suv ko‘p talab qilinadi, bundan tashqari yog‘ochni oqizish ham qulaydir.

4. Qog‘oz va kartonning turmushda va sanoatda qo‘llanishi. Qog‘oz kitob va gazetalar bosiladi, undan yozishda foydalaniladi. Hozirgi kunda qog‘ozning 600 dan ortiq navi mavjud bo‘lib, turmushda emas, balki sanoatda ishlatilib kelinmoqda.

Qog‘ozlar turli tovarlarni, oziq-ovqat maxsulotlari, yashiklar, upakovka qoplarini o‘rnatish uchun sarflanmoqda. Texnikada qog‘ozning maxsus navi va kartondan keng foydalaniladi. Telegraf lentasi, fotosurat qog‘ozini, elektr o‘tkazmaydigan qog‘oz shular jumlasidandir. Qog‘oz massasi va asbest aralashmasidan asbestli o‘rnatma

chidamli karton, gips bilan aralashmasidan esa quruq shtukaturka listlari tayyorlanadi. Oddiy qog'oz suvda namlanadi, oson yirtiladi. Undan tayyorlangan fibra - juda pishiq va engil material bo'lib, undan g'loflar, chamadonlar va shu kabilarni qilishda foydalaniladi. Qog'oz massasidan turli o'yinchoqlar, xona bezaklari, maxsus modda singdirilgan, pat o'tkazmaydigan sut maxsulotlari uchun tara, muzqaymoq stakanlari tayyorlashda foydalaniladi.

5. Qog'oz turlari.

Qog'oz va karton faqat poligrafiya sanoatidagina emas, balki xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qollaniladi.

Mehnat talimi o'qituvchisi, bolalarning ko'proq e'tiborini bolalar qog'ozining turmushda tez-tez uchratadigan yoki qo'lda mehnati darslar bilan foydalaniladigan turlariga jalb qilishi lozim.

Gazeta qog'ozini - eng arzon va ko'p tarqalgan qog'oz turidir. Sifatiga ko'ra unga pishiq emas, namlikni va yelimni yaxshi singdiradi.

Yozuv qog'ozini - sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi.

Narsalarni konstruksiyalash, muqovalash, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulay.

Chizmachilik qog'ozini - eng pishiq va qalin qog'oz. U lattadan tayyorlanadi. Uning oliy navi qolda quyiladi. Undan karnaval askalari, lato yasashda foydalaniladi.

Qog'ozni ikki buklash orqali o'yinchoq yasash. Qog'ozni ikki buklash orqali o'yinchoq sodda va tez bajariladi. Bunda qog'ozni buklangan qog'ozni buklangan qismi o'yinchoqni yuqorgi qismiga tug'ri keladigan Masalan, uyni tomi, avtobuzni tomi, yon daftarchani chati va boshqalar. Bu usul yordamida uy xayvonlari, yovoyi xayvonlar, parandalar, qushlarni ham yasash mumkin. O'yinchoqlar yupka kartondan yasaladi va rangli qog'oz, buyoq va flamastir yordamida bezatiladi.

Bosish mashinalariga ma'lum formatdagi katta-katta varaqalar kelib turadi. Mashinadan chiqayotganda esa qog'ozlar raqam tartibida sahifalari taxlanib chiqadi. Bu jarayon natijasida mashinalarda maxsus moslamalar yordamida qog'oz vakartonni bukish ishini bajaradi. Qo'lda falsotka qilingan qog'oz, karton barmoqlar bilan bukilib, buklangan joy tekislagich

bilan silliqilanadi. QoM bilan bukishda yordamchi asboblardan foydalaniladi. Tekislagich uzunligi 10-13 sra, eng 24 sm ikki uchi o'tkir qayirilgan, yaqxshilab silliqilgan suyak plastinkadir. Tekislangani yog'ochning qattiq yoki plastmasadan tayyorlasa ham bo'ladi. Oalin qog'ozni

bukishda chizig'i aniq va tayyorlanadigan predmet tartibli chiqishi uclu ish quydagicha amalga oshiriladi. Egiladigan chiziq bo'ylab qaychini o'tmas tomoni, bigovka roliklari yoki tekislagichning tuntoq lomoni bilan bosib iz tushiriladi. Natijada qog'ozning ana shu iG` tushgan yo'li egiladi va bir tekda bukiladi. Bu opiratsiya bigovka deyiladi

A; Kartonni pichoq bilan kesishda kesikning butun uzunlikda bir xil bo'lishi e'tibor berish lozim.

V; Agar karton unchalik qalin bo'lmasa unga qaychi, tekislagichning to'mtoq tomonini maxsus bigovka roliklari yordamida yozib iz tushiriladi.

V; Silindirsimon shakldagi narsalar tayyorlanadi kartonni bukish, agar sinuvchan egiluvchan bo'lsa alohida ehtiyotkorlik talab qiliniladi.

G; Buklash radiusi qanchalik qisqa bo'lsa kartonni bukish shunchalik qiyin bo'ladi.

D; Kartonni yog'och g'ola yoki silindirsimon shakldagi asboblardan bilan bukish lozim.

Qog'oz va kartonga ishlov berishda asosan qaychi va pichoq ishlatiladi. Qaychi 2 xil bo'ladi.

A; Uchi yumaloq , umumiy uzunligi 130 mm, dam tomoni uzunligi 55mm.

B; 2chi qaychining umumiy uzunligi 50-70 mm bo'lishi kerak.

Pichoqning ham 2 turi bor.

A; Uchi yumaloq tuntoq, qirquvchan qismining uzunligi 70 mm bo'lib .bukilgan qog'ozni qirqish uchun.

B; Uchi o'tkir metal chizg'ich bo'ylab qirqishga mo'ljallangan uzunligi 80mm ,eni 18mm bo'ladi.

V; Farslishibka-bu chizg'ich metaldan yoki pichoq bilan kartonni kesganda qirqilib ketmaydigan metaldan tayyorlanadi.

Oddiy maktab fal'slihibkasining uzunligi 400mm eni 35mm qalinligi 3mm, bortining balandligi 4mm bo'ladi.

G;Fla'sbayn ya'ni silliqlangach buklangan qog'oz chetlari ,burchaklarini tekshlashda kerakli asbobdir. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko'rinishidagi yig'ma,chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yig'ma chizmani o'qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o'lchamini aniqlashga va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko'rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o'lchami, shakli qanday bo'lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to'g'ri burchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar.

Qog'oz va karton faqat polegraf sanoatidagina emas, balki xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish sanoatida qog'oz va kartonning 200 ga yaqin turi ishlab chiqarilmoqda.

Turli xil qog'ozlardan kitoblar, oynomalar, ro'znomalar chiqarish uchun foydalanilishini barcha o'quvchilar yaxshi biladilar. Shuning uchun ham mehnat ta'limi darslarida o'qituvchi o'quvchilarning diqqat e'tiborini ular foydalaniladigan qog'ozning turmushda tez-tez uchraydigan va qo'l mehnati darslarida ishlatiladigan turlariga jalb qilib borish lozim.

Bu qog'ozlarning turlari quydagilardan iborat:

Ro'znomalar qog'ozi – eng ko'p tarqalgan qog'oz turlariga kiradi.

Sifatiga ko'ra unchalik pishiq emas, namlikni, elimni tez o'ziga singdiradi.

Yozuv qog'ozi – sathi silliq, elim singdirilgan, namlikni kamroqsingdiradi. Narsalarni ixtirolashda, muqovalashda, kartondan yasalgan narsalarni elimlashda juda qulaydir.

Chizmachilik qog'ozi – eng pishiq va qalin qog'ozdir. Lattadan tayyorlashadi, uning oliy navi qo'lda qo'yiladi. Undan bayramlar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

Rasm qog'ozi 2-nomerli bo'lib, celyulyuzan tayyorlanadi. Oliy naviga 25 foiz latta qo'shiladi. Chizmalar chizishda shuningdek qo'l mehnati darslarida foydalaniladi. Rangli va jiloli qog'oz mehnat darslarida keng qo'llaniladi. Turli xil rangda muqovalash ishlarida foydalaniladi va turli xil rangda qog'ozlar to'plami chiqariladi.

Elimlangan qog'oz – jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga elim surtilgan. Mehnat darslarida ishlatish juda qulay materialdir. Rangli jild qog'ozi turli ranglarda bo'lgan, jilo berilgan rangli qog'ozning o'rnini bosa oladi. Qo'l mehnati darslarida ko'p ishlatiladi. «Shagren' naqshdor» qog'ozi – muqavosozlikda va tayyor narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o'yinchoqlarini yasashda foydalaniladi.

Gul qog'oz – rangli va guli turlicha bo'lib muqovalashda, narsalarning ustidan elimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi.

Millimetrlilik qog'oz sathi bosma tur shaklida tayyorlanadi.

Fil'tr qog'oz – elimlanmagan qog'oz.

Karton qog'ozi – deb 1 kv. metr 250 garmmdan ortiq bo'lgan qog'ozga aytiladi. Kartonlarning turlariga ta'rif beradigan bo'lsak. Oq karton –uni qirqish oson. O'zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton elimni ko'p shimadi, (ko'pincha elimdan shishadi ham). Undan mayda narsalarni muqovalashda foydalaniladi.

Sariq karton –oq kartonga ko'ra pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi. Elimdan shishmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi. Kul rangli karton –oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Kartonning bu navidan o'ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

Rangli karton – bu yupqa egiluvchin sathiga turli rangda jilo berilgan. Ishlov berish oson va ko'rinishi chiroyli. Undan hajmi kichik narsalar, papkalar,

muqovalar tayyorlash maqul. Uning ustidan boshqa narsa yopishtirishga hojat bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatga o'rgatish qog'oz va karton turlaridan tashqari quyidagi ish turlariga bo'linadi.

- 1) Turli materiallar bilan ishlash;
 - a) Applikasiya va mozayka ishlari.
 - B) loy va plastilin bilan ishlash
 - V) tabiat materiallari bilan ishlash.
- 2) gazlama bilan ishlash
- 3) Loyihalash va modellar ishlari.
- 4) qishloq xo'jalik ishlari.

Bu ish turlarini barchasi boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati jarayonida o'quvchilardagi kasb tanlash ishlariga qaratilgan.

Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilar oldidan quyidagicha tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib boriladigan ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerakli bo'ladigan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishini rejalashtira bo'lishlari, unimli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo'yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilgan mehnat darslarida ham ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chiziq sxematik namuna, turli predmetlarning shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o'tkanimizdek «Qog'oz va karton bilan ishlash» mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida o'qituvchi quyidagi ko'rsatmali qurollardan foydalanish mumkin. Shu bilan

o'quvchilar bu ko'rgazmalarni yasashi bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin.

1. «Lola» ko'rsatmali quroli. (1 rasm).

1-bosqich: Rangli qog'ozdan kvadrat qirqib olinadi. Uning diagonallari bo'yicha buklab, buklangan duppi shakliga keltiriladi.

2-bosqich: Buklash hosil bo'lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qarab, unga etkizdirib buklanadi. Xuddi shuningdek orqa, tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga qarab buklanadi.

3-bosqich. Hosil bo'lgan shaklda cheti o'rtaga hosil bulgan chiziqqa tomon buklanadi. Shaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

4-bosqich. Oxirgi buklangan shakllarning har biri orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangandan so'ng ularning uchlari bir-biriga qaytarilib qo'yiladi. Keyin shaklning pastki ochiq tomonidan asta puflanadi. Shaklning yuqori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada «Lola» shakli hosil bo'ladi. Lolaning bandini qog'ozni cilindr shaklida o'rab, uni lolaning pastki, puflangan qismiga kiritib qo'yish bilan qilish mumkin. Bu bandga lolaning birgini, g'unchasini ham yopishtirib qo'yish mumkin.

2. «Xo'rozcha» ko'rsatmali quroli. (2-rasm).

Yasash bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi va uning barcha uchlari kvadrat o'rtasiga qarab buklanadi.

2-bosqich. Hosil bo'lgan kvadratning orqasi o'chirilib, uning uchlari ham kvadrat o'rtasiga etkazib buklanadi. Shunday ish yana bir marta bajariladi.

3-bosqich. Hosil bo'lgan kvadratning uchlari o'rtaga etkazib buklangan tomonning orqasi o'g'iriladi va uning qarama-qarshi uchlaridagi shakllar, to'rtburchak shaklida tashqariga buklanadi.

4-bosqich. Kvadratning tashqariga buklanmagan ikki uchidan ushlab uni tashqariga qaratib to'ntarilsa, «Xo'rozcha» hosil bo'ladi. So'ngra hosil bo'lgan shaklning bir uchini buklash bilan xo'rozchaning tumshug'ini hosil qilish mumkin.

6. «Baliq» ko'rsatma quroli.

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinadi. U bitta diagonali bo'yicha teng ikkita buklanadi. So'ngra yoyib uni bir uchi rangli tomondagi diagonalga etkazib buklanadi.

2-bosqich. Hosil bo'lgan shaklning orqasi, qog'ozning rangsiz tomoni o'giriladi. Ichkariga buklangan uchining ikki tomoni diagonalga etguncha buklanadi.

3-bosqich. Xuddi shunday qolgan ikki tomoni ham diagonalga etkazib buklanadi.

4-bosqich. Hosil bo'lgan shaklda tashqariga buklangan kvadratning uchta uchidan ikkitasi ya'ni ichkariga buklangan uning ikki tomonidagi uchlari pastga qaratib, uning qarshisidagi uchi esa avval chap tomonga, keyin shu buklangan uchning o'rtasidan o'ng tomonga qarab buklanadi. Hosil bo'lgan shaklni orqasiga o'girib qaralsa «Baliq» hosil bo'ladi.

8. «Stakan» ko'rsatmali quroli. (3 rasm)

9. Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog'oz olinib, uni bitta diagonali bo'yicha teng ikkiga buklanadi.

2-bosqich. Hosil bo'lgan uchburchakni diagonalida uchlardan biridan uchi uchburchakning shu uchi qarshisidagi tomonga etguncha buklanadi.

3-bosqich. Diagonallardan uchlardan ikkinchisi ham qarshisidagi tomonga etguncha buklanadi.

4-bosqich. Hosil bo'lgan shaklning yuqoridagi ikki uchidan biri buklangan uchlar tomonga, ikkinchi uchi shaklning ichkariga buklanadi. Natijada «Stakan» hosil bo'ladi.

Shunday qilib har bir shaklning tuzilish bosqichlari to'g'arak asosida bajarilishi ko'rsatiladi. Bajarilgan shakllarning mazmuni haqida gapiriladi. Bu shakllar ertak, hikoya ishtirokchilari yoki qahramonlari sifatida foydalanish mumkinligi tushuntiriladi.

SAVOLLAR:

- 1.Lola maketi qanday yasaladi?
- 2.Qog'oz va karton shularning xususiyati?
- 3.Ishdan oldin qanday tayyorgarlik ko'riladi?

3-4-mavzu. Applikasiya haqida umumiy tushuncha

Reja

- 1.Applikasiya xaqida ma'lumot.
- 2.Kichik guruhlarda applikasiya kilishga o'rgatish
- 3.Katta guruhda applikasiya kilishga o'rgatish
- 4Tayyorlov guruhda applikasiya kilishga orgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni applikasiya qilishga o'rgatish.

Tasviriy faoliyat metodikasida rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikasiya ham asosiy turlarining biri sifatida Maktabgacha ta'lim muassasasi dasturiga kiritilgan. Applikasiya mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. U bolalardagi xayolni uyg'otadi, ijodini tug'diradi, kuzatuvchanligini faollashtiradi, diqqat va tasavvurini, irodasini tarbiyalaydi. Qo'l malakasini rivojlantiradi, shaklini sezishni, mo'ljallay olish, rang sezish xissini rivojlantiradi.

Olimlar fikricha, insonlar eng kuchli rang sezishda 1300–xil rangni ajrata oladilar. Demak, atrofimizdagi olam, nozik rangni ajrata oladigan mexnatini ayamaydigan asosida biladi va go'zal bo'ladi. Rang sezishni o'stirish orqali bolalarda estetik tarbiya qobiliyatini tarbiyalanadi. Qirqish texnologiyasini egallagan holda qog'ozdan predmetli, mazmunli, dekorativ applikasiya, quritilgan o'simlikdan, somondan applikasiya bajaradilar.

Applikasiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «joylashtirish» degan ma'noni anglatadi. Applikasiya tasviriy faoliyatning bir turi. Applikasiyada ishlatiladigan ashyo o'ziga xosligi bilan ajraladi. Qog'oz, somon, quritilgan o'simlik o'ramga joylashtirilib, turli xil elim bilan elimlanadi. Mato, charm, jun,

paxmoq—ularda esa tiqiladi. Applikasiya bir xil rangli yoki rangli bo'ladi. Bir xil applikasiya grafik tus bersa, ko'p ranglisi esa go'zallik. Uni ham buni ham badiiylik bo'ladi. Applikasiya belgisi bo'lib, chamalash va buyumni xajmiy tasviriy harakterida bo'ladi. Applikasiya o'ziga hos ligi katta doirachalardan iborat.

Rang applikasiyaning ifodalash darajasini oshiruvchi vositadir. SHuning uchun applikasiya ishida ranglarning uyg'unlashuviga mos tushishi xayoliy va dekorativ kompozisiyaning ifodaliligi garmoniyasini izlab topishdir. Applikasiya talabalarda qog'ozda kompozision uquvni bilishga sharoit yaratadi. Talaba tayyorlagan applikasiya ishi estetik talabga javob berishi kerak. Applikasiya predmetning umumiy, tipik va individualdan belgisini ko'ra olishiga o'rgatadi, ularni o'zaro bog'liqligi, butun, qismlar, rita, simmetrik chamalash rivojlanadi, predmetning shaklini, rangini bosqichma—bosqich ko'rsatish malakasini ko'rsata oladi.

Applikasiya badiiy ishlarni oddiy va mos vosita orqali real asosni saqlagan holda amalga oshiruvchi faoliyatdir. Qaysiki, mustaqil asarpannolar, surat, plakat. Ilyustrativ tasvir elementar matematikaga o'rgatuvchi ko'rgazma qurol tabiat, nutq o'stirish metodikasi uchun ijodiy o'yin, o'yinchoq, 8-mart bayram sovg'asi, qurolli kuchlar va boshqa bayramlarda bezatish uchun, devoriy gazeta, ko'rgazma, Maktabgacha ta'lim muassasasini bezatish ishlarida ham bolalar applikasiya ishlarining o'rni katta.

Applikasiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalar.

Asboblar ishlatilishiga mos bo'lishi bilan birga estetik talabga javob berishi kerak. Ayrim kerakli ashyoni pap'e—mashe usulida qaychi qo'yish uchun qalamdon yasash, mo'yqalam qo'ygichni esa qalin kartondan yasash mumkin. Applikasiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, elim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'oz.

Qaychi—uchi to'g'ri, katta—kichik, katta qaychi 14-20 sm, to'g'ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun.

Kichik qaychi: 8-10 sm mayda detallarni qirqish uchun qaychi o'tkir bo'lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo'yilishi, do'stiga uzatganda

ham uchuni ushlagan holda o'zlash kerak, qaychi ko'ndalangida qo'lni silkitish, o'qalish mumkin emas. Unda ko'rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

Elim uchun mo'yqalam. Masalan: 2-3 ta mo'yqalamga ega bo'lish kerak. Mo'yqalam applikasiyaning mazmunini katta-kichikligiga bog'liq. Katta xajmdagi applikasiyaga uchi enli mo'yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so'ng, mo'yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo'yini yuqoriga qilib qo'yish kerak. Mo'yini tuzilishini saqlash uchun.

Mo'yqalam qo'ygich-elim ishlatishda elimning ortiqchasi surkalib ketmasligi stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam. masalan: tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yaxshi ochilgan, kontur chizishda ruchka va ximiyaviy qalamni ishlatish mumkin emas.

Elim uchun idish-elim kichik idishchalarga solib bo'ladi, plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yish kerak.

Applikasiya mavzuli yoki qirqilgan dekorativ shakllarni asosiy fonga turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan xalq amaliy san'atining bir turi. Applikasiyaning o'ziga hosligi tasvirning va uning ishlashida xulosaga chiqaradi. Applikasiya mashg'ulotlari bolaning tasviriy malakalarini shakllantirishga va ijodiy qobiliyatlarini o'sishiga yordam beradi. Applikasiya o'z ichiga hayolni, tasvirni, go'zallikni ko'ra olish qobiliyatlarini oladi. Applikasiya mashg'ulotlarida malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo'llashlari mumkin. Applikasiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish muhimdir.

Applikasiya o'rgatish material bilan tanishish turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma'lum tartibda joylashtirish, obraz va syujetga mos ravshda yopishtirishni taxmin qiladi. Applikasiya o'rgatish bolalarni qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. SHakl, hajm, rang, predmetni o'zaro munosabatlari haqidagi taasurotlarni boyitish bolalarni mashg'ulot vaqtida fikrlash

va (taasurot) tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Ammo har bir yosh guruhlarda applikasiya mashg'ulotlari qo'llaniladigan ta'limiy usullari o'ziga hos xususiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkaziladigan applikasiya mashg'ulotlari bolalarning sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga, ta'sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalashni va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga va ularda harakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga ta'sir etadi. Applikasiya mashg'uloti jarayonida bola rang va uning ottenkasi bilan tanishadi mashq qiladi, shaklni va predmetni to'zilishini bilishga o'rganadilar. Ritm va simmetriya haqida tushunchalari kengayib borib, qog'oz varog'ida muljallay olishga o'rganadilar. Bolalar applikasiya faoliyatida rang va uning uygunlashuvi bilan juda ko'p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko'plab rang va uning uygunlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar.

«Rangni sezish-estetik sezishning umuman eng ommabop shakli bo'lib hisoblanadi». Uning uchun uni rivojlantirish natijasida biz bolalarning estetik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatamiz. Ular shu asosida shaklning go'zalligini, ritm va simmetriyani bilishga, sezishga o'rganadilar. Bolalar ritm va simmetriyaning qoidasini bilib olishlari natijasida ular shaklning tartibli joylashishidan xursand bo'lib va aksincha tartib qoidaning buzulishi bolaning asabiylashtirib yuboradi. Bolalar bu holatni xunuk, tartibsiz, buzuq sifatida-tasavvur etadilar.

Applikasiya mashg'ulotlarida bolalar ko'pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo'ladilar natijada ular tevarak atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarni abstrakt ko'rinishini ko'ra olishga o'rganadilar. Murakkab tuzilgan shakllarni tuzilishini yaxshiroq tushunishiga, ularni to'g'ri taxlil va sintez qilishga o'rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o'zlariga tanish bo'lmagan figuralarning nomini to'g'ri aniqlashga o'rganadilar. Masalan, bolalar shaklining burchaklarini sanab uning 3 ta yoki 4 taligini natijada uchburchak va to'rtburchak, keyinchalik ularni o'zlari mustaqil ko'pburchak kabi shakllarining nomini bilib boradilar. Applikasiya mashg'ulotlari bolalarda kattalik

va fazoni mo'ljallash bo'yicha olgan tasavvurlari va qog'oz betini to'g'ri mo'ljallay olish kabi o'quvlari rivojlanadi. Bolalar shaklni yopishtirishni elimsiz aloqa qilishlari natijasida bu shaklni mantiqiy va ritmik holda joylashtirishga o'rganishlari, asosan o'rtasida o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tamonda, atrofida kabi so'zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog'oz betida nuqta orentirovka qilishga o'rgatish-bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlarini asosiy shartlaridan biridir.

Bolalar applikasiya mashg'ulotlarida juda ko'p qimmatli mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o'z ish joylarini toza saqlashga o'rganadilar va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning barchasi bolalarning maktabdagi qo'l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar engil vam ayda qog'oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, ular o'z harakatlarini tezligini to'xtatib turishga o'rganadilar. Mashg'ulot jarayonida ular oz bo'lsada-qiyinchilikni engadilar, bu esa bolalarda harakterining irodaviy xususiyatini chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi.

Kichik guruxlarda applikasiya kilishga o'rgatish Maktabgacha ta'lim muassasasida applikasiya mashg'ulotlari birinchi kichik guruh, ikkinchi kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Bu guruhda barcha mashg'ulotlarda bolalar kattalar tomonidan qilib berilgan tayyor shakllarni qog'ozga to'g'ri, turli xil joylashishda terib chiqib va yopishtirshga qaratilgandir. Bu guruhda asosiy vazifa-bolalarni elimlash usullarini o'rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan, bu malaka qator harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo'ladi, ya'ni mo'yqalamni to'g'ri ushlab, unda ozgina elim olish, shaklni teskarisi bilan qo'yib, elimni butun shaklga tekis qilib surib chiqish, surayotgan chap qo'lining barmog'i bilan shaklni tutib turish, so'ng mo'yqalamga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, shaklni sekin rang tomoni bilan o'girib, qog'oz varag'ining kerak joyiga qo'yish va salfetka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha elimni sekingina artib olish. Bu yoshdagi bolalarga ana shu harakatlarni egallab olish, albatta oson emas. Eng sodda shakl-kvadrat va doira uning uchun shu shakllardan ishni boshlash lozim. Yil davomida bolalar shu shakllarni nomini to'g'ri aytishni

egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o'tkaziladigan Applikasiya mashg'ulotlarida faqat shu shakllar bilan kifoyalanib qolish bo'lmaydi. Bu guruhda bolalarda dastlab bir; keyin 2-3 qismdan to'zilgan predmetlarni (qo'ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy) yopishtirishga o'rganadilar. SHuningdek, yil oxiriga borib bolalar olti-etti xil rangni qizil, ko'k, sariq, yashil, jigarrangni to'g'ri aytib berishlari lozim. Bu guruh bolalariga qaychi berilmaydi, chunki bolalarning qo'l harakati etarli taraqqiy etmagan va hali qurish nazorati etarli bo'lmaganligi sababli bolalar qo'lidagi qaychi xavf tug'dirishi mumkin.

Ikkinchi kichik guruxda bolalarni aplikasiya qilishga o'rgatishida ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish ahamiyatiga egadir. materialning rangi bolalarni diqqatini tortib ularni chalg'itadi. SHuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda material alohida paketlarda, tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lganidan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda kesmaga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga elim ishlatish uchun beriladi. Bu guruxda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatish namuna bilan birgalikda olib borish kerak. namunani ko'rsatish jarayonida tarbiyachi shaklning rangini aniq atash va barmog'i bilan uni ko'rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko'rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko'rsatib berilishi, bolalarni turli malaka va o'quvini vujudga kelishida muhimdir. shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib boradi. Qanday shaklni oldi, qanday ishlab qo'yib elim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Kichik maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar esa tayyor shakllarni va ularning rangini bir-biriga moslab, tanlab yopishtiradilar. Juda yaxshi estetik effekt bilan qilingan ishlar, ayniqsa dekorativ bezaklar gurux xonasini bezatish mumkin. SHunday qilib, olib borilgan tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, yaxshi uyushtirilgan aplikasiya mashg'ulotlari, bolalarni boshqa mashg'ulotlarga, dekorativ, predmetli va syujetli mashg'ulotlariga ijobiy ta'sir etadi. Bolalarda

sensor madaniyat oshadi, qo'l bilan tahlil qobiliyati o'sadi va badiiy didlari shakllanadi.

O'rta guruxda applikasiya kilishga urgatish . Bola hayotining 5-yiliga kelib ham psixologik, ham jismoniy tomondan o'sadi. Bu esa bolaning applikasiya bo'yicha bajaradigan ishning sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan predmetlarni tasvirlashga o'rganadilar.

O'rta guruh bolalari kichik guruhga nisbatan malaka va ko'nikmalarini ancha egallagan bo'ladilar. Bu guruh bolalari 2-3 qismli emas, balki 4-5 qismdan iborat predmetlarni tuzishga o'rganadilar. Dastlab, bu guruhga qaychi bilan ishlash kiritiladi. Bolalar qaychini to'g'ri ushlashga, uni richagini yopishga va ochish to'g'ri qirqim olishga o'rganadilar. Buning uchun oldin eskiz, keyin esa enli yoki keng qog'oz lentalar qirqishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar elimlash malakasini egallashi davom ettiradilar. Bola hayotining 5 yilida doira, kvadratdan tashqari uchburchak, oval, o'zun to'g'ri to'rtburchakni biladilar. Trapesiya shaklini esa kichik guruxda bo'lgani kabi obrazli tasviriyda davom etadi. Masalan:

tom, qayiqcha, kichik guruhga yana qo'shimcha havo rang, pushti, kulrangni sezishga va to'g'ri aytishga o'rganadilar. Ular qog'oz varog'ida tez va osonlik bilan orintirovka qilishga o'rganadilar. Ular orqada, ketma-ket, teng masofada va boshqa fazoviy tushunchalarni egallaydilar. Bolalar to'g'ri kesmalar qirqishdan tashqari aylanaviy shakllar qirqishga o'rganadilar. Ular kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchaklarini dumaloqlashga o'rganadilar. Ana shu qirqib olingan aylanaviy shakllardan qo'ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o'rganadilar.

YOpishtiriladigan detallar soni ham ko'payadi, masalan: uychani tasviriyda faqat devori emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlaydilar. SHakl va rang bilan ishlash ham rivojlanadi: to'rtburcha, kvadrat, doira, uchburchak, pushti rang, kulrang, havo rang va boshqalar. Bu guruxda qog'oz varag'ida to'g'ri mo'ljallashga o'rganadilar va ko'yidagi tushunchalar bilan tanishib boradilar. Masalan: orasida, chekkada, bir xil masofada va boshqalar. O'rta guruxda tarbiyachi o'zining asosiy diqkatini bolalarni qaychi bilan ishlashga qaratiladi. Yil

davomida tarbiyachi bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi. Tarbiyachi qaychini to'g'ri ushlagga, qog'ozni to'g'ri ushlagga o'rgatib boriladi. YOpishtirish malakasi esa mustahkamlanib boradi. Bu guruxda asosiy vazifa bolalarni qirqish texnikasini egallab olishga qaratilgandir bu guruxda tarbiyachi bolalarni predmetli dekorativ, mazmunli aplekasiyaga o'rgatib boradilar. Sodda predmedlardan murakkab predmedlarni tasviriyga o'rgatiladi. Tarbiyachi bolalarni qaychi bilan ishlashga, uni to'g'ri ushlagga o'rgatib boriladi. Bolalar albatta qaychi bilan ishlashga darhol o'zlashtira olmaydi. SHuning uchun tarbiyachi qaychi bilan ishlashga o'rgatishda dastlab enli, ensiz kesmalar qirqishga o'rgatib, mashqlantiradi, har bir applikasiya mashg'ulotlarining mavzu va mazmuni turlicha bo'lishi lozim. Masalan: dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalarga «dukon» uchun chipta, cheklar qirqishni taklif etadi. YOki masalan qirqilgan kesmalardan uycha, daraxt, panjara, narvon kabi predmetlarning oddiy ko'rinishi tasvir etishi mumkin. Bu esa bolalarni mashg'ulotga qiziqishini oshiradi va mashg'ulotni bir xil tarzda bo'lishini oldini oladi. Bir-ikkita mashg'ulotni o'tkazgach, keyingi mashg'ulotlarni bolalarni ijodiy aktivligini o'stirish uchun tavsiya etish mumkin. Masalan: Bolalarni o'zlari qirqib olgan rangli kesmachalardan turli xil predmedlarning ko'rinishini tasvir etadilar. Masalan: YUlduzlar, bayroqchalar, gullar. Keyingi applikasiya mashg'ulotlarida bolalarni to'rtburchak, kvadratni dioganali bo'yicha, trapesiya va uchburchak hosil qilishga o'rgatiladi. SHarf, sochiqni kvadrat va uchburchaklar bilan bezaydilar, shuningdek, kvadrat - gilamga, dastrumolcha, doira-taxsimchani ham bezaydilar. Tayyor siluetlar ham berish mumkin. Bolalar oval va doira shaklni hosil qilib qirqishga ancha qiynaladilar. Ular doiraviy shakldagi predmetlardan: tursa yiqilmas qo'g'irchoq, meva-sabzavotlar, piramida va boshqalarni qirqib yopishtiradilar. O'quv yilining davomida bolalarga mazmunli aplekasiya ishlarini ham taklif etishi ham mumkin. Masalan: Bo'g'irsoq yo'ldan dumalab ketayapti, o'tloqdagi jo'jalar, qo'ziqorinlar va hokazo.

Bu guruxda bolalarni jamoa bo'lib ishlashga o'rgatamiz. Masalan: katta gilam yoki sabzavot mevalardan tashkil topgan vitrinani yoki havoda, osmonda

samalyotlarni tasvir etishlari mumkin. Bundan tashqari bolalar o'z xohishlari bo'yicha xilma-xil applikasiya ishlarini bajaradilar. Masalan: Onam uchun sovga, tayyor siluetni naqshlar bilan bezatish mumkin. Masalan: fartuk, qo'lqop, shapkani qirqib yopishtirish yoki bezatish mumkin. Tarbiyachi bu guruxda ham hilma-xil metod va usullardan foydalanadi. Muhim bo'lgan metodlardan biri informasion-reseptiv hisoblanadi. Bu metod tasviriy lozim bo'lgan predmetni har tomonlama ko'rib chiqish va taxlilni o'z ichiga oladi. Tarbiyachi bu guruxda ko'proq bolalarning o'zlariga tasvirlanayotgan predmeti haqida gapirib berishni, uning sifat, belgisini konkret aytib berishga, tasviriy yo'llarini mustaqil bilishga o'rgatib boradi. Bolalar predmetining tasvirini to'zish orqali, o'sha predmet shaklini qirqishga, uning to'zishini to'g'ri tasviriyga, qisimlarning kattaligini to'g'ri berishga o'rganib boradilar. Bu guruxda qirqish birinchi marta kiritiladi. SHuning uchun eng muhim diqqat-e'tiborni qaychini ushlashga, qirqish usullarini ko'rsatishga bog'liq bo'ladi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi qaychi bilan qanday ishlash kerakligini ko'rsatib beradi. (richagini ochib, yopishni qanday, qaerdan ushlashni ko'rsatib beradi). Qog'oz qirqishni bolalarga namoyish qilish orqali qaychini oldingi qanday qilib harakat qilishni ko'rsatadi. Bolalarni kvadratlardan doiraviy shakllar qishqishda ularning faqat burchaklarini qirqish kerakligini ko'rsatish kerak va qog'ozni qo'lda biroz harakat qildirish kerakligini namoyish qilib beradi. Bu usul bolalar oq qog'oz, so'ng rangli qog'oz berish tavsiya etiladi. Tarbiyachi tanish bo'lgan qirqish usullarini birorta bolani chaqirib, bolalar uchun namoyish qilib berishni taklif etish mumkin. Har bir harakatni tarbiyachi so'zi bilan tushuntirib borishi kerak. Agarda murakkab aplikasiyani tuzish kerak bo'lsa, tarbiyachi flanigrafdan o'sha narsani illyustrativ rasmlarni ko'rib chiqishni taklif etish mumkin. Masalan: qo'ziqorin, uning oyoqchasi va shapkachasi bor, oyoqchasi pastda, shapkasi yuqorida joylashgan. So'ng tarbiyachi bolalarga savollar beradi, obrazli so'zlardan foydalanadi, qo'l bilan shakl ko'rinishini tasvirlovchi harakatlarni bajarishlari mumkin. SHuningdek, tarbiyachi namuna ko'rsatishda foydalanadi. Namuna shuningdek, predmetning o'zi ham topilmagan taqdirda foydalanish mumkin. Mashg'ulotda eng muhim metodlardan

biri yopishtirishni ko'rsatish va tushuntirish hisoblanadi. YOpishtirish jarayonini hamma bolalarga ko'rinadigan qilib, namoyish qilish lozim. Buning uchun doska yoki mo'ljabtdan foydalanish mumkin. SHuningdek, yopishtirish jarayonissida ketma-ketlikni bolalar yaxshlab o'zlashtirib olishsa uni bolalarning o'zlariga taklif etish mumkin yoki ko'rsatishni o'rniga, faqatgina og'zaki tushuntirish bilan kifoyalanib qolish mumkin. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'yin usuldan keng foydalanish mumkin va lozim. CHunki bu usul bolalarni mashg'ulotga nisbatan qiziqishni uyg'otib, ularni aktivlashtiradi. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlashda indiviudal ishlash, muhim ro'ly o'ynaydi.

Tarbiyachi bir bolaga yopishtirishni ko'rsatsa, ikkinchisiga nimasini qilish kerakligini tushuntirib beradi. Bolalar ishini ko'rib chiqish ham muhim metod va usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Tarbiyachi bolalar ishini ko'rib chiqish va taxlil qilish faqatgina barcha bolalarni ishini maqtash lozim. Keyingi mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalar ishini taxlil qilishda ishning ozoda bajarilganligi, rangning to'g'ri tanlanganligi va qog'ozda to'g'ri joylashtirilganligini hisobga olib, taxlil qiladi va bolalarni ham shunga o'rgatib boradi. Masalan: bolalar tursa yiqilmas qo'g'irchog'ini ichida chiroyli, singanlari va xafalari ham borligini aytishga o'rganadilar. Bunga tarbiyachi bolalarni yilning II yarimidan boshlab o'rgatib boradi.

O'rta guruxda bolalar tayyor shakllardan applikasiya tuzish bilan birga o'zlari ham mustaqil qirqib yopishtiradilar. Naturani taxlil qilishda bolalarni diqqati faqatgina rang va shaklga tortilmay, balki qismlarning razmeri va soniga ham tortiladi. Masalan: tursa yig'ilmas qo'g'irchoq u sharchalardan katta, o'rtacha va ikki shardan iboratligini aniqlaydilar. Murakkab topshiriqlarni bajarish proressida ularga material alohida beriladi. Masalan: uyni yopishtirish. Uning devor, tom va oynaga mos bo'lgan razmerdagi rangli qog'ozlar beriladi. Bu guruxda naturani ko'rib chiqish namuni bilan birga olib borilishi shart emas. Namunani taxlilini o'zi etarli bo'ladi. Namunani qurib chiqishda tarbiyachi bolalarining diqqatini uni yaxshlab qurib chiqishga tortib, quyidagi savollarni beradi: Predmet qanday shakllardan tuzilgan? Bu qanday shakl? Rangi qanday? va boshqalar.

Tarbiyachi predmetning qismlarini yoki naqsh elementlarini yopishtirish tartibini ko'rsatib beradi. Bu guruxda tarbiyachi faqatgina qismini ko'rsatib berishdan ham foydalanadi. Masalan: uyni yopishtirishda uni tomini qirqishi ko'rsatib beradi xolos, qolganini bolalarning o'zlari bajaradilar. Bu guruxda alohida ahamiyat qaychi bilan ishlashga beriladi. Tarbiyachi bolalarga qaychi bilan ishlash texnikasini ko'rsatib tushuntiradi. Qo'lni qaychining richagini qanday harakatlantirishini o'rgatadi. Qaychi bilan dastlabki mashqlarni yaxshisi 8-10 bola bilan o'tkazgan ma'qul, chunki ularni ko'zatish va o'z vaqtida yordam ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bolalar bilan birgalikda bajarilgan applikasiyani ko'rib chiqadi. Predmetga o'xshaydi, shakllar toza yopishtirilganmi. Tarbiyachi bolalarning taxliliga yakun yasab, bolalarni yaxshi ishlarga diqqatini jalb etadi.

Katta guruxda applikasiya qilishga o'rgatish. Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotining ma'lum bir qismi ikki va undan ortiq bolalar bilan birga ishlaydigan jamoa ish sifatida tashkil etish lozim. Bolalar birgalikda oldida turgan vazifani muhokama qiladilar, ish tartibini planlashtirishadi, bir-birlariga yordam ko'rsatadilar. Applikasiya mashg'uloti shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarining o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining 6-yilida kuzatishlar, o'yin sensor tarbiyaning ta'siri ostida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatlari to'g'risida bilim va tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy o'kuvi va texnik usullari mavjud bo'ladi, qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan aplikasiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi. Applikasiya mashg'ulotlari prosessida predmet to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar berib boriladi. Bolalar xilma-xil shakllarni atashga, kvadrat, to'rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini to'g'ri atashga o'rgatib boriladi. SHuningdek, bolalarni oval, doira, uchburchakni to'g'ri ajratishga farq qilishni o'rgatadi. SHunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan

tanishib boradilar. Masalan: och, to'q, yorqin ranglar va boshqalar. Bular orqali bolalar rangni sezishga, uni tanlay bilishga o'rganib boradilar. Applikasiya prosessida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rganadilar, baland-past, keng-tor ya'ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradilar. SHuningdek, qog'oz varag'ini mo'ljallay bilish bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, tepada, pastda, o'rtasida, ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladilar. Bu ishda bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o'rgatib borish davom ettiriladi. Bu bilan o'rgatib borish davom ettiriladi, bu bilan bolar o'rta guruxda egallagan qirqish usullarini takrorlab, mustahkamlaydilar va yangi qirqish usullarini egallaydilar. Bular quyidagilar: qog'ozni 2 buklab bir xil shakllar qirqish usuli, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqishga o'rganadilar. Masalan: gullar, barglar va hokazo. Bu guruxda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. CHunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki aplikasiyaning sifatiga ta'sir etadi. O'quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o'rta guruxda etarli darajada egallamagan bo'ladilar. Bolalar predmetlarni qismlarga bo'lib, qirqib yopishtirishni o'rgangach, ularning qirqishning rasional usuli ya'ni garmoshka usulida qog'ozni buklab qirqishga qrganadilar. Ammo yilning boshida dumaloq shaklidagi predmetlarni qirqishni mustahkamlashga tarbiyachi quyidagi temalarda ishlar berishi mumkin. Masalan: ko'zgi barglar, sabzavot, mevalar, qo'ziqorinlar va hokazo. O'quv yili davomida bolalar predmetli applikasiya ishlarini bajaradilar. Masalan: samolyot, raketa, mashina, trolleybus va hokazo. Qog'ozni garmoshka usulida buklab qirqishga turli hil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan: bargli shoxcha, gullar, archa o'yinchoqlari. SHuningdek, dekorativ applikasiya bo'yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek tayyor siluetlarni zontik, choynak, fartuk kabilarni bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan: guldon, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo.

Bolar predmetli, dekorativ applikasiyadan tashqari mazmunli applikasiya ham bajaradilar. Masalan: quyoning bo'g'irsoq bilan uchrashuvi, qor bosgan uycha, qiz bayroq ushlab turibdi va hokazo. Katta guruxda bolalar o'z ixtiyorlari bilan ham applikasiya ishlarini bajaradilar. Bolalar olgan bilim, malakalar asosida o'zlari mustaqil applikasiya ishlarini bajaradilar. Applikasiya mashg'ulotlarida bolalar jamoa ishlar bajaradilar. Gullar va afsonaviy qushlar tasvirlangan gilam, sevimli o'yinchoqlari va boshqalar. Katta guruxda ham applikasiya mashg'ulotida tasvirlash kerak bo'lgan predmetlarni tahlil qilishga katta o'rin ajratiladi va unda bolalarni savollar bilan aktivlashtirilsa, katta guruxlarda esa bolalarni mustaqilligini qo'proq ta'minlaydi. Tahlil jarayonida bolalar predmetning shakliga, rangiga, turli xil xususiyatlariga e'tibor berishi lozim. Xalq amaliy san'ati asarlarini ko'rib taxlil qilishga, bolalarga ranglar garmoniyasining go'zalligini sezishga, ko'pincha kompozisiyaning mazmundorligini ochishga o'rgatiladi. Bu guruxdan namunadan ayrim hollarda, ya'ni ishning yakunini namoyish qilishda foydalanish mumkin. Har bir qirqish usullarini ko'rsatib berishga maqsadga muvofiq bo'lmadi. Tarbiyachi ko'proq bolalarning o'zlarini aktivlashtirib, bolalarning o'zlariga mustaqil ravishda qirqish yo'llarini, yopishtirish tartibini qidirib topishga undaydi. Agarda yangi qirqish yo'llari kiritiladigan bo'lsa, tarbiyachining o'zi qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Masalan: qat-qat usulida qirqish, ayniqsa, simmetrik figuralarni qirqishda bolalar ancha qiynaladilar. SHuningdek, tarbiyachi ayrim predmetning qog'ozdagi tasviridan foydalanish mumkin. (qo'l harakatlari bilan yurgizib chiqishi mumkin). Dastlab tarbiyachi «predmetning yarmi» deb tushuntirish asosida bolalar usulni tushunib etadilar. Bu guruxda bolalar qog'ozni qo'l bilan yirtib, mayda bo'lakchalardan foydalanib tasvirini hosil qilishga o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatib, mazmundor applikasiya yaratishga, tayyorlov guruxga o'tgach ularning applikasiya bo'limi ancha murakkablashadi. Ular qirqimning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullari-bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish hisoblanadi. SHu bilan bu gurux bolalarni turli xil shakllarda dekorativ naqsh to'zishga va bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga

hamda mazmunli applikasiya tuzishda predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar. SHu bilan birga rang spektrining barcha ranglaridan foydalanishga o'rganadilar.

Siluet kirkish -eng murakkab usullardan biridir. Siluet kiritish jarayonida bola doimo predmetning obrazni xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini ko'zatib turishga, qo'l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo'nalishiga moslashishga to'g'ri keladi. shuning uchun bolalarni siluet kirishga o'rgatishni sodda shakllaridan baliqlar, sabzavot, mevalar dan boshlash lozim.

Katta guruhda bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: Bolalarni to'g'ri harakat bo'ylab qirqish, dumoloq shakllarni va ikkiga buklangan qog'ozni qirqishga o'rgatiladi. Bir nechta qismdan to'zilgan predmetlarni hosil qilishga, geometrik va simlik formalaridan chiroyli dekorativ naqsh to'zishga o'rganadilar. Demak, bu guruxda asosiy vazifa qirqishning xilma-xil usullarini egallashdan iborat ekan. Oldin bu guruxda ham o'rta guruxdagi kabi mavzularda, faqat detallar soni ko'paytirilib qorbobo, kalpogi boshida yoki qo'lida xaltasi bilan, samolyot esa qanotlarida yulduzi bilan va qorboboning yuz qismidan mayda detallarini: burun, ko'z va boshqalar. Bu guruhda bolalar ba'zi shakllarni ikkiga buklangan qog'ozdan, shoxchasi barglari bilan. Bu usullarni ishlatilishi vaqtni ancha tejaydi va chiroyli mazmun yoki kompozisiyani tayyorlash mumkin. Qog'ozni ikkiga buklab qirqish, bir-biriga simmetrik shakllarni qirqishni osonlashtiradi. Bu usuldan foydalanib bolalar vaza, barglar, sabzavot va mevalarni shaklini qirqadilar. Katta guruhda bolalar shakllarni qog'ozning uchini qo'li bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o'rganadilar. Katta guruh bolalarning ishlaydigan ish mazmuni shu bolalarda qirqishning ko'nikma va malakasini rivojlantirishdir. Dekorativ applikasiya ishlarida esa bu guruhda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o'simlik shakllaridan barg gullar va boshqalarni elementlari kiritiladi.

Tayyorlov guruhga o'tkach, ularning appilikasiya bo'limi ancha murakkablashadi ular qirqishning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullar-bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish hisoblanadi. SHu bilan birga bu gurux bolalarini turli xil shakllarda dekorativ naqsh to'zishga va bir

necha qismdan to'zilgan predmetlarni to'zishga hamda mazmunli Applikasiya to'zishda predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar. SHu bilan birga snektorlarining barcha rangdaridan foydalanishga o'rganadilar.

Siluet qirqish-eng murakkab usullaridan biridir. Siluet qirqish prosessida bola doimo predmetning obrazini xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini ko'zatib turishga, qo'l harakatini hosil qilishayotgan shaklining yo'nalishiga moslashishga to'g'ri keladi. SHuning uchun bolalarni siluet qirqishga o'rgatishni sodda shakllaridan (baliqlar, sabzavot va mevalar) dan boshlash lozim..

Katta gurux bolalarini applikasiya qilishga o'rgatishda qirqimning turli usullarini egallash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarning tasavvuriga asoslangan holda tarbiyachi bolalar bilan naturani, uning qismlari, to'zilishini taxlil qilib, alohida qimlarga ajratib ko'rsatadi. Namunada agar bolalar predmetni birinchi marta tasvirlayotgan bo'lishsa foydalanish mumkin. Uni taxlil qilishni bolalarning o'ziga topshirish mumkin bo'ladi. Agar bolalar o'zlariga tanish predmetni bir necha detallari bilan tasvirlanayotgan bo'lishsa, namuna o'rnini natura bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan: Oddiy uyni emas, afsonaviy uyni yoki bayramga bezatilgan uyni katta va tayyorlov guruxlarda bir necha namunalardan foydalanib, ko'rsatish tavsiya etiladi. CHunki bu narsa bolalarning ijodiy aktivligini tarbiyalaydi. Bu guruxda bolalar qog'ozni ingichka buklab simmetrik shakllar qirqishga o'rganadilar. Bu albatta qiyin usul, shuning uchun I.A.Gusakova bolalarni bu usul bilan dastlab tanishtirishda qog'ozni buklab chizilgan kontur berishni tavsiya etadi. Bolalar bu usulni egallab olgach ularni kunt bilan chamalab qirqishga o'rgatiladi. Katta guruxda kallektiv bo'lib aplikasiyalar bajariladi. Masalan: «Akvariumdagi baliqlar», «O'tloqdagi gullar», «Ko'chadagi uy va mashinalar». Har bir bola ishning qaysidir qismini bajaradi. Keyin har bir qism umumiy fondga birlashtiriladi. Tarbiyachi ishni bolalarni hoxishiga qarab taqsimlaydi. Ba'zi jamoa ishlarni bajarishda bolalar 4-5 ta bo'lib, guruxchalarga birlashishadi.

Tayyorlov guruhida applikasiya kilishga urgatish. Tayyorlov gurux bolalari bilan dasturda mazmunli aplikasiyalarni berish ko'zda tutiladi. Ular

ko'cha, akvarium kabi mavzularda shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustrasiyalar bajarishlari mumkin.

Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruxsida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqishlar to'zishda ularga turli razmer va rangdagi tayyor shakllar beriladi va bu guruxda ham katta guruxdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanish davom etadi.

Tayyorlov gurux bolalari bilan dasturda mazmunli applikasiyalarni bajarish ko'zda tutilgan. Ular «Ko'cha», «Akvarium» kabi mavzularda, shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illyustrasiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruxida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda turli o'lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi. Va bu guruxda ham katta guruxdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanishi davom etiladi. Ikinchi kichik guruxda bolalarni applikasiya qilishga o'rgatishga ish uchun beriladigan materiallar va mashg'ulotni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarni diqqatini o'ziga tortib ularni chalg'itadi. SHuning uchun dastlab mashg'ulotlarda material alohida paketlarda tushuntirilib bo'lgandan so'ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo'lgandan so'ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda qog'oz varag'ida terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarni qo'yib yig'ilganligini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga kley ishlatish uchun beriladi. Bu guruxda tarbiyachi bolalar bilan naturani ko'zlatishi namuna bilan birgalikda olib borishi kerak. Namunani ko'rayotgan prosessida tarbiyachi shaklning rangini aniq atashi va barmog'i bilan uni ko'rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko'rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko'rsatib berilishi bolalarni turli malaka va o'quvini vujudga kelishida muhimdir. SHuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko'rsatib beradi. Qanday shaklni oldi, qanday qilib quyib kley surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o'zining har bir harakatini so'z bilan birgalikda olib boradi.

Tayyorlov guruxda ishning dastur materialiga siluet qirqish usuli kiritiladi. SHuning uchun o'rgatish usullarining harakteri bir muncha o'zgaradi. Naturani

taxlil qilishda tarbiyachi ularning diqqatini predmetni konturiga tortadi, barmoq harakati orqali. Bunda harakatni qirqish qaysi qismdan boshlanadigan bo'lsa o'sha qismdan boshlash lozim. Bu guruxda bolalar endi predmet konturiga qandaydir detal qirqishga o'rganadilar (tipratikan ignalari bilan). Albatta bolalarga bu qiyn. SHuning uchun bu ishda ikki etapdan foydalaniladi. Oldin tayyorlangan qog'ozdan umumiy kontur qirqiladi. So'ngra uning detallari, masalan: oyog'i yoki suzgichlari qirqiladi. Ba'zi vaqtlarda siluet qirqish oldindan chizilgan kontur asosida qirqiladi. Bu narsa ko'proq murakkab o'simlik elementlaridan dekorativ shakllar to'zishda qo'llaniladi. Bu guruxda qog'ozni ikkiga buklab qirqishning murakkabroq usuli bilan tanishtiriladi. Masalan: archa, odam, hayvon shakllari. YAna bu guruxda qirqishning murakkab usuli-qog'ozni bir necha marta buklash orqali qirqishga o'rgatish usuli o'rgatiladi. Bu usul salfetka, qor parchalari hosil qilishda qo'llaniladi. Tarbiyachi bolalarga qog'ozni qanday buklash kerakligini, qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Bu usuldan bolalar keyin dekorativ applikasiya mashg'ulotlarida foydalanadilar. Bu guruxda hali syujetli applikasiya qilish davom ettiriladi. Bunda bolalarni shakllarni to'g'ri joylashtirib, yopishtirishga o'rgatadilar. Oldin umumiy fon, keyin o'zoqdan joylashgan, o'rtada va oldinda joylashgan predmetlar yopishtiriladi. Tayyorlov guruxda applikasiya jamoa ish sifatida berilishi mumkin. Masalan: «Egri va tugri» ertagida bolalar 4 tadan bo'lib, har bir gurux shu ertakdan ma'lum bir ko'rinishni bajarishlari mumkin. Bolalar shu ko'rinish elementlarini qirqib, joylashtirib qurganlaridan so'ng uni qanday ketma-ketlikda yopishtirish kerakligini aniqlaydilar. Biri elim surtadi, ikkinchisi uni joylashtiradi, uchinchisi latta bilan mahkam yopishtiradi. Bu ish bolalarni o'rtoqlik, jamoatchilik ruhida tarbiyalashda katta qimmatga egadir.

Maktabgacha ta'lim muassasasining hamma guruhlarida ixtiyoriy applikasiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Lekin o'rta gurux bolalariga o'ylagan mazmunlari asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruxlarda o'zlari o'ylagan mazmunlari asosida qirqadilar. 6-7 yoshdagi bolalar oldindan qiladigan ishlari mazmunini eskizni oddiy qalam bilan chizib olishi, keyin esa shu eskizning detallarini applikasiya qilishlari mumkin.

7-mavzu: Maktabcha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan o'yinchoqlar yasash.

O'simliklarni quritib olish. O'simliklarni to'plash va qurilib olishda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo'lishi kerak. O'simliklarning gullari, barglari, poyasi va shu kabilni lo'plash maqsadida ekskursiyaga chiqilganda bir juft gazeta, qaychi bo'lishi shart. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tanib bilni joylanadi. Gullarni qo'l bilan sindirib olib bo'lmaydi, aks holda, poyasi zararlanishi mumkin. Quritib olishga mo'ljallangan o'simliklar har qanday namlik (yomg'ir yoki shudring)dan xoli bo'lishi kerak, aks holda, o'simlik quritilganda unda dog'larning izi qolacli. Qurtilayotgan o'simliklarda tabiiy rangni asrab qolishning eng muhim sharti ularni shamol o'tib turadigan joyda, yelvizakda. quyosh nurida tez quritib olishdir. O'simliklarni quritish 3 sutkadan ortiq davom etmasligi kerak. Turli o'simliklarni to'plashning o'z muddatlari bo'ladi.

Tabiiy materiallarni to'plash, avvalo, insonning oldiga qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. Masalan: barglarni, gullarni, urug'larni to'plab, keyin ulardan nimani va qanday ishni bajarishni aniqlab olish lozim.

Barglarni gerbariy ramkalarida quritish. Gerbariy ramkalarida quritilgan o'simliklarning ko'pchiligi o'zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o'simlik yumshoq qog'oz va gazeta orasiga solib qo'yiladi. Har bir qog'oz va o'simlik orasiga yana bir necha qavat gazeta qo'yiladi, chunki quritilayotgan o'simliklar o'zidan namlik chiqaradi. Shundan so'ng ikkita to'rsimon ramka o'rtasiga qo'yilib ochiq havoda quritiladi.


Taxtakachda bostirib quritish. Orasiga o'simlik solingan qog'ozlar gerbariy papkasi o'rniga ikkita faner listlari o'rtasiga joylanib, og'ir narsa bilan bostirib qo'yiladi. Og'irlik taxtakachda qancha o'simlik joylashtirilishiga bog'liq. Mayda nozik o'simliklar kam og'irlikni, quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi, 1 soatdan keyin ustiga qo'yilgan qog'ozlar almashtiriladi. Nam bo'lgan qog'oz olib tashlanib, yangisi qo'yiladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.


Quritishning yana bir usuli dazmoldan foydalanishdir. Issiq dazmolda barglar, poyalar, maysalar, gullar quritiladi. Masalan: qavat-qavat gazeta yoki yumshoq

qog'oz orasiga o'simlik qo'yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So'ngra ust qavatidagi gazetani olib, shamollatiladi va quruq joyga qo'yiladi. So'ngra gazetani yopib yana dazmollanadi. O'simlik 2-3 daqiqada quriydi va o'zining rangini yo'qolmaydi. Agar quritilayotgan narsa ko'tarilganda o'z tanasini yaxshi ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agarda u sinib, maydalanib ketse, bilingki, siz uni ortiqcha quritib yuborgan hisoblanasiz. Barglardan ijodiy ishlar bajarishda quyidagi namunlarni lavsiya qilamiz. Marhamat, o'zingiz ham bajarib ko'ring.











SOMONDAN APPLIKATSIYA

Poxol (somon). Poxol-somondan sanoatda to'qish va deko-ratsiya, applikatsiya ishlarida (qutichalar, panellar, qalamdonlar) va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi. Bu maqsadda bug'doy, javdar, arpa somonlari ishlatiladi. Agarda bu o'simlik-larning poyasi yaxshilab qaralsa, poyaning o'zaro bo'g'imlar bilan birikkanligini, eng yuqoridagi qismi ingichkaroq, uzunroqligini ko'rish mumkin. Poyani ana shu bo'g'imlardan qirqib olib qismlarga ajratiladi. Qirqilgan poya qismlari ko'rinishi va uzunligiga ko'ra navlarga ajratiladi: eng uzuni birinchi nav, kaltarog'i ikkinchi, eng qisqasi uchinchi nav bo'ladi.

Applikatsiya va bezash ishlarida ishlatishdan oldin somon bog'lami tog'oraga solinib, ustidan qaynoq suv quyiladi va u tog'orada bir sutka saqlanadi. So'ng uni tog'oradan olib, suvi silqitib tushiriladi va har birini uzunasiga o'rtasidan bo'linadi.

Qirqqanda pasldan yuqoriga qarab qirqiladi. So'ngra somonning qirqilgan tomonini pastga qaratib qo'yib, iliq qilib dazmollanadi. Dazmolning qiziganlik va dazmollash vaqtiga ko'ra somonni turli rangga kiritish mumkin. Masalan, och-sariq, sariq, ochjigar rang, jigarrang. Dazmollangan somon ehtiyotlik bilan qutichaga solib qo'yiladi. Agarda somondan biron narsa yoki qo'g'irchoq to'qiladigan bo'lsa, uni tog'oradan namligida olib, 4-5 somondan iborat lenta to'qiladi yoki bog' qilib bog'lab, qo'g'irchoq yasaladi,

to'qilgan somon lentadan shlyapalar va shu kabilar to'qish **imimkltl**, Yong'oq, cho'chqayong'oq, meva va poliz ekinlarining **urilg'lhrl** (danaklari) keng tarqalgan, to'plash va saqlash oson **bo'lgltl** material hisoblanadi. Yong'oqqa ishlov berish oson hamda **u** pishliq materifeldir. Agar yong'oqni, ayniqsa eryong'oqni diqqat bilan kuzatib faraz qilinsa, u yoki bu obraz (yong'oq — toshbaqn, qo'ng'iz — qayiqcha yeryong'oq — qush, jonivorlar, ulartanalarining ayrim qismi) kishi ko'z o'ngiga keladi.

Eman daraxti mevasini yetilgan vaqtda usti yumshoqligida terib olish va ular ortiqcha qurib ketmasligi uchun issiqlik manba-laridan uzoqroqda saqlash kerak. Ana shunday qilinganda ularni teshish, qismlarga ajratish qiyin bo'lmaydi. Eman daraxti mevasini pallasi bilan birga yig'ish kerak, chunki ulardan mustaqil narsalar yasash yoki narsalarning bezagi sifatida foydalanish mumkin. Meva va poliz ekinlarining urug' (danak)larini yaxshiiab yuvish, artish, quritish hamda qutichalarga solib qo'yish kerak. Qamish, g'o'za,-poyani yaxshiiab tozalash va ularni uzunliklariga moslab yasalgan quticha, g'iloflarga solib qo'yiladi. Quyidagi rasmlarda somondan bajarilgan applikatsiya ishlari namunalari keltirilgan:



TABIIY VA TASHLANDIQ MATERIALLARDAN O'YINCHOQLAR YASASH

Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to'planadi. Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsniladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatilgan burg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniq-laydilar. Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya mnrshrulida alohida c'tiborberiladigan obyekt (eman, zarang, akaisiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalaming c'liborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyekt-ning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, lo'planayotgan maicrialni to'g'ri baholashga yo'llay-digan savollar tuziladi.

Daraxt/orga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ulaming ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini

yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radi- e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va lushunarli shaklda bayon etib beriladi. Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachi-larga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan

hasharotlar ularning tuzilish shakllari mehnat darslarida hasharotlar applikasiyasini tayyorlash uchun obraz, to'plangan barglar material xizmatini o'tashi kerak. Bolalar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg'ulotlarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har

bir ekskursiyada bolalarning e'tibori insonning ynmuvchlllk mehnatiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxiridn UI1|N yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umum-lashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninchlliir tasviri tushirilgan rasmlarni ko'rish, ularning tanasi va qnnotta-rining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish top-shiriladi. Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg'ulotda bolalar applikasiyalarni zo'r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikasiyani o'z istaklariga ko'ra, o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg'ulot quyidagi sxemaga ega bo'lishi mumkin:

1. Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytish.
2. O'tkazilgan ekskursiya bo'yicha suhbat quyidagicha bo'ladi:
 - ekskursiyada qayerda boidik?
 - qanday daraxtlarni ko'rdik, ularning nomi qanday?
 - ularning barglarining shakli bir xilmi?
 - qanday hasharotlarni ko'rdik?
3. Namuna tahlili:
 - kapalak qanday qismlardan tashkil topgan?

— uning qismlari qanday joylashgan?

— uni tasvirlashda qaysi daraxtlar barglaridan foydalanilgan?

4. Ishni bajarish tartibini aniqlash:

— kapalakning ayrim qismlari (tanasi, qanotlari)ning joylashi-shini tasvirlash;

— kapalakning tanasi va qanotlari uchun shakli hamda oichamlari bir xil bo'lgan barglarni topish;

— ularni qog'ozda joylashtirish;

— ishni amaliy bajarish.

5. Tarbiyachining ishni bajarish usullari haqidagi tushun-tirishlari.

6. Applikatsiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:

— kapalakning ayrim qismlarini qog'ozda to'g'ri tasvirlash;

— shakl, o'lcham va bo'yoqlarini to'g'ri tanlash;

— yelimlash ishlarini tartibli bajarish;

— kapalakning ko'z va mo'ylarini to'g'ri tasvirlash;

— ish bajarilgan qog'ozning orqasida barglaridan foydalanilgan daraxtlarning nomlarini yozish;


7. Ishni baholash.





117 Ijodiy xarakterdagi ishlar. Masalan: «Baliqlardan kompozitsiya tuzish». Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachi namunasi asosida o'z variantlarini izlaydilar.








Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo'yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga ko'ra uning tanasi, qanot va dumlari liar xil bo'lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli labiiy materiallardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy tarhini chizish kerak. Shundan keyin qaysi detaining qanday tartibda yelimlanishini, detallarning joylarini aniqlash lozim, so'ngra ishga kirishiladi. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondoshishni o'stirishga yordam beradi. Mashg'ulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholnshda tarbiyachi foydalanilgan materiallar nomini so'raydi.


Bu tabiiy materiallar bilan ishlash mashg'ulotining taxminiy tuzilishidir.

Quyida jo'xori so'tasi, cman daraxti mevasi, kashtan mevasi, qush patlari, archa daraxti mevasi, na'matak mevasidan tayyorlan-gan o'yinchoq namunalari ishlangan:









labiiy matenallardan «Tizimcha» yasash, kartondan «Stakan-cha», matodan «Mo'yqalam artgich», «Ninachi va chumoli» yasash mumkin.

Mashg'ulotning vazifalari. Bolalarni tabiiy materiallardan foydalanib, turli ashyolar yasashga o'rgatish. Qo'l mehnati bilan shug'ullanishga o'rgatishni davom ettirish. Bolalarda o'zlarining mehnat ko'nikmasi va malakalarini mustaqil ravishda qo'llashni, unga intilishlarini tarbiyalash. Bolalarni tabiatni asrash va mu-hofaza qilishga o'rgatish. Mashg'ulotni jihozlash: dub daraxti, kashtan daraxti mevalari, na'matak guli mevasi, patlar, plastilin, novdachalar, karton qog'oz, yelim, ip, igna, mato qiyqimlari.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: — Bolalar, o'lkamizda oltin kuz fasli kezmoqda. Bilamizki, kuz faslida sabzavot, mevalar pishadi, to'g'rimi? Manzarali daraxtlarning mevalari ham pishib, ko'chalarimi/da, xiyobonlarda ostiga to'kilib yotibdi. Bilasizmi, bolalar


bugunli mashg'ulotimizda sizlar bilan ana shu manzarali daraxt **meva**-laridan o'yinchoqlar yasaymiz. Faqatgina o'yinchoqlar emus, ilk marta birinchi sinfga boradigan o'quvchi kichikintoylarimi/ uchitit hisob-kitob mashg'ulotida foydalanish mumkin bo'lgim il/im chalarni ham yasaymiz. Tizimcha yasalishi uchun qalinroq Ip olamiz-da, kashtan mevasini teshib, ip o'tkazamiz. Bolalar dastlab 10 raqami ichida sanashni o'rganishlari sababli, tizimchaga 10 ta mevani ipdan o'ikazib chiqamiz. Bu tizimchani eman daraxti mevasidan ham layyorlash mumkin. Agar meva bir oz qurib qolgan bo'lsa, ozroq suvga solib qo'yilsa, ustki po'stlog'i yumshaydi va tizimchani layyorlash mumkin bo'ladi. Qani, kirn sanab beradi?



Bolalar javob berishadi.


Tarbiyachi: - Barakalla, bolalar, sizlar bilan mana bunday stakanchalar (ayyorlaymiz. Kvadrat shaklidagi karton qog'oz olib, undaii doirn qirqami/. So'ng to'rtburchak shaklidagi qog'ozning pastki qismini bir sm cnlikda qoldirib arratishlariga o'xshatib kcsib chiqnmizda, ikki (omonini yelimlab, pastki qismidagi qirqilgan bo'laklarga yelim surtamiz va doirachaga yelimlaymiz. Stakancha layyor. Bolajonlnr, si/lar ham stakanchangizni tayyorlab bo'ldingiz-larmi?

Barakalla! Slakau layyor bo'lgan bo'lsa, endi mo'yqalamni artish ucluin nrtgich, salfcika layyorlaymiz. Keraksiz matolardan bir necha kvndralchalar qirqib undan doirachalar hosil qilamiz. Doirachalarni iislma-usl qo'yib, o'rtasidan tiqib qo'yamiz. Mana mo'yqalam nrtgich ham layyor bo'lcli. Bolalar, o'yinchoq ham yasaylik, deyapsizlnrmi? Albaiia, o'yinchoqlarhamyasaymiz. Hozir na'malak va kashtan daraxtining mevasidan «Ninachi va chumoli»ni yasaymiz. Buning uchiin kashtan mevasini olib, unga sal kichikroq kashtan mevasiga chumolining bosh qismini o'rnatamiz, oyoq-qo'llarini esa novdadan yasab, to'nkaga o'tkazib qo'yamiz, ko'zlarini esa plastilindan yasaymiz. Ninachining tanasi kashtan mevasidan tayyorlanib, uning orqa tomoniga gugurt cho'p o'rnatib, kichik kashtandan bosh qismni yasaymiz: qo'l-oyoqlarini esa novdadan layyorlaymiz. Manzarali daraxt barglaridan qanotlarini yasab, plaslilin bilan yopishtiramiz. Mana, ninachimiz ham tayyor! Qani, cslang-chi, ninachi haqidagi qaysi masalni bilasiz? Bolalar javobi rag'batlantirilib, mashg'ulot yakunlanadi. Bolalarga chiqindi materiallar (ip, shoyi,

mo'yna, polietilen kabilar)dan foydalanib har xil mazmunda applikatsiyalar tuzish taklif etiladi. So'ng ularga matolardan o'yinchoqlar, turli bayram ertaliklari uchun crtak qahramonlarining kiyimlari hamda quvnoq qiziqchilar, petrushkalar kiyimlarini tikish ham o'rgatiladi. Bola-larning o'zlari yasagan o'yinchoqlar ijodiy, harakatli o'yinlar jarayo-nida namoyon bo'ladi. Quyidagi rasmlarda tabiat ashyolaridan bajarilgan o'yinchoqlar namunalari keltirilgan:







Tabiiy materialdan mozaika ishlari. Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mam-lakatlarda mozaika qo'llaniladigan materiallariga ko'ra ham, naqshi va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, hukmdorlarning saroylari

mozaika bilan bezatilgan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, interer devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika ishlarida oyna, sopol plitalardan foydalaniladi. Laosda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathiga ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sopol plita, gultajibarglari, urug', tuxum po'sti va shu kishilar) qo'yib chiqishdir. Tuxum po'stidan mozaika ishlarini bajarish uchun tuxum po'sti kerakli ranglarga bo'yaladi. Yuqurida quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlar bilan bo'yulgan buyoq qurigandan keyin po'stni tanlangan rasmga ko'ra mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi. Tuxum po'stidan applikator bilan shunday tasvirlarni tanlash kerakki, ularning tashqi qismlari tekis va mayda, egri-bugrilari bo'lmasligi kerak. Tashqi qismlar qog'oz/ **Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni mehnat tarbiyasida tejamkorlikka o'rgatish.** Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi mehnat tarbiyasi oilaviy tarbiyadan ajralmagan holda olib borilishi kerak. Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashning barcha qulay sharoitlari maktabgacha ta'lim muassasalarida mavjud. Biz bolalarni mehnatga o'rgatib borishimiz, gina qolmasdan ularni tejamkorlikka ham o'rgatib borishimiz lozim. Bu borada xonadonlarda uchraydigan tashlandiq **ashyolardan** foydalanamiz. Har bir tashlandiq ashyodan biror-bir **buyum** yasashni o'rgatsak, bolalarda ijodkorlik hissi ham shakllanib boradi. Masalan: suv ichimliklaridan bo'shagan idishlardan chiroyli o'yinchoqlar yasash mumkin. Svetofor, timsoh, ari, tulki o'yinchoqlari hamda chiroyli qalamdon, guidon yasash mumkin, bu o'yinchoqlarni yasashlari borasida bolalarda tejamkorlik hissi shakllanadi. Tashlandiq ashyo hisoblangan paypoq, kiyilmaydigan ko'ylaklarni lentasimon qilib qirqib, bir-biriga ulanadi, so'ng koptok qilib o'raladi. Bu ipdan to'qilgan ashyolar juda mustahkam bo'lib, yuvilish va quritish juda osondir. Yana eski paypoqqa uyda ishlatilmay qolgan mayda sovun parchalarini solib, ulardan yostiqa tikilsa, oshxona mebeli va muzlatgichni artish uchun qulay mochalka hosil bo'ladi. Biz bolalarga tejamkorlikni o'rgatib borar ekanmiz, ularga yoshligidanoq buyum va materiallarni isrof qilmaslikni har bir

narsani hayotda tejab ishlatishni uqtirish zarur. Qog'oz karton va gazlama hamda tolali materiallar tayyor mahsulot bo'lib, ulardan turli o'yinchoqlar yasash mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasida turli materiallar bilan ish-lashda, awalo, qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini rejalab olish kerak, so'ng turli o'yinchoqlar, ertaklar asosida **ko'rsatmli** ko'rinishlarga boy personajlar yasash mumkin. Deylik, eman daraxli mevasi, po'stlog'i, na'matak, chig'anoqlar, yong'oq **po'Mlog'i**, qovoq urug'lari, gul barglari va boshqalardan **multfilm** qiihru monlarini, «Ninachi va chumoli», «Toshbaqa va chuyon* knbi

15 masallarni, ertak qahramonlarini yasashsa bo'ladi. Mehnat to'garaklarida bunday maqsad uchun poxol, qamish, g'o'za cha-noqlari hamda plastilin, rezina, selofan, polietilen lentalari, plyonkalar, gtigurl qutichalari, g'altaklar hamda pista po'choqlari, danak po'choqlari, kungaboqar o'simligining kosachasi, tuxum po'choqlari ishlaliladi.

Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa bo'ladigan nrsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Oilada oia-onalar, bolalar bog'chasida tarbiyachi bolalarni ana shunday ishlarni amalga oshirishi uchun ushbu materiallarga cxtiyolkorona munosabatda bo'lishlikni, ulardan unumli ham tejankoiik Mian foydalana olishlikni uqtirib borishlari kerak. Ular yashnab (urgan claraxi shoxlarini shart kesib yoki sindirib olmaydi, daraxilarni ku/alib, qurigan, keraksiz shoxlarni kesib oladi. Kesib olayotganda o'sha shoxdan nima yasasa bo'ladi, chamalashni o'rganadi. Turli labial malcriallarini to'plash, saqlash, ishlovberish yo'llarini qo'llash bolalarni labiat bilan oshno qiladi. Bunday mashg'ulollar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribginn qolmay, ularni ijodkorlikka undaydi, estetik hissiyotini shakllanliradi. Turli tabiiy materiallarga ishlov bcrish, ulardan nimalar yasay olishni tahlil qilish hamda ularga ishlov berish bolalarda mustaqil fikrlay olish qobiliyatini shakllanliradi. Bir so'z bilan aytganda, ularda ijodkorlik qobiliyatini o'stiradi. Obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishda konstruktorlikkabo'lgan mayl rivojlanadi. Bolalarning lurli labiat matcriallari bilan ishlashlari ularda alohida qiziqish uyg'oladi, natijada loy, plastilin, daraxt shoxchalari, chinor urug'lari. lurli qurigan barglar, daraxt po'stlari,

yelimlardan foydalanib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. Bunda ularning tassawurlari yangi-yangi personajlar bilan boyiydi. Ular ishlash jarayonida texnik xavfsizlik qoidalari, gigiyena-sanitariya holallariga rioya qilibgina qolmay, tejamkorlikka ham alohida e'tibor beradilar. Bolalarga turli ashyolardan narsalar yasashni rejalashtirishni o'rgatar ekanmiz, qanday asboblarni ularga berish mumkinligi va asboblarni to'g'ri ishlatish (sindirmaslik, buzmaslik) yo'llari uqtiriladi, ish joyini loza, tartibli saqlash ta'kidlanadi. Oilada qizlar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berilsa, kelgusida tejamkor tadbirkor uy bekasi bo'lishlikka zamin yaratiladi. Qiz-laming qo'liga kattalar nazoratida igna berib, ip o'lkazishga, oddiy to'g'ri chok tikishga o'rgatiladi, o'ziga oddiygina peshband tikib olib ish qilsa, kiyimini asraydi. Akalari, ukalarining eski, kiyilmaydigan jemper iplaridan paypoqchalar to'qib berilsa, yangi paypoqlarning yirtilishidan asraladi, paypoq pull tejallb, boshqa narsaga ishlatiladi. Maktabgacha katta yoshdagil bolalarning kattalar bilan birgalikda ishlashlari alohida ahamiyatga ega. Masalan: bir yog'ochning o'zidan mittl buyuklarni, bolalar aravachasi, suyang'ichlar, kitob javoni, kiyimliklar, laxta, o'qlov, kurak, keli, kuvi dastalari tayyorlashga bolalarni jalb qilish mumkin. Albatta bunda milliy an'anaga, ko'hna qadriyatlariga tayanilsa, bolani milliy ruhda tarbiyalashga kattalarni qo'shgan bo'lamiz. Turli materiallar bilan ishlash turidan lanhqinl texnik modellash, ya'ni konstruktorlar bilan ishlash, qahloq xo'jalik mehnati hamda o'z-o'ziga xizmat turlari borl, bu mehnat turlarini bolalarga singdirishda ham tejamkorlikka alohida e'tibor berish kerak. Mehnat mashg'ulotlarida texnik modellar -samolyot, parovoz, kemalar haqida tushuncha berib borilish bilan birga shu texnikalar inson mehnatini osonlashtirilganl haqida to'xtalib, ana shu texnikani asrab, uzoq vaqt ishlatilish bilan xayotimizda tejamkorlikka erishayotganimiz, hayotimizdagi farovon bo'lib borayotganligini tushuntiradi. Qum va alebastrodan applikasiya. Bunda qum elab olinadi, ozgina bint yoki doka, tasvir yoki ertak asosida, tablet man/itntui, PVA yelimi, qora kopirovka, kalka qog'oz, qora flomaster, nivarcl bo'yog'i yoki guash, mo'yqalam, qora qalam, eski gazeta kerni bo'ladi. Bajarish yo'li. Tabiat manzarasi yoki ertak asosidagi taivl oq qog'ozga kalka yordamida tushirib olinadi. Uning

uitldnn flomasterda tasvir tarhi chiziladi. So'ngra tushirib olingan taivlrgn PVA yelimi surtiladi, doka yoki elakda elangan qum tezda taivlr ustiga sepiladi. Qurigach, bo'yash ishi boshlanadi. Birinchi rang qurib bo'lgach, ikkinchisiga o'tiladi, quritib uchinchi rangga o'tiladi. Shu tariqa bo'yash ishi tugatiladi. Qumdan bajarilgan ish rangul/ lakda laklanmaydi. Quyida tavsiya qilinayotgan applikatsiya ishlarini bajarish murakkab emas. Ularni yasash uchun ijodkorlik qobiliyatli, mahornt va ehtiyotkorlik talab qilinadi.

129 qog'oz, PVA yelimi, qora flomaster, qora qalam, akvarel bo'yoq, bostirib olish uchun eski gazeta kerak bo'ladi. Awalo, qum yoki alebasterni elakchada elab olinadi. Ular yirik tosh va boshqa narsalardan xoli bo'lishi kerak. So'ngra ertak qahramonlari tasvirlari tanlab olinadi. Tanlangan tasvirni kalka, ya'ni xitoy qog'ozi orqali qora qalam yordamida tushirib oling. Oq qog'ozga yoki rangli fonga tushirib, ustidan qora flomaster yordamida yurgizib chiqiladi. Unga PVA yelimini tasvir ustiga chiqarib yubormay, tezlikda surtib chiqish kerak. Yelim surtilmay qolgan joyi qolmnsin. Chunki alebastr yoki qum sepilganda yopishmay qolishi mumkin. Elangan qum yoki alebastrni ikki qavatli dokaga ikki qoshiqcha solib yelim surtilgan tasvir ustiga sepiladi. Bu ishni bajarib bo'lgach, qum yoki alebastrning ustini eski gazeta bilan bostirib olinadi. So'ng gazetani olib, tasvirni sekin ko'tarib qumli idishga silkitiladi. Yopishgan qum tasvir ustida qoladi, yopishmagani idishdan tushadi. So'ngra ikki soat quritish uchun vaqt kerak bo'ladi. Qum yoki alebastr yaxshilab qurigach, bo'yash ishlrni bajariladi. Bo'yash uchun akvarel bo'yog'i yoki guash kerak bo'lindi. Bitta rangni bo'yab bo'lgach, quritib turib ikkinchi rangga o'tiladi. Chunki quritmay ketma-ket davom ettirilsa, chaplanib kctishi mumkin. Qum va alebasterda bajarilgan ishlar rangsiz lakda laklanmaydi. Quyida qum va alebasterdan bajarilgan nplikatsiya ishi berilgan: Tuxum po'chog'idan buyura yasash. Tuxum po'choqlnrkliiu bajariladigan applikatsiya ishi uchun kerakli jihozlar: rangli, crtnkll kitobchalar, oq qog'oz yoki rangli qog'oz, kalka (xitoy qog'oz), PVA yelimi, tozalab yuvib quritilgan tuxum po'chog'i, akvarel bo'yoq, qora qalam, qora flomaster, rangsiz lak (PF-284). Tuxum po'chog'idan buyum yasash uchun tuxum po'chog'ini may-dalangan va butun holda

saqlash mumkin. Tuxum po'chog'ini butun asrash uchun tuxumning ikki uchi teshiladi va uning ichidagilari puflab chiqariladi. Buning natijasida ichi bo'sh tuxum po'chog'iga ega bo'linadi. Bunday tuxum po'chog'i sinuvchan bo'lganligi uchun qutichalarda saqlash kerak. Butun tuxum po'chog'i va tuxum po'chog'ining maydalanganidan buyum tayyorlash mumkin. Masalan: kaptar, baliq, masxaraboz, kemacha, jo'ja va archa o'yinchoqlari. Awalo tuxum po'chog'ini yuvib, quritib, xovon-chada maydalanadi. Juda kukun bo'lib ketmasligi kerak. So'ngra rangli fonga tasvirni kalka qog'ozi yordamida qora qalamda tushirib olinadi va ustidan qora flomaster bilan tasvir yurgizib chizib chiqiladi, uning ketidan PVA yelimi surtiladi. Jarayonda tezlik bilan ishlash talab qilinadi. Sababi yelim qotib qolmasligi kerak. Surtilgan yelim ustidan maydalangan tuxum po'chog'ini qo'lda sepib, gazeta bilan bosib chiqiladi. Yopishgan tuxum po'chog'i tasvirda qoladi. Yopishmagani to'kiladi. Shundan keyin bo'yash ishini boshlash mumkin. Tasvirni rangli kitobchadagi tasvir rangiga qarab akvarel bo'yoqda bo'yaladi. Bo'yoqni iloji boricha suvga nisbatan ko'proq ishlatish lozim. Bitta bir xil rangga bo'yab quritib, ikkinchi rangni bo'yashga kirishiladi. Bo'yoq qurigach rangsiz lakda laklab chiqiladi. Shunda tuxum po'chog'i yaxshi yopishadi va yaltirab turadi. Tuxum po'chog'idan «Sichqoncha» yasash Kerakli ashyolar: tuxum po'chog'i, pushti rangdagi qog'oz yoki shu rangdagi mato, plastilin, PVA yelimi, qaychi, mo'yqalam, flomaster va qalam. Bajarish usuli: shablon asosida sichqonchaning qulog'ini ikki buklangan qog'oz yoki matodan qirqasiz, quloqlarini o'rtasldun qirqib bir-biriga yelimlaysiz va ozgina buklab, tuxumga yelimlnniull Ingichka kesma qog'oz mo'ylovi uchun qirqiladi. Ilomiihler yordamida ko'zi, og'zi, mo'ylovlari chiziladi. Boshlang'ich sinf badiiy mehnat darslarida o'quvchilarga karton va qog'ozni belgilash, o'lchash, bukish, qirqish, yopishtirish malakalarini o'rgatish bilan birga, bu malakalardan foydalanib milliy naqshlar hosil qilishni ham o'rgatish mumkin.

Dastlabki darslardan boshlab o'quvchilarni qog'oz va uning xususiyatlari, turlari, ishlov berish usullari bilan tanishtiriladi.

Chunki buyum yasashda o'quvchilar qog'oz turini to'g'ri tanlay bilishi, xususiyatlari haqidagi bilimlarni amalda qo'llay bilishi kerak. Qog'oz xususiyatlariga uning qalinligi, rangi, namlikka chidamliligi, bardoshi, tuzilishi, yorug'likka bardoshligi va vazifalari tushuniladi. Qog'ozning o'zi esa yog'och stellolovasidan (oqartirilgan yog'och qipig'idan) olinadi qog'ozni yirtib chetiga qarasak tolachalarni ko'ramiz. Ular oqorida ta'kidlangan yog'och tolalaridir. Boshlang'ich sinfning to'rt yili davomida o'quvchilar: bosma qog'ozlardan (gazeta, kitob, jarida va bilet qog'ozlari), yozuv qog'ozlari (daftar, hujjat qog'ozlari); Chizmachilik (vatman, millimetrli, kalka) qog'ozlari; Rangli (bo'lgan, baxmal qog'oz, gulqog'oz, ipakqog'oz va rangli karton) qog'ozlardan foydalanib har xil buyumlar yasashni o'rganadilar.

Qog'oz - eng ko'p tarqalgan, arzon, qo'l asboblari bilan osongina ishlov beriladigan materialdir.

Qog'oz bilan ishlaganda bolalarning qo'l barmoqlarining paylari rivojlanadi, tezkorlik va chamalash ko'nikmalari shakllanadi. Qog'ozdan buyum isash darslarini I-sinfning boshidan, plastilin va loydan, tabiiy materiallardan buyumlar isash darslaridan keyin o'tish mumkin.

Badiiy mehnat darslarida qog'oz va kartondan foydalanib milliy naqshlar tasvirini hosil qilish mumkin. Milliy naqsh va shakllardan foydalanib buyumlar yasash darslari o'quvchilarning estetik didini tarbiyalashga, musavvirlik konstruktorlik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. O'quvchilarning estetik tarbiyasiga buyumning tashqi ko'rinishi, sifati, tanlangan qog'oz rangi ham ta'sir ko'rsatadi, chiroyli, tiniq, yorqin rangli buyumlar o'quvchilarning ko'zini quvontirib, shu buyumni tezroq yasashga kirishishga undaydi. Ayniqsa sovg'a muqovalari, tarbriknomalar, o'quv ko'rgazmali qurollar, bolalar bog'chalari uchun archa uchun o'yinchoqlar yasash darslari shular jumlasidan.

Bundan tashqari qog'oz va kartonga ishlov berish malakasini egallash o'quvchilarni daftar va kitoblarini mustaqil yamashga ham o'rgatadi.

Quyida boshlang'ich sinf "badiiy mehnat" darslarida o'quvchilar o'rganishi lozim bo'lgan karton va qog'ozni bukish, to'qish, qirqish, yopishtirish, chizish-belgilashga oid qoidalarni bayon etamiz.

QOG'OZNI BELGILASH

Qog'ozga belgi qo'yish - dastlabki ishlab chiqarish jarayoni bo'lib, qog'oz va kartonga har xil shablonlar, trafaretlar, chizg'ichlar, sirkullar orqali belgi qo'yiladi. Belgi qo'yishda uchli qilib yo'nilgan TM yoki M markali qalamlardan foydalaniladi.

Dekorativ bezaklar, gullar, simmetrik shaklli tasvirlar hosil qilish uchun dastlab qog'ozga belgi qo'yib chiziladi.

SHABLON (andoza — tasvirning kartondan yoki faneradan qirqilgan shakli bo'lib, uning sirti to'g'ri chiziqli va egri chiziqli bo'lishi mumkin (3-a rasmga qarang) (andoza).

TRAFARET (o'yma andoza) ham chizish-belgidan moslamasi bo'lib, tasvir uning ichki tomondan chiziladi. (3 b-rasm. O'yma andoza).

CHIZG'ICH bilan belgilash darslari 1-sinfning III-choragidan boshlanadi. Badiiy mehnat darslarida qo'llaniladigan chizg'ich 30 santimetrli bo'lib, har bir raqami aniq ko'rinadigan, yog'och yoki plastmassadan bo'lishi kerak (4-rasm). TM markali qalam bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinf badiiy mehnat darslarida chizish-belgilash jarayoni uchun shablon qulayroq. Kartondan tayyorlanadigan shablonlarni o'qituvchi belgilash, qirqish, darslari jarayonida o'quvchilarga tayyorlatishi ham mumkin. Shablon va chizg'ich har bir o'quvchiga bittadan to'g'ri kelmog'i kerak. Shablonlarni o'qituvchi maxsus konvertlarga solib, sinfxona shkafida saqlaydi. Shablon bilan ishlash usuli quyidagicha:

-chap qo'lning barmoqlari bilan shablonni qog'oz yoki karton ustiga bosib, o'ng qo'lda qalamni yotiqroq ushlab, shablon (shakl) chetidan orgiziladi;

-murakkab shaklli shablon bilan chizishda avval uni yuqori qismini chapdan o'ngga qaratib, so'ngra chap tomonni, undan so'ng pastki qismini va o'ng tomoni chiziladi. (3 b - rasmga qarang).

Boshlang'ich sinf o'quvchilari chizg'ich orqali belgilashda xatoga yo'l qo'yadilar, ya'ni o'lchashni 0 dan boshlamasdan 1 dan boshlaydilar. Shu sababli o'qituvchi bu xatoni o'z vaqtida oldini olish maqsadida o'lchashni 0 raqamidan boshlash zarurligini ta'kidlaydi. Chizishda chizg'ichni chap qo'lning barmoqlari bilan qog'oz yoki karton ustiga bosib,

chizg'ichning yuqori chetidan qalamni yotiqroq ushlab chapdan o'nga qaratib yurgiziladi (5-rasmga qarang). Aylana shaklini chizish uchun 1-2-sinflarda shablon va trafaretlardan, 3-4 sinflarda esa sirkuldan foydalanish mumkin. Chizish-belgilash ishlarini bajarishda belgilash asboblari navbatma-navbat almashtirib turish yaxshi samara beradi. Belgilash jarayoni qay usulda bajarilmasin o'quvchilar diqqatini tejamkorlikka qaratmoq lozim. Buning uchun qog'oz yoki kartonning teskari (rangsiz) tomoniga shakl va tasvirlarni yonma-yon chiziladi va qir qiladi; tasvir yoki shakl noto'g'ri chizilguday bo'lsa o'chirg'ich rezina bilan o'chirib qayta chiziladi.

QOG'OZ VA KARTONNI BUKISH QOIDALARI

Badiiy mehnat darslarida bukish orqali har xil buyumlar yasash mumkin. Ayniqsa 1-sinf o'quvchilari uchun bukish orqali har xil hayvonlar qush va jonivorlar shaklini yasash darslari qiziqarlidir. O'quvchilarda bukish ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'qituvchining o'zi ham qog'oz va kartonni bukish qoidalarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Qog'ozni bukish uchun maxsus asbob-tekislagich bo'lishi kerak. Tekislagich sifatida plastmassali chizg'ichdan, sanoq cho'pidan, eskirgan tish cho'tkasining dastasidan foydalanish mumkin. Qog'ozni bukishda uning pastki chetidan olib, yuqoridagi chetiga tekislab qo'yiladi, shu holatda chap qo'l bilan ushlab turib, o'ng qo'lning kaftini tik tutib qog'ozning bukilgan chetidan bir marta yurgiziladi. So'ngra tekislagich bilan bukish chizig'i ustidan tekislanadi. Bukishda qog'ozning parallel qir qimlari, uchlari bir tekisda ustma-ust tushishiga e'tibor berish kerak (6-rasmga qarang).

Qalin qog'oz va kartonni bukish chizig'i tekis chiqishi uchun avval uning teskari tomonidan chizg'ich yordamida bukish chizig'i bilintirmay chiziladi va chizg'ichni siljitmasdan shu chiziq ustidan qaychi uchi yurgiziladi. Qaychi uchi karton qalinligining yarmigacha tolalarni qirqadi. Bu chiziq bo'yicha karton bosib bukiladi va ustidan tekislagich bilan yurgiziladi. Qog'oz va kartonni bukish chizig'ining notekis chiqishiga olib keladi.

QOG'OZ VA KARTONNI QIRQISH QOIDALARI

Qog'oz va kartonni qirqishda qaychidan foydalaniladi (qalin karton va qog'oz to'shamasini qirqish uchun 3-4-sinflardan boshlab maxsus pichoq ham ishlatish mumkin). Qog'oz qirqishga mo'ljallangan qaychining keskichisi 10 sm bo'lib, uchli, o'tkir bo'lishi lozim. dolalar manikyur qaychisidan foydalanishga ruxsat bermaslik kerak. Ular ushlab uchun ham, qirqish uchun ham noqulaydir. 1-sinfdan boshlab o'quvchilarni qaychini to'g'ri ushlab, belgilangan chiziq bo'yicha tekis qirqishni o'rganishiga e'tibor beriladi. Qirqiladigan tekis chiziq o'ng tomonda bo'ladi (7-rasm). Buning uchun ularni eski qog'ozlarni qirqish orqali mashq qildiriladi.

Mashq qildirish davomida qog'ozni qirqish darslarida ishlatiladigan qaychilar soni har bir o'quvchiga bittadan to'g'ri kelish shart. Buning uchun o'qituvchi har haftada bir marta o'quvchilarni asboblari saqlanadigan jildlarini ko'zdan kechiradi. Yoki sinfda har ehtimolga qarshi ortiqcha 4-5 ta qaychi saqlaydi. Qaychi va pichoq bilan ishlash darslarida bolalar diqqatini xavfsizlik qoidalarga rioya qilishga qaratish lozim.

Aylana, yoysimon chiziqlar bo'yicha qog'oz va kartonni qirqishda qaychi uchining yo'nalishi sal o'zgartirilib, chap qo'l bilan qog'ozni burib boriladi. Qirqish soat strelkasining teskari yo'nalishida bajariladi. Qog'ozni esa yotiq (gorizontal) holatda ushlanadi (8-rasm). Qog'ozni qirqishda ham belgilashdagi kabi bolalar diqqatini tejamkorlikka ajratiladi.

QOG'OZ VA KARTONDAN ISHLANADIGAN BUYUMLARNI YIG'ISH VA BEZASH.

Qog'oz va kartonni belgilash, bukish, qirqish orqali ishlov berilgach, uni yig'ish va oxirgi bezak berish ishlari bajariladi. Badiiy mehnat darslarida detal va qismlarni yig'ish, biriktirish ishlari turli usullarda amalga oshiriladi:

-ip yoki sim bilan tikib biriktiriladi;

-yelimlab yopishtiriladi;

-jiyak yoki shnurlar bilan bog'lab biriktiriladi va h.k.

qog'ozni yelimlab yopishtirish uchun hamirdan qorilgan yelim yoki idora yelimi (silikatli yelim) dan foydalaniladi. Hamirdan yelim tayyorlash

uchun bir stakan suvga bir oshqoshiq un solib qoriladi va past olovda 3 minutcha qaynatiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga "Feniks", "Moment" yelimlaridan foydalanish taqiqlanadi. Yelim bilan ishlashda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

1. Yelimlanadigan detal tagiga klyonka yoki qog'oz to'shash kerak;
2. Kartonga qog'ozni yopishtirishda yelimni qog'ozga surkaladi, chunki qog'oz kartonga nisbatan tezroq yelimni shimib oladi.
3. Yelimni qog'ozga surkalgandan so'ng uni biroz ushlab turib, keyin yopishtiriladi. Chunki qog'oz namli bo'lgach biroz cho'ziladi. Agar yelimni qog'oz shimimay turib yopishtirilsa, qog'oz ustida g'adir-budurlik bo'ladi.
4. Yelimni maxsus cho'tka bilan, qog'ozni cho'rtasidan boshlab chetiga qaratib suriladi. Tasmason qog'oz bo'lagiga yelim surkash uchun cho'tkani qog'oz chetidan boshlab uzunasiga suriladi.
5. Yopishtiriladigan detalni belgilangan joyga yopishtirish uchun avval belgini to'g'ri qo'yilgani tekshiriladi, so'ng uni belgilangan joyga ehtiyotkorlik bilan qo'yib, ustidan qo'l kafti bilan tekislanadi. Natijada qog'oz orasidagi havo pufakchalari yo'qoladi. Yopishtiriladigan detal chetidan sizib chiqayotgan yelimni tova gazlama bo'lakchasi bilan artib olinadi.
6. Yopishtirilgan detallar orasi ochilib ketmasligi uchun buyumni og'irroq narsa (kitob) bilan bostirib qo'yiladi.
7. Yelim bilan ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning maxsus cho'tka yordamida yelimni surkashi zarurligini qayta-qayta ta'kidlashi lozim. Agar bunday cho'tka bo'lmasa, qog'ozni naychasimon qilib o'rab uchini popukli qilib qirqib foydalansa ham bo'ladi.

Bundan tashqari 3-sinfdan boshlab karton va ko'p qavatli qog'ozni sim, ip bilan biriktirishda bigizdan foydalaniladi. Ko'pincha karnaval niqoblarini, o'yinchoqlarni, sovg'a va tabriknoma muqovalarini biriktirishda ip, sim, shnur va tasmalardan foydalaniladi. Qog'oz va kartondan yasalgan

buyumlarga badiiy bezak berishda applikatsiyalardan, akvarel va guash bilan bo'yashdan, tabiiy va tashlandiq materiallar bilan bezashdan foydalanish mumkin.

QOG'OZDAN HAR XIL BUYUMLAR TO'QISH.

Qog'ozdan to'qish usuli buyumlar yasash darslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining eng qiziqardi mashg'uloti bo'lib, bu darslar o'quvchilarda har xil o'lchamli detallarni belgilash, chizish, qirqish malakalarni mustahkamlaydi, qo'l harakatlarining bir xil ritmda, aniq bo'lishiga yordam beradi.

Qog'ozdan har xil naqshli xatcho'plar, savatchalar, o'yinchoq va ko'rgazmali qurollar to'qish mumkin. To'qish uchun mo'ljallangan qog'oz rangli, qattiq, chiziqlar aniq ko'rinadigan bo'lishi kerak. Chunki chiroyli rangdagi qog'ozdan yasalgan buyum o'quvchilarni tezroq yasashga undaydi, qattiq, qog'oz esa to'qish uchun qulaydir. To'qish orqali yasaladigan buyumlar asosdan va bezak tasmalaridan iborat bo'ladi. Bu tasmalarni asos o'lchamiga moslab qirqiladi. Ularni bir rangli va har xil rangli qilib qirqish mumkin. Qog'ozdan to'qiladigan buyumlarda ham milliy naqshlarni aks ettirish mumkin (9-rasmga qarang).

1. akvarel - suv bo'yoq (akva - suv).

QOG'OZDAN SIMMETRIK SHAKLLAR QIRQISH.

Qog'ozdan simmetrik shakllar qirqish qog'ozga ishlov berishdagi yordamchi jarayon bo'lib, simmetrik shakllar applikatsiya ishlarida, sovg'a va tabriknoma muqovalarini, devoriy gazetalarni bezashda foydalaniladi.

Simmetrik shaklni qirqish uchun avval qog'ozni kerakli o'lchamda qirqib olinadi va uni o'rtasidan teng ikkiga bo'lib buklanadi, bukish chizig'ining o'ng tomonida tasvirning yarim qismi chizib olinadi va shu chiziq bo'yicha qirqiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bu ishni bajarishda xatoga yo'l qo'yadilar, ya'ni shaklni buklangan chiziqdan chizmay uning qarama-qarshi tomonidan chizib, qirqilgandan so'ng shakl ikki bo'lakka ajralib

ketadi. Bunday xatoni oldini olish uchun shaklni chizgandan so'ng uni to'g'ri chizilganligini tekshirib qirqishni tushuntirish lozim.

Simmetriya shakllardan har xil tasvirlar va naqshlar hosil qilinadi. Simmetrik shakllar qirqishda to'rtburchak va tasmaimon qog'oz bo'lagidan foydaniladi. To'rtburchak qog'ozdan kapalak, paxta, anor, lola, sariqgul va shunga o'xshash simmetrik shakllar qirqib olinadi (10-rasmga qarang).

Buning uchun o'quvchilar tasviriy san'at darsidan olgan malakalarni qo'llaydilar. Tasmaimon qog'ozdan esa cheksiz naqshlar qirqish mumkin. Buning uchun ham avval qog'ozni kerakli o'lchamda qirqib olinadi. So'ngra bu qog'ozini 2-3 marta teng ikkiga bo'lib buklanadi va tasvir chizib, qirqiladi. Naqsh elementi sifatida gul va bargni, meva-gul-barg, paxta, uzum bargi, poyasi kabilarni birgalikda chizib qirqish mumkin (11-rasmga qarang).

QOG'OZDAN APPLIKATSIYA YASASH

Aplikatsiya (applicatio)-lotincha so'zdan olingan bo'lib, ustidan qo'yish, ustini yopishtirish degan ma'noni anglatadi. Boshlang'ich sinf badiiy mehnat darslarida qog'oz va kartondan, gazlama va ip bo'lakchalaridan, charmdan, tabiiy materiallar (somon, urug', barg va h.k) dan, tashlandiq materiallar (yog'och qipig'i, qum va h.k) dan aplikatsiya tayyorlash mumkin. Hamma turdagi aplikatsiyalarni bajarish usuli bir xil, ya'ni yopishtiriladigan detalning teskari tomonidan shablon yoki trafaret orqali tasvir chizib, qirqiladi va asosda (karton yoki fanerda) belgilangan joyga yopishtiriladi.

Qog'oz va kartondan tayyorlanadigan aplikatsiyalar uchun rangli qog'oz (bo'yalgan va baxmal qog'ozlari) ishlatiladi. Aplikatsiya tayyorlash uchun o'qituvchi ochiq, chiroyli rangdagi qog'ozlarni tanlaydi, chunki o'quvchilar ranglarning garmonik moslashuvini o'zlashtirishlari lozim.

Buning uchun tasviriy san'at darslarida kamalak ranglarini, iliq va sovuq (xromatik va axromatik) ranglar, ularning aplikatsiyalarda to'g'ri tanlanishi haqida tushuncha berib boriladi. Natijada o'quvchilar tasviriy san'at sohasidan olingan bilim, ko'nikma va malakalarni badiiy buyumlar yasash darslariga

qo'llay bilishni o'rganadilar. O'quvchilarning musavvirlik va mehnat faoliyatlarining o'zaro uzviy bog'liqligi amalga oshadi.

Applikatsiya yasash darslari o'quvchilarning estetik va badiiy didini oshirishda, o'zbek xalq milliy naqshlari xususiyati, qo'llanilishi haqidagi tasavvurlarni hosil qiladi va kengaytiradi, qog'ozni to'g'ri, egri, yoysimon va siniq chiziqlar bo'yicha qirqish malakalarini rivojlantirib boradi. Applikatsiyalar ko'rinishi jihatidan bir necha turga bo'linadi:

- a) harfli applikatsiyalar
- b) naqshli applikatsiyalar
- v) bir predmetli applikatsiyalar
- g) tematik applikatsiyalar

Harfli applikatsiyalar ko'rgazmali qurollar, devoriy gazetalar tayyorlashda qo'llaniladi. Bunda rangli qog'oz kartonning teskari tomonidan harfning teskari aksi chizib qirqiladi va belgilangan joyga ma'lum bir tartibga rioya qilgan holda bu harflar yelimlanadi.

Naqshli applikatsiya hosil qilishda geometrik shakllardan, hamda simmetrik qirqilgan naqshlardan foydalaniladi. Naqshli applikatsiya tayyorlashda asosga eskiz chizib olinadi va so'ngra qirqilgan shakllar navbatma-navbat yopishtirib chiqiladi. Bu turdagi applikatsiyalarni tayyorlashda tarixiy yodgorliklar - Samarqand, Xiva, Buxoro yodgorliklarining rasmidan, milliy buyumlar (so'zana, gilam, atlas gazlamasi, jiyak) namunalaridagi naqshlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida bir xil shaklli va har xil shaklli shablonlardan mustaqil naqsh tuzishni o'rgatib borish ham mumkin. Bu darsni qiziqarli o'tishi uchun "Kimning naqshi chiroyli" o'yinini tashkil qilish ham mumkin.

Predmetli applikatsiyada faqatgina bir predmet tasvirlanadi. Masalan, olma, sabzi, barg, gul, birorta jonivorning shaklini rangli qog'ozdan qirqib yopishtirish mumkin. Predmetli applikatsiyalar ko'pincha maktadga tayo'rov guruhida o'rgatiladi. Bunda bir xil yoki ikki xil rangli qog'oz tanlanadi.

Tematik applikasiya - applikasiyaning eng murakkab turi bo'lib, u o'zida ma'lum bir mazmun va ma'noni aks ettiradi. Tematik applikasiyada badiiy asar, ertak hikoya qahramonini, tabiat manzarasini, yil fasllarini, tantanali va bayram kunlarini aks ettirish mumkin. Tematik applikasiya uchun bir necha rangdagi qog'ozdan foydalaniladi. Bu turdagi applikasiyalar o'quvchilardan faqat mehnat malakalarini talab qilibgina qolmay, balki ulardan musavvirlik tayyorgarligini ham talab etadi.

Ta'lim jarayonidagi uzviy aloqani amalga oshirish maqsadida o'qish, ona tili, sinfdan tashqari o'qish darslarida o'qilgan asar qahramonlarini, tabiatshunoslikda o'rganilgan yil fasllari, tabiat manzaralarini tasvirlab applikasiyalar tayyorlash mumkin. Applikasiya tasvirlarini belgilash uchun o'qituvchi tayyorlagan shablon, (andoza), trafaretlardan foydalanish ham mumkin.

Maktadga tayo'rlov guruhida qog'ozni qirqishga o'rgatishda sanoq materiallari. (to'rtburchak, uchburchak, aylana, archa, quyon kabilar) ni yasashni tavsiya qilinadi.

Tematik applikasiya uchun tanlangan mavzuga asosan qog'oz yoki kartondan sath, (fon) tanlanadi. Masalan yangi yil, kosmonavtlar kuni, qish fasllarini aks ettirish uchun ko'k yoki zangori rangni; bahor, yoz, kuz manzaralariga - sariq, rangni; tun, yulduzni tasvirlash uchun qora rangni tanlash mumkin.

Tematik applikasiyada harfli, naqshli applikasiyalar ham ishtirok etishi mumkin, harflar tantanali kun, bayram nomini tasvirlasa, naqshlar qo'shimcha bezak berish uchun foydalaniladi.

Tematik applikasiidagi detallar ham tanlangan mavzuga mos bo'lishi lozim. Masalan 1-sentabr otkritkasida sariq, qizg'ish, sariq, rangli barglarni, yangi yil tabriknomasida archa, qorbobo, qorqiz, qor uchqunlarini, 8-mart tabriknomasida lola, binafsha, sariqgul, va shunga o'xshash gullar tasvirini qirqib yopishtiriladi. Applikasiyada iloji boricha mayda detallarni ham

qog'ozdan qirqib yopishtiriladi (ko'z, burun, lab, tugmacha). Bajarish usuliga qarab applikatsiyalar ikki usulda bo'ladi:

- a) tekis applikatsiya,
- b) bo'rtma applikatsiya.

Tekis applikatsiyada qog'oz, karton, belgilangan joyga tekislab yopishtiriladi.

Bo'rtma applikatsiyada esa qog'ozdan qirqilgan shaklning ma'lum qismigina yopishtiriladi. Yopishmay qolgan qismi esa sathdan ko'tarilib turadi (13-rasmga qarang). Natijada bo'rtma tasvir hosil bo'ladi. Gul, barg, archa, kapalak shakllarining o'rtasini yoki yarim pallasini yelimlab sovg'abop buyumlarni bezatishimiz mumkin (14-rasmga qarang). O'qitishning to'rt yili davomida o'quvchilar applikatsiyaning hamma turlari bilan tanishishlari lozim.

QOG'OZ VA KARTONDAN HAR XIL BUYUMLAR LOYIHALASH

Badiiy mehnat darslarida bolalar bukish, qirqish, to'qish, chizish malakalarini egallaydilar. Badiiy loyihalash darslarida o'quvchilarning konstruktorlik va ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi, mehnat madaniyati elementlari shakllanib boradi.

Ma'lumki turmushda ishlatiladigan buyumlar kishini tashqi ko'rinshi bilan jalb qiladi. Har bir buyumni yasashdan oldin konstruktor buyumning mayda detal va qismlarini loyihalaydi; musavvir esa uni estetik jihatdan tashqi ko'rinishini loyihalaydi. Badiiy mehnat darslarida yasaladigan buyumlarni ham avval chizmasini chizib, so'ng bukish, qirqish orqali ishlov beriladi.

Ishlov berilgach, detal qismlari biriktiriladi, buyum biriktirilgandan keyin esa unga badiiy bezak beriladi.

Qog'oz va kartondan madaniy va san'at yodgorliklarini, binolar maketini, xontaxta, chorpoya, do'ppi, taqinchoq solinadigan qutichalar yasab, ularning sirtini milliy naqshlar bilan bezash mumkin (15-rasmlarga qarang).

Loyihalash darslarida o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishda ishga ijodkorlik bilan yondashishga, buyum loyihasiga ma'lum bir o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritib bezashga imkon berish lozim. Loyihalangan buyumlarni badiiy bezashda ranglarni to'g'ri tanlanishining roli katta.

Loyihalash darslari shu paytgacha markaziy nashriyotlardan chiqayotgan adabiyotlar asosida o'tilib, stol-stul, uycha, ko'p qavatli bino maketlarini yasashni targ'ib qilinardi.

Milliy madaniyat, san'at, an'analarni o'rgatishga ehtiyoj ortib borayotgan xozirgi davrda badiiy mehnat darslaridagi loyihalash darslarini ham mahalliy sharoitimizga moslab o'tish o'quvchilarni hayotdagi va san'atdagi go'zallikni ko'ra bilishga o'rgatadi. Bolalarga tarixiy yodgorliklar ko'rinishini yasash darslarida me'morchilik naqqoshlik san'atlari haqida tushuncha beriladi. Bu yodgorliklarning fotosuratlari, diafotivlari, namoyish qilib har bir yodgorlikning o'ziga xos xususiyati, shakli, ko'rinishi, naqsh elementi, rangi, kompozitsiyasi haqida tasavvur hosil qilinadi.

Chunki har bir shahardagi yodgorlik bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, Samarqand yodgorliklarida ko'pincha geometrik shaklli naqqoshlarni ko'rsak, Buxoro yodgorliklarida o'simliksimon naqqoshlar ko'zga tashlanadi.

Murakkab ko'rinishdagi buyumlarni loyihalash darslarini o'quvchilarni guruh (guruhga bo'linib, ish taqsimlash yo'li bilan tashkil etish mumkin). Masalan, yodgorlik binosini yasashda (15-a,b rasmga qarang. Birinchi guruh, bino yoki minora loyihasini chizsa, ikkinchi guruhdagilar rangli qog'ozdan bezak elementlari - naqqoshlar, deraza, eshik tasvirlarini chizib chiqadilar, uchinchi guruhdagi o'quvchilar esa maketga kiritilayotgan qo'shimcha detal (daraxt, buta, yo'lovchi kabi) larni yasaydilar. Dars boshida beriladigan topshiriqlarni guruhlarga alohida-alohida qilib bosqichma bosqich tushuntiriladi.

Loyihalash darslarida o'quvchilar o'lchash, chizish malakalarini qo'llab avval oddiy ko'rinishdagi buyumlardan xatcho'p, sovg'a muqovalarni, bayram va tantanali kunlarga atalgan tabriknomalar loyihalashni o'rganadilar. Xatcho'plarni yasash uchun kartondan asos va rangli qog'ozdan bezak (applikatsiya) qirqib olinadi. 1-sinfning o'quv yili boshida o'qituvchi

tayyorlagan shablonlar yordamida xatcho'p yasala, III- chorakdan boshlab chizg'ich bilan belgilash orqali xatcho'plar yasaladi. Ma'lumki, olti yoshdan maktabga kelgan bola hali raqamlarni to'liq o'zlashtirmay turib, kitob betlarini esida saqlab qololmaydi. Ba'zi qobiliyati kuchli bo'lgan bolagina o'tilgan mavzuni kitob betidagi rasimga qarab topishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchi badiiy mehnat darsida bolalarga xatcho'p yasashni o'rgatishi kerak. Xatcho'p sirtini esa qog'oz va karton, tabiiy material bilan applikasiya usulida bezaladi, yoki rangli qog'oz tasmlari yordamida to'qiladi (oldingi mavzularga qarang). Bolalar o'zlari uchun dastlabki o'quv qurolini yasarkanlar, bu mashg'ulotda o'zlarining badiiy mahoratlarini namoyon qilishga o'rinadilar. Buyumni chiroyli chiqishi uchun chiroyli rangdagi qog'ozlarni tanlaydilar. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida naqshlarni chizish orqali xatcho'plarni bezash malakalarini o'rgatish mumkin. (16-rasmga qarang).

Tabriknoma va sovg'a muqovalarini yasashda ham asos va bezak o'lchab qirqib olinadi. Asos uchun 28x20 smli qog'oz yoki karton olinadi va o'rtasidan bukish chizig'i hosil qilib, ustki tomoni bezaladi. 3-sinfdan boshlab murakkab ko'rinishdagi maketlar yasashni o'rgatish mumkin. Masalan, olti burchakli xontaxta yasash uchun uning yasash ketma-ketligi tasvirlangan *texnologik xarita* – buyumning yasash tartibining chizmasidan foydalaniladi. Ish quyidagi tartibda borishi mumkin:

1. Teng tomonli oltiburchak chizib, qirqib olinadi (kartondan).
2. Xontaxta oyoqlari uchun kartondan 43x8 sm o'lchamdagi to'rtburchak shaklini chizib qirqib olinadi.
3. Bu turtburchakni 43 sm li tomonini 7 sm dan olti qismga bo'lib belgilanadi va shu belgilangan chiziq bo'yicha buklanadi. Bukish chizig'i

Tekis chiqishi uchun chiziq ustidan qaychining o'tmas uchi bilan yurgiziladi, natijada bukish chizig'i bo'yicha karton qalinligining yarmigacha qirqim hosil bo'ladi. Bu qirqimni astagina bossak, karton bukiladi.

4. To'rtburchakning 8 sm li tomonidan 1 sm o'lchab, chiziq tortiladi va shu chiziq bo'yicha buklov chizig'I hosil qilinadi. Har ikkala buklov chizig'ining kesishgan joyidan uchburchak shakldagi qirqim hosil qilinadi.

5. Bukish orqali hosil bo'lgan kvadrat shaklidagi olti tomondan xontaxta oyoqlarining shakli qirqib olinadi.

6. Xontaxtaning ustki oltiburchakli tomoniga oyoq qismi yelimlab, yopishtiriladi va applikatsiya usulida yoki akvarel bo'yoqdan foydalanib bezak beriladi... Bezashda simmetrik qilib qirqilgan naqsh va tasvirlardan foydalaniladi. Yasashda quyidagi chizmadan foydalanish mumkin:

5-6-mavzu. Pape-mashe usuli.

1.Pape-mashi usulida o'yinchoqlar yasash.

2.Pape-mashi usulida turli buyumlar yasash.

Eskirgan, g'ijimlangan qog'oz bo'lakchalaridan esa pape-mashe usulida buyumlar yasash mumkin. Buning uchun qog'oz maydalab yirtiladi, ularning o'lchami 1x1 sm dan oshmasligi lozim.

Maydalangan qog'ozlarni suvli idishga solib ivitiladi. Qog'oz tolalari suvni shimib, bo'kadi va egiluvchan bo'ladi.

Qog'oz bo'lakchalari hamirdan tayyorlangan yelim bilan yopishtiriladi. Buning uchun dastlab yasaladigan shakl tanlanadi va uning sirti 2 qavat qog'oz bilan qoplanadi. Qog'oz ustiga yelim surib, 3-qavat qog'ozni yana yelim surtib 4-qavatni va hokazo shu tartibda 8 qavat qog'oz yopishtiriladi. Oxirgi sakkizinchi qavatni iloji boricha oq rangdagi qog'ozdan yopishtirish kerak. So'ng buyum quritiladi. Qurigan bo'sh milliy naqshlar bilan bezaladi. Ya'ni uning sirtini akvarel yoki guash bo'yoqlari bilan bo'yab naqsh, gul, chiziladi.

Agar sharoit bo'lsa, buyum sirtini lak bilan bo'yash ham mumkin. Pape-mashe usulida piyola, lagan, likopcha, qo'g'irchoqlarni yasash mumkin. (35-rasmga qarang).

“Pape-mashi”so’zi fransuz tilidan olingan bo’lib “g’ilimlangan qog’oz “degan ma’noni bildiradi.Papey-mashi –qog’ozni maydalab ,ularni yelim bilan ustma –ust yopishtirish yo;li orqali o’yinchoq yasash usuli.Buning ushun gazeta qog’ozi kerak bo’ladi.

Maydalangan qog’oz parchalari PVA yelimi bilan yopishtiriladi.Shuningdek un yoki kraxmaldan tayyorllangan yelimdan foydalansa ham bo’ladi.Papey-mashi usulida biror buyum yasash uchun stol ustiga eski kleyonka soling.Ish vaqtida qo’lingizni artish uchun sochiqcha ham tayyorlab qo’ying.


Pape-mashi usulida likobcha yasash

Likobcha yasash uchun kerak bo’ladi:

likobcha,Gazeta, yelim,mo’qalam’kosa,yog’ yoki vazelin.Avvalo gazetani eni 2,5 sm ,uzunligi 10 sm bo’lgan bo’laklarga bo’linadi.

Likobchaning ustki qismiga mo’qalam bilan yog’ yoki vazelin surtiladi .va uning ustiga bir nechaqavat gazeta bo’laklari yopishtiriladi.

So’ngra yelim surtib ,ustidan gazeta bo’laklarini ketma-ketlik bilan bir tekisda yopishtirib chiqiladi.



Pape-mashi usulida piyola tayyorlash va bezash

Piyola sirtiga vazelin yoki moy surtiladi .Qog'ozni mayda bo'laklarga bo'ling Piyolaning birinchi qavatiga qog'oz bo'iaklariga bo'ling. Piyola yuzasiga tekis qilib yopishtiring .Ikkinchi qavatiga qog'oz bo'laklarini yelim yordamida yopishtirib chiqiladi.Piyola tayyorlash uchun kerakli ish qurollaridan to'g'ri foydalaning.

Qog'oz bo'laklarini ikkinchi qavatga uzunasiga yelimlang .Bu esa qog'oz qavatlarini yanglishib ketishdan saqlaydi. Bu holatni 6-7 marta takrorlang.Piyolani 3 kun quritishga qo'yiladi. So'ngra piyola sirtini ko'k rangga bo'yang va naqsh elementlari bilan bezaladi.

Olma shaklini yasash

Olma shaklini yasash uchun bizga kerak bo'ladi: gazeta,yelim,mo'qalam, olma, yog' yoki vazelin.

Olmaga yog' surtib, keyin ho'l qog'oz parchalaridan bir necha qatlam qilib yopishtirib chiqiladi. Hosil bo'lgan shaklda yelim surtib ,oq qog'oz yopishtiladi. So'ngra gazeta parchalarini yelimlang.Mazkur jaroyonni 3 marta takrororan bajaring .

Yopishtirib bo'lingandan keyin shaklni pichoq bilan teng ikkiga bo'linadi. Olma ajratib olinadi. Olma shakli qismlarini yelim bilan bir-biriga yopishtiriladi. Ustidan guash bilan rang beriladi.





7- mavzu Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq. materiallar bilan ishlash.

Reja:

- 1. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tabiiy materiallar bilan ishlash.**
- 2. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tashlandiq materiallar bilan ishlash.**

Mavzuga oid tushunchalar

Tabiiy buyumlar – danaklar, yongok puchogi, daraxt pustlogi, shoxcha.

Kayta ishlash usullari. Tashlandik buyumlardan uyinchok yasash va bolalar bogchasidagi ahamiyati haqida.

Boshlang'ich sinfning badiiy mehnat darslarida tabiiy va tashlandiq materiallardan foydalanib, har xil buyumlar yasashni o'rgatish mumkin. Bizning jumhuriyatimiz tabiati nixoyatda boy, go'zal bo'lishi bilan birga o'simliklarning xilma-xilligi bilan xam boshqa jumhuriyatlardan ajralib turadi. O'zbekistonda hamma mintaqalarda o'sadigan o'simliklar bor. Agar o'qituvchi shu o'simliklarning bir qismidan o'z o'rnida, foydalana bilsa,

o'quvchilarga juda ham chiroyli buyumlar yasashni o'rgatadi, ularda tabiatga qiziqish uyg'otadi, atrof-muhit bilan yaqinroq tanishish va muhofaza qilish imkonini yaratadi.

Mahalliy sharoitdagi tabiiy materiallarga archa bo'qog'i, meva va yong'oq danaklari, meva urug'lari, somon, baliq tangachalari, loy, qum, qarag'ay va tilog'och qubbalari, barg va maysalar, chigit, makkajo'xori so'tasi, daraxt va butalarning shoxchalari, qushlarning pati, quritilgan gullar va boshqalar kiradi.

Tashlandiq materiallarga esa bo'shagan qutilar - choy qutisi, gugurt, dorivorlar, poyafzal qutilari, bo'shagan ip g'altaklari, tuxum po'chog'i, (butun va maydalangan holda), krem yoki tish pastasinig bo'shagan g'ilofi, telefon simlari, gazlama va ip bo'lagi, kanop, sut maxsulotlarining idish qopqog'i va boshqalar kiradi. Tabiiy va tashlandiq materillar bilan ishlash darslari o'quvchilarning ijodkorlik va konstruktorlik qobiliyatini o'stiradi, oldingi olingan malaka va ko'nikmalarni mustahkamlaydi, tejamkorlikka o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu darslarni o'zimizning mahalliy va tabiiy sharoitimizga moslab, ya'ni iqlimi, geografik o'rni tabiati, xalq amaliy san'ati ishlab chiqarish sanoati turiga qarab mo'ljallab o'tishi lozim. Masalan, qishloq sharoitida somondan, chigitdan, makkajo'xori so'tasidan, xar xil urug' va maysalardan, shahar sharoitida esa to'quvchilik, tikuvchilik, yog'ochsozlik ishlab chiqarish sanoatlari korxonasi bor joylarda chiqindi ip bo'laklaridan, tolalardan, yog'och va gazlama bo'laklaridan, qipiqdan, egiluvchan simlardan foydalanib buyumlar yasashni o'rgatish mumkin. Mehnat jarayonida o'quvchilar oldingi darslarda olingan umummehnat malakalaridan (bukish, qirqish, biriktirish, bezash) foydalanadilar, o'z mehnatlarini rejalashtirish, tashkil etish usullarini o'rganadilar. Darslarda ayniqsa ertak, hikoya, asar qahramonlarini va personajlarni tasvirlab buyumlar yasash o'quvchilarni mustaqil ijod qilishga undaydi. Bu darslarni tabiatshunoslik, o'qish, tasviriy san'at, sinfdan tashqari o'qish darslari bilan bog'lab o'tish tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ertak qahramonlari tasvirlangan buyumlarni o'qish darsi

uchun ko'rgazmali qurol sifatida, urug' va maysalardan yasalgan applikasiyalardan tabiatshunoslik darslarida foydalanish mumkin. Tabiiy materiallarga ishlov berishda, har xil shakllar hosil qilishda plastilin ham ishlatiladi.

O'quvchilarning badiiy ijodiyotini rivojlantirish uchun "Ertaklar olamiga sayohat", "Men sevgan qahramon", "Men nimaga qodirman" kabi erkin mavzularda dars o'tish mumkin. O'quvchi bunda bir-biriga o'xshamaydigan har xil qahramonlar bilan tanishadi, har bir o'quvchi o'zining mahoratini namoyish qilish bilan birga o'zining ichki kechinmalarini ham o'zi yasagan buyumda namoyon qilib, ifodalaydi. Tabiiy materiallarni darsdan bo'sh paytlarda va ekskursiyalarda o'qituvchi rahbarligida to'p lash mumkin. Mahalliy tabiiy materiallar to'plashda ular haqida ma'lumot berib, qaysi turga, oilaga mosligini gapirib, o'quvchilarning tabiatshunoslik fanidan olgan bilimlari mustahkamlab boriladi. Masalan chigitdan applikasiya tayyorlashdan oldin o'quvchilarga "Paxta - boyligimiz", somon to'plashdan oldin "Oltin boshqoq", "Non - rizq-ro'zimiz" loy bilan ishlashda "Kulolchilik haqida" kabi mavzularda suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida o'quvchilarning tabiiy material haqidagi tasavvuri kengaytirib borib, ularning fizikaviy, mexanik va texnologik xususitlari haqidagi bilimlari kengayib rivoglainib boradi, har xil tajribalar o'tkazadilar, buyumlarga estetik bezak beriah va har xil uskunalar (ombur, arracha, bolg'acha) bilan ishlash ko'nikmalari tarkib topa boradi. Badiiy-ijodiy yo'nalishdagi mashg'ulotlarni tashkil qilinishi bolalarni chiroyli, bejirim buyumlarni yasashga o'rgatishdan tashqari, ularni mustaqil fikrlashga, o'z fantaziyasini namoyon qilishga ham undaydi, estetik zavq bag'ishlaydi, o'z ishini va jamoa ishini rejalashtirishga o'rgatadi. Buyumlarni loyihalarkan, bolalar unga biror bir yangilik kiritishga, uni uzoq saqlanadigan qilib yasashga, ijodiy izlanishga harakat qiladilar. Mahalliy sharoitimizdagi tabiiy va tashlachdiq materiallar bilan ishlash darslari tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qog'oz va karton gazlama, plastilinni ota-onalar sotib olib bersa, tabiiy va tashlandiq, materiallarni o'quvchilarning o'zi yig'ishga harakat qiladi, istirohat bog'ida daryo yoqasida, ko'chada,

dalada, o'rmonda, umuman tabiat quchog'ida yurganda ham, uyda ham o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan bu materiallarni to'plab yuradilar. Tabiiy materiallar yig'ishda o'quvchilar diqqatini tabiatni asrashga, daraxt va butalarni sindirmaslikni, polizlardagi ekinlarni payxon qilmaslikni ogohlantiriladi.

Tashlandiq materiallarni yig'ib borish haqida bir necha kun oldin ogohlantiriladi. Yil davomida yig'ish uchun o'qituvchi sinfxonasida maxsus quti qo'yib "Tashlandiq materiallar uchun" deb yoziladi.

Bu qutiga o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasiga binoan bo'shagan ip g'altaklari, qutilari, ip va gazlama bo'laklari va boshqa tashlandiq materiallarni tashlab qo'yaveradilar. Natijada o'quvchilar tejamkorlikka va tozalikka o'rganadilar, ta'lim va turmush uchun zarur bo'lgan buyumlar yasash jarayonida o'z mexnatlarining qadr-qimmatini biladilar. Quyida mehnat darslarida mahalliy sharoitdagi tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash, ularga ishlov berish kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilish usullarini ko'rsatishga harakat qilamiz.

QURITILGAN BARG VA MAYSALARDAN BUYUM YASASH.

Quritilgan barg va maysalardan turli xil applikatsiyalar yasash mumkin. Bargning yoz paytdagisi yashil, kuz paytdagisi sariq rangda bo'ladi. Shu sababli har ikkala rangdan oqilona foydalanib tasvir hosil qilish mumkin. Buning uchun bargni quritish lozim. Quritish uchun bargni kitob orasiga tekislab qo'yiladi. Maysalarni ham shu usulda quritiladi yoki qog'oz orasiga qo'yib, dazmollash ham mumkin. Yelimlash uchun PVA yoki BF yelimidan foydalaniladi. Applikatsiya mavzusiga moslab bargni tanlanadi va ma'lum tasvir asosida yopishtiriladi. (25-rasmga qarang).

SOMONDAN NARSALAR YASASH.

Somondan ham applikatsiyalar, dekorativ pannolar yasashni o'rgatish mumkin. Buning uchun avval somon kerakligicha mo'ljallab olinadi va har birini uzunasiga qaychi uchi bilan teng ikkiga ajratib qirqiladi. Qirqilgan

poyalarni namli qilib, dazmollanadi. Dazmolning issiqliq darajasi orqali somonga rang berish mumkin. Ya'ni nimhol qizdirilganda och sariq, kuchli qizdirilganda qizg'ish sariq rangga kiradi. Buyumlardagi soya tasvirni berishda och va qizg'ish-sariq ranglardagi somondan foydalaniladi. Somon va shunga o'xshash tabiiy materiallar kartondan yasalgan quti yoki polietilen xaltachalarda saqlanadi, (26 a-rasmda somondan tayyorlangan applikasiya).

Boshqa bir qancha tabiiy materiallarni deyarli ishlov bermasdan qo'shimcha qism va shakllarni plastilin, loy, qog'oz va karton, gazlama va ip bo'laklari, simlardan tayyorlab yopishtirib har xil shakldagi qush, hayvon va jonivorlarni tasvirlash mumkin (). giya bilan tanishtirish.

munalar.

TUXUM PO'CHOG'IDAN BUYUMLAR YASASH.

Tuxum po'chog'idan butunligicha va maydalab ezilgan holda foydalanib buyumlar yasash mumkin. Butun holda tuxum po'chog'ini darsga tayyorlab kelish uchun igna bilan teshib, oqsil moddasi-puflab oqiziladi. Ustki tomoni sovunli eritmada ho'llangan latta bilan ehtiyotkorlik bilan artiladi. Agar tuxum po'chog'ini biror rangga buyash lozim bo'lsa, akvarel bo'yog'idan stakanda rang eritmasini tayyorlab, tuxum po'chog'ini *pinset* bilan ushlab rangli eritmaga botirib olinadi va quritiladi. Bu ishning yana bir usulida tuxum po'chog'iga o'simliklar ildizi, mevalarni qaynatib rang beriladi. Masalan, piyoz po'stini qaynatib, och sariqdan malla ranggacha, qizil lavlagi suvida-gulobidan jigar ranggacha bo'yash mumkin. Bo'yash jarayonining qaysi usulidan foydalanishni o'qituvchi sharoitga qarab tanlaydi. Ko'pincha bu ishni o'quvchilar uyda o'qituvchiniang ko'rsatmasiga rioya qilib bajaradilar. Butun holdagi tuxum po'chog'idan yasaladigan buyumlarga plastilin, loy, qog'oz va kartondan qo'shimcha shakl beriladi. (23 -rasmga qarang). Maydalangan tuxum po'chog'ini ezib mozaika yasashni ham o'rgatish mumkin Mozaika san'ati qadim zamondan mavjud bo'lib, qadimgi Misrlaklar eramizdan 2000 yil avval har xil binolarni mozaika usulida bezaganlar. Samarqand, Buxpro, Xiva yodgorliklarida ham bu san'at turining

mavjudligi O'rta Osiyo naqqoshlarining ham bu noyob hunar bilan shug'ullanganliklarini isbotlaydi.

Mozaika deganda har xil rangdagi tosh bo'lakchalarni, rangli oyna, shisha siniqlari, chig'anoqlar bilan tasvir hosil qilish tushuniladi. Hozirgi paytda ham hashamatli binolarni, klub va madaniyat saroylarini, metro bekatlarini bezashda mozaika san'atidan foydalaniladi.

Mozaika o'zining rang-barangliligi, go'zalligi va oson bajarilishi bilan ayniqsa kichik yoshdagi bolalarning ko'zini quvontiradi. Chiroyli rangda bajarilgan mozaika boshlang'ich sinf o'quvchisining fantaziyasini boyitadi. Mozaika bilan shug'ullanish darslarida o'quvchilar ranglar uyg'unligini, kompozitsiyaini, garmonik moslashuvini to'laroq bilish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ularning mehnat malakalari mustahkamlanadi, musavvirlik qobilayatlari rivojlanadi. Tuxum po'chog'idan mozaika bajarish san'atini hamma o'qituvchi ham badiiy mehnat darsiga tadbiq etishni bilavermaydi. Chunki bu mashg'ulotlar haqida o'zbek tilidagi qo'llanmalarda deyarli hech qanday ko'rsatmalar berilmagan. Quyida shu texnologik jarayon haqida fikr yuritamiz. Mozaika uchun quyidagilar kerak:

-oldindan tayyorlangan tuxum po'chog'i, karton yoki fanera, bo'yoqlar, yelim, qalam TM, 2 ta cho'tka - yelim va bo'yoq uchun, 15x15 sm.li gazlama bo'lagi (yelim artish uchun). Ishning dastlabki bosqichi - tuxum po'chog'ini tayyorlash. Foydalanib bo'lingan (yeyilgan) tuxum po'chog'ini terib, sovunli suvda ishqalab yuvib, quritiladi. Agar mozaika uchun rangli tasvir hosil qilish kerak bo'lsa, uni xuddi butun tuxum po'chog'ini bo'yagandek bo'yaladi. (oldingi betlarga qarang).

Oq rangdagi tasvirlar uchun tuxum po'chog'i bo'yalmaydi. Qish manzarasini, qobobo, qorqiz, oqqush, tovuq va shunga o'xshash ranggli tasvirlar uchun bo'yalmagan tuxum po'chog'idan foydalaniladi. Qurigan tuxum po'chog'ini qog'oz ustiga to'plab, shisha idishni yurgizib eziladi. Bu jarayonni o'quvchilar uyda, o'qituvchining ko'rsatmasiga binoan bajarib kelishlari kerak. Mozaika ikki usulda bajariladi. (26 b rabm)

1-usul: Tuxum po'chog'ini 0,1-0.4 sm. li bo'laklarga ajratib, ularni chizilgan tasvir ustiga navbatma navbat pensil bilan zich qilib yopishtiriladi.

2 - usul: Tuxum po'chog'ini chang zarrachalaridek maydalanguncha eziladi va tasvir ustiga yelimni qalinroq qilib surkaladi. Yelim surkalgan joyga tuxum po'chog'i sepiladi. Demak, tuxum po'chog'ini o'lchamiga asosan har ikkala usuldan birini tanlab, mozaika tasviri hosil qilinadi.

Tasvirlarni qalam uchi bilan bilintirmasdan chizish kerak. Chunki tuxum po'chog'i yopishtirilgandan keyin uni o'chirib bo'lmaydi. Tasvirni chizishda o'quvchilar diqqatini uning tekis chizilishiga, kompozisiya va ritm qoidalariga rioya qilinishiga qaratmoq lozim. Maydalangan tuxum po'chog'iga qo'shimcha bezak berishda yaltirok zarqog'ozning maydalanganidan foydalansa ham bo'ladi. Tuxum po'chog'ini tasvir ustiga va kartonning hamma qismiga yopishtirib, mozaika hosil qilish mumkin (29-rasmga qarang). Tuxum po'chog'ini yopishtirib bo'lgach, tayyor buyum quritiladi. Buyum quriguncha o'quvchilar ish joyini tartibga keltiradilar, ortib qolgan tuxum po'chog'ini, qog'oz bo'lakchalarini yig'ishtirib oladilar. Buyum qurigandan so'ng unga badiiy bezak beriladi, ya'ni bo'yaladigan qismi bo'yaladi, ortiqcha tuxum po'chog'i qirib olinadi va sirti laklanadi. Shuni unutmaslik kerakki yelim qurimasdan bo'yalsa, qurigandan so'ng oqarib qolishi mumkin. Mozaika usulida sovg'a muqsovalarini, tabriknomalarni, xatcho'plar sirtini bezash mumkin. Tanlanishini, tasvirni, shakllarni, naqshlarni bola yoshiga moslab tanlaydi.

Mozaika san'ati bajarilishi jihatdan applikatsiyaga ham o'xshab ketadi. Shu sababli o'qituvchi ishni bajarishdan oldin qog'oz va kartondan, gazlama- dan, ipdan, urug'lardan yasalgan applikatsiyalarni ko'rsatib, ularning o'xshash va farq qiladigan tomonlarinn solishtirib ko'rish mumkin

TASHLANDIQ IP VA TOLALARDAN APPLIKATSIYALAR YASASH.

Har bir oilada gazlama qoldiqlari, yirtilgan eski ko'ylaklar, ip bo'laklari topilib turadi. Agar o'qituvchi bu tashlandiq buyumlarni badiiy mehnat darsida qo'llashni bilsa, ya'ni applikatsiyalar, o'rimli xatcho'plar, qo'g'irchoq uchun kiyimchalar tayyorlatsa, o'quvchilarni tejamkorlikka o'rgatib, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaydigan qilib tarbiyalagan bo'ladi. Bundan tashqari o'quvchilarning ip, tola, gazlama xususiyatlarini chuqurroq bilishiga imkon yaratgan bo'ladi. Tashlandiq ip, tola bilan ishlashni 1-sinfdan 4-sinfgacha o'rgatsa bo'ladi.

Yirtilgan yoki kiyimlarni so'tib ip olishni o'quvchilar uyda ham bajarib kelaoladilar. Buning uchun o'qituvchi ularga oldindan bu ish jarayonini tushuntirib beradi. Eskirib qolgan kiyimni tozalab, bo'ylama va ko'ndalang ipiga qarab gazlamaning to'rt tomoni tekislab qirqiladi. Yon tomondan gazlamaning ipi navbat bilan sitib olinaveradi. Sitib olingan iplarni maxsus xaltachaga solib darsga olib kelinadi. Keyingi ish ipni mayda bo'lakchalarga qirqish b o'lib, ipni chap q o'lning 4 ta barmog'iga (bosh barmoqdan tashqari) salqiroq qilib uraladi. O'ramni qo'ldan echib olib, uzunligi 0,5-1,0 sm keladigan b o'lakchalarga qirqiladi. Qirqiladigan ip miqdori applikasiya yopishtiriladigan maydonga moslanadi. Ip tayyor bo'lgach, karton ustiga tasvir chizib olinadi va shu tasvirga elim surtib ip bulakchalari navbatma navbat yopishtiriladi. Hajmi katta bo'lagan tasvirlarga elimni biradaniga surkalmaydi, aks holda elim qurib qolishi mumkin. Shuning uchun tasvirning yuqorisidan boshlab, uni qismlarga bo'lib yopishtiriladi. Yigirilgan jun iplardan qolgan bo'laklarni ham xuddi shu usulda qirqib, applikasiya yasash mumkin. Qirqilgan iplardan paxmoq xayvonchalar-ayiq, tulki, quyon, kuchukcha, mushukcha, olmaxonlarni, parranda va qushlarini, koptokni tasvirlab applikasiya tayyorlash mumkin. Ip qanchalik k o'p b o'lsa, tasvir shunchalik paxmoq chiqadi. Bundan tashqari qog'oz, gazlamalardan tayyorlanadigan applikasiyalarda qo'shimcha bezak

sifatida ipdan foydalanish mumkin. Masalan "Qoqigul" applikasiyasida poya va bargni yashil rangdagi qog'ozdan qirqib yopishtirib, qoqigulni esa oq ipdan tayyorlab yopishtirish mumkin. Ipdan tashqari paxta momig'idan, titilgan pilladan, tashlandiq yog'och qipig'idan ham xuddi shu usuldagi applikasiyalar yasash mumkin. Tug'ilgan kun, bayram tabriknomalarni ham ipli applikasiyalar bilan bezasa bo'ladi. (30-rasmga qarang)

TASHLANDIQ QUTILARDAN FOYDALANIB BUYUMLAR YASASH.

Badiiy mehnat darslarida xar xil rangli va xar xil o'lchamdagi qutilardan foydalanib o'yinchoqlar, o'quv qurollari, ertak qahramonlari shaklini yasash mumkin. Bunday darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstruktorlik va ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi. Oddiy poyazal qutisining ustini applikat-siya, mozaikalar bilan bezab, igna va ip solib qo'yadigan g'aladon. Sovg'a qutilari yasash mumkin. Buyumni yasashdan oldin qutilar soni aniqlab olinadi. So'ng quti ustini rangli qog'oz bilan qoplab qog'oz bo'lagi gazlama ip, sim va tugmalardan ko'l, oyoq, og'iz, burun shakllarini yasab yopishtiriladi. Qutilardan ham hayvonchalar, avtomobil, poezd, sanoq materiallari solinadigan g'aladon yasash mumkin. G'aladonni 1-sinf o'quvchilari o'quv quroli sifatida foydalanadilar. Ya'ni qirqma alifbedagi sanoq materiallarini qirqib, har birini maxsus mo'ljallangan qutining ichiga solib quyiladi. G'aladonni yasash uchun 5 ta gugurt qutisi yotiq holda ketma-ket yopishtiriladi. Yopishtirilgan qutilar o'lchamiga mos 2 ta kartonni o'lchamda qirqib qutilarning old va orqa tomoniga yopishtiriladi. Qutilarning har biriga moslab sanoq materialini qirqib yopishtiriladi.

Qutilardan buyum yasashda o'qituvchi va o'quvchilarning ijodkorlik fantaziyasi cheksiz imkoniyatlarga ega (Shulardan ba'zilari bilan 31-32 rasmdan tanishishingiz mumkin).

TASHLANDIQ MATERIALLARGA ISHLOV BERIB BUYUMLAR YASASH.

Folga, latun, ingichka tunuka, telefon simlari, krem yoki tish pastasi g'ilofi, sut mahsulotlarining qopqog'i - bularning hammasi maktab sharoitida

eng ko'p ko'llaniladigan materiallar bo'lib hisoblanadi. Folga – qog'ozga nisbatan qattiq, yaltiroq va egiluvchan bo'lib, u savdo do'konlarida ham sotiladi, agar sotib olishning iloji bo'lmasa, sut mahsulotlarining qopqog'ini ham ishlatish mumkin.

Tashlandiq metallardan krem g'ilofini teskari tomonidan o'yma naqsh qilib chekanka tayyorlash mumkin.

Chekanka ham qadimgi san'at turidan biri bo'lib, Misrda, Rimda, Gretsiyada bu san'at bilan shug'ullanib kelganlar. Bizning o'zbek xalqida bu san'at turini misgarlik deb ataladi. O'zbek misgarligi ham qadimdan dong'i ketgan bo'lib, bu usulda lagan, patnis, choyidish, oftoba va obdastalar yasalgan, har xil taqinchoqlar solinadigan qutichalar, o'smadon va surmadonlarning sirtini misdan o'ymakor naqsh qilib bezaganlar. Qimmatbaho metallar (oltin, kumush)ga misgarlar ishlov berib, bilaguzuk, tillaqosh, baldoq, zebigardon va shu kabi buyumlar yasaganlar. O'ymakorlik san'ati avloddan avlodga meros bo'lib o'tavergan. Tunukasoqlar esa sandiqlar sirtini tunukaga o'yilgan naqshlar bilan bezaganlar. Afsuski inqilobdan keyingi davrda xonadonlarda ana shunday noyob san'at buyumlari kamayib qolgan edi. O'sib kelayotgan yosh avlod esa ota-bobolarimizdan qolgan hunarlarning sir-asrorlaridan bexabar bo'lib qolmoqda. Milliy hunarmandchilikning yo'qolib ketmasligi uchun badiiy mehnat darslarida bu san'atga nisbatan o'quvchilarda mehr-muhabbat, qiziqish uyg'otmoq kerak. Qisman bo'lsada, uning sir-asrorlari, ishlov berish usullari bilan tanishtirish lozim. Metall sirtini pardoqlab, sovg'a-bop buyumlar-tabriknoma va sovg'a muqovalari, taqinchoq igna-ip solib qo'yiladigan qutichalar yasash mumkin. Buning uchun o'quvchilar krem g'ilofini ikki chetini qaychi bilan qirqib, so'ng orasini ochib uzunasiga ham qirqishadi. Ichidagi krem yoki pastani yuvib tekislanadi (rasmga qarang). O'qituvchi oldingi darsda jarayonni amalda ko'rsatib, tushuntirishi lozim. ota-onalari yordam berishlari mumkin. Metall sirtiga o'yma naqsh pardoqlash ishi bilan badiiy mehnat darslarida va o'ymakorlik to'garaklarida shug'ullanishlari mumkin. Bo'rtma shakl va naqshlarni hosil qilish uchun

qaychi halqachasidan, pastasi yozmaydigan avtoruchkadan (ba'zan bigizdan) foydalaniladi. Bo'rtma shaklning (tagiga yumshoq taglik) gazlama yoki qog'ozni 4-5 qavat qilib to'shab (qo'yib), metallning yozuvli tomonidan tasvir chizib olinadi va shu tasvir bo'yicha silliq narsa bilan bosiladi.

Natijada metall bosim ta'sirida cho'zilaveradi va pastki tomonidan shakl bo'rtib chiqadi. Tekis chiziqlar, nuqtali shakllar yozmaydigan avtoruchka bilan chiziladi. Bo'rtma shakllar hosil bo'lgach, uni belgilangan joyga hamirli yelim bilan yopishtiriladi. Hajmi katta bo'lgan bo'rtma tasvirni usti bosilmasligi uchun paxta bo'lagini hamirli yelimga botirib teskari tomondagi chuqurchaga yopishtiriladi. (33-rasmda ayrim namunalarni ko'ra-siz).

Metallga bo'rtma naqsh o'yish darslarida o'quvchilar uning xususiyatlari bilan tanishadilar. Metallning qog'oz va kartonga nisbatan chidamli mustahkam, issiqlik o'tkazuvchan, egiluvchanligini amalda bilib oladilar.

Tashlandiq qog'ozdan buyumlar yasash.

Tashlandiq qog'ozlarga badiiy mehnat darsida applikasiya, to'qish usulida yasalgan qog'oz qirqimlari, gazeta va jurnallarning yirtilgan, g'ijimlangan bo'lakchalari kiradi. Applikasiya va to'qish darslaridan ortib qolgan rangli qog'oz qirqimlarini ko'pincha o'quvchilar tashlab yuboradilar. Ularni tejamkorlikka o'rgatish maqsadida bu qirqimlarni ish papkasidagi rangli qog'ozlar solinadigan konvert ichiga solib yig'ib qo'yish tavsiya qilinadi. Tashlandiq rangli qog'oz bo'lakchalarini applikasiyaning bir turi - mozaika tayyorlashda foydalanish mumkin. Buning uchun bir xil rangdagi qog'oz bo'lakchalarini ustma-ust taxlab, qirqiladi. Qog'oz uchburchak, to'rtburchak shakliga o'xshash qirqimlarga aylanadi. So'ng asos (karton)ga tasvir chizib, yelim tasvir ustiga surtiladi. Yelim ustiga qirqilgan qog'oz bo'lakchalari birma-bir yopishtiriladi, natijada tasvir rangli qog'oz bo'lakchalari bilan yopilib qoladi (ilovadagi 34-rasmga qarang).

Eskirgan, g'ijimlangan qog'oz bo'lakchalaridan esa pape-mashe usulida buyumlar yasash mumkin. Buning uchun qog'oz maydalab yirtiladi, ularning o'lchami 1x1 sm dan oshmasligi lozim.

Maydalangan qog'ozlarni suvli idishga solib ivitiladi. Qog'oz tolalari suvni shimib, bo'kadi va egiluvchan bo'ladi.

Qog'oz bo'lakchalari hamirdan tayyorlangan yelim bilan yopishtiriladi. Buning uchun dastlab yasaladigan shakl tanlanadi va uning sirti 2 qavat qog'oz bilan qoplanadi. Qog'oz ustiga yelim surib, 3-qavat qog'ozni yana yelim surtib 4-qavatni va hokazo shu tartibda 8 qavat qog'oz yopishtiriladi. Oxirgi sakkizinchi qavatni iloji boricha oq rangdagi qog'ozdan yopishtirish kerak. So'ng buyum quritiladi. Qurigan bo'sh milliy naqshlar bilan bezaladi. Ya'ni uning sirtini akvarel yoki guash bo'yoqlari bilan bo'yab naqsh, gul, chiziladi.

Agar sharoit bo'lsa, buyum sirtini lak bilan bo'yash ham mumkin. Pape-mashe usulida piyola, lagan, likopcha, qo'g'irchoqlarni yasash mumkin. (35-rasmga qarang).

8- mavzu Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.

R e j a:

- 1.Kashtachilik xaqida tushuncha
- 2.Milliy kashtachilik va applekatsiya xaqida tushuncha.

Mavzuga oid tushunchalar

Buyumli, bezakli va mazmunli kashtalar. Chok turlari: archa, ilmoq, ilon izi va tugunzali.

Chok namunalari, chok bilan bezalgan milliy ko'ylakcha, sochiq chorsi. Zardo'zlik xunari bilan tanishtirish: ip to'no'ich, ko'z oynak ?ilofi, choynak yop?ich, elpi'gich tikish.

Kashta asosan bezak san *at turidir. Turli ranglardagi ip, igna, ilmoqli bigiz bilan mato, trikotaj charm, kigiz kartonga qolda yoki mashinada gul naqsh tasvir tikiladi. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlarini tayyorlashda qadimdan qollaniladi. Kashta ipak, paxta, jun, ziglr, sunly tolalardan tayyorlangan iplar, mayin cim, zar iplar, xom charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmachalardan tiki,, munchoq, marjonlar, nodir va qimmatbaho toshlar, rangli tabiiy va sunliy, oddiy toshlar, rangli shishalardan ishlangan mo'nchoqlar qadab tayyorlanadi.

Biz tug*Hi o'sgan O'zbekiston Respublikasi paxta yetishtirishda mamlakatimizda yuqori o'rinlardan birida turadi. Paxta xalq xo'jaligi va sanoat uchun qimmatbaho xomashyodir. Paxtadan gazlama, ip, arqon, baliq tutish uchun to'r, bolalar oyinchoqlari va odamlar uchun kerakli boshqa kolr narsalar tayyorlanadi. Paxta chigitidan paxta yogi, kunjara, o'gVf va boshqalar olinadi. Chigit po'stidan narsalarni oVasG`7 uchun qog'oz tayyorlanadi. Paxta poyasidan himoya sanoatida qimmatbaho hisoblangan xomashyo, arqon tayyorlanadi, yoqilgl sifatida foydalaniladi. Xullas, paxtadan xech qanday chiqindi chiqmaydi, undan odamlarga kerak boladigan turli narsalar olinadi. Paxtadan tayyorlangan gazlamalarning quyidagi xillari mavjud: tin-qalin gazlama, old tomoni silliq bir oz yaltiraydi, eskari tomoni yaltiraydi;

chit satinga qaraganda bir oz iplari ingichkaroq va yumshoqroq;

doka chitga qaraganda yumshoqroq va yirik to'qilgan, doka yorug lik o'tkazadi, chit esa o'tkazmaydi. Sintetik toladan olingan gazlamalar: shoyi, krep, krepilin, trikotik, vilyur va xakozo. Jundan olingan gazlamalar- sherst, drap. Ipakdan: atlas, shoyi, adras, beqasam. No to'qima gazlamalar: bo'z, brezent, qanorqop. Amaliy san'atning eng keng tarqalgan turi kashtachilikdir. Unda asosiy olgan so'zana qadim zamonlardan har bir oilaning bolgan va hozir ham shundaydir. Buxom va samarqand so'zanalari ko'lr rangliligi hamda shakllarining xilma-xilligi nihoyatda nozik tikilishi bilan farqlanadi. O'zbek ayollarining chevarlik mahoratini namoyish etuvchi buyumlardan biri choyshabdir. Ayollarni husniga husn qo'shadigan, erkaklarga kamolot baxsh etadigan kashtachilikning bir turi

do'ppidir. Buxoroning zar dolppisi, Namanganning chust do*ppisi, iroqi, duxoba va boshqa do'ppilar g'oyat mashhurdir. Kashtachilikda belbog g` dastro *mol, sandalpech, so'zana, zardevor, pillaband, xalin va har xil xaltachalar juda nafis qilib bezatiladi. Kashta tikish vaqtida ip tanlashning ahamiyati kattadir. Kashta tikishda muline (ipak paxta) ip ishlatiladi. G'altak iplar har xil 10 dan 100 gacha nomerli boladi. Yupqa gazlamalami tikish uchun ingichka, ya'ni 50-60 va xakozo nomerli iplardan, qalin gazlamalar uchun yo'g'on, y'ani 30-40 va xakozo nomerli iplardan foydalaniladi. Iplar bir-biriga qo'shilgan chiroyli boladi. Masalan: qizil bilan ko'k rangli, zarg'aldoq bilan binafsha rangli, vaqtida asboblardan (angishvona, har xil nina, qaychilar) foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalarida hoj a qilinadi. Ishga kirishishdan oldin fartuk va eng kiyiladi. Angishvona barmoqlarni nina kirishdan saqlaydi va gazlamadan nina olkazishda yordam beradi. Applekatsiya gazlamadan bir necha xil usulda bajariladi: Gazlama petlyachaki orqali qolda tikiladi. Gazlamaga ishlanadigan applekatsiyani cheti qolda petlya choki orqali tikiladi; Applekatsiya qilinadigan gazlama orasiga salafan qoyib, dazmollanadi;

Applekatsiya qilinadigan gazlamani cheti mashinada zich-zich qilinadi. O'zbek milliy kashtachiligi amaliy sa'natining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida paydo bo'lib, kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari tomonidan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabi buyumlar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi Xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning barcha viloyatlarida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy eksponatga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining

eng qadimiysi saqlanmagan, XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini bilish mumkin.

Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan. «Temur taxti» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

XX asrning II yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashta buyumlarining ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar salsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.


Kashta buyumlari.




So'zana- forscha so'zdan olingan bo'lib, igna bilan tikilgan degan ma'noni bildiradi.

Palak- devorga osiladigan bezak buyumi bo'lib, naqshlari oy ko'rinishida aylanasimon bo'ladi.

Zardevor-uyning tepa qismiga osiladigan kashta buyumi bo'lib, balandligi 60 sm,uzunligi uyning o'lchamiga mos qilib olinadi. Choyshab- forscha so'z bo'lib tun chodiri degan ma'noni bildiradi. Joynamoz- bir tomoniga mehrob shakli kashtada tikilgan bo'ladi. Yostiqqosh- eni 30sm ,uzunligi 60sm gazlamaga naqsh tushurilib tikiladigan bezak buyumi. Qiyiqcha- belbog' erkaklar beliga bog'lanadigan ro'mol.



Kashta tikishda bosqichlari



Kashta tikish asboblari va moslamalari



Qo`lda kashta tikish uchun o`ziga xos asboblari bo`ladi. Kashtachilikda ignalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlatiladi.

Kashtachilikda oq, kulrang, och sariq, och mallarangli surp, bo`z, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarda naqshlar chizilganda yaxshi ko`rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi.

Gul, rasm, naqshlar chizish uchun chizg`ichlar, yumshoq va qattiq qalamlar, daftar, al`bom, o`chirg`ich, millimetrlangan qog`oz, nusxa ko`chiradigan qog`oz va shaffof qog`ozlarkerak bo`ladi.

Chambarak gazlamani tarang tortib turish uchun ishlatiladi. 20-40 smli ikkita gardishdan iborat bo`lib, bir- birini ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta gardish ichiga qiyin tushadigan bo`lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak.

U juda kichik bo`lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo`lsa, atrofiga yupqa gazlama o`rab qo`yish mumkin.



Kashta tikish chambaraklari

Kashta tikish uchun cho`ziqroq ko`zli kalta (1 va 2 tartibli) ignalar tanlanadi. Ignaning ko`zi katta bo`lsa, bir necha qavat ipni o`tkazish oson bo`ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun qulay. Jun ipni ignaga o`tkazish qiyin. Bu ipni o`tkazish uchun ignalar komplektidagi ip o`tkazgichdan foydalanish mumkin. Uni bir qatim ipak yoki ingichka g`altak ip bilan o`tkazsa ham bo`ladi.

Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo`lgan petlya ichiga jun ipi uchun kiritiladi, ipakning ikkala uchini igna ko`zidan o`tkazib, jun ip bilan birga tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, shoyi, batis, shifon) gazlamaga kashta tikishda, ko`zi kichik, ingichka igna kerak bo`ladi. Yo`g`on igna sanchilgan joylarda teshik qoladi. Katta ko`zda esa ingichka ipni yaxshi tutib bo`lmaydi. Buyumlarni biriktirib ko`klash uchun 1 va 3 tartibli ignalar ishlatish qulayroq.

Kashtani chambaraksiz tikishda, bir necha qavat gazlamaga igna sanchishda, buyumlar chetini buklab tikishda ignani gazlamadan o`tkazish uchun angishvona kerak bo`ladi. Angishvona- forsha angusht, ya'ni barmoq, vona, bona saqlovchi degan ma'noni bildiradi. Qo`lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa qo`yiladigan metall g`ilof. Angishvonaning usti va yoni ignani qadashda toyib ketmasligi uchun chuqurchalar qilib tayyorlanadi. Angishvona o`ng qo`lning o`rta barmog`iga taqiladi, uni barmoqning yo`g`onligiga qarab tanlanadi, lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo`lmasligi kerak. Naqshlar uchun o`tkir uchi 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Ishlash uchun uch xil uchi ingichka kichkina qaychi gazlamadagi ipni qirqish va tortib olib tashlash uchun; uchi qayrilgan o`rtacha kattalikdagi qaychi-kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi gazlama kalava iplarini qirqish uchun. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig`larining uchi to`la yopiladigan bo`lishi kerak.

Santimetrli lenta tikish ishlarida buyum o`lchamlarini aniqlash, gazlamaga bezakni rejalash, tikish ishlarini bajarishda foydalaniladi. Kashtachilikda yog`och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli- ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Kashta tikishda ilmoqli bigiz ayrim materiallarga, masalan, charm, kartonga ninani qiynalmay o`tkazish uchun,

oldin ilmoqsiz bigiz bilan teshib olinadi, so`ngra kashta tikiladi. Millimetrli qog`oz-naqshlar, ayniqsa geometrik, sanama naqshlar tuzish kerak bo`ladi.

Kashta gulni gazlamaga ko`chirishga tayyorlashda shaffof qog`oz ishlatiladi. Naqsh avval shaffof qog`ozga ko`chiriladi, keyin qog`ozdan gazlamaga ko`chiriladi. Kashta gulni gazlamaga ko`chirish uchun nusxa ko`chiradigan (kopirovka) qog`ozi ishlatiladi.

Kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar.

Naqsh- arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Kashtado`zlik san'atida har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaydigan naqshlari bo`ladi. O`zbek kashtalarida o`simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko`p bo`lsa, rus kashtachiligida geometrik, o`simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko`p tasvirlanadi, qozoq va qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi. Kashta gulini yaratishda naturaga qarab rasmni chizib oladi, keyin uni naqshga va turli naqshdor kompozitsiyaga aylantiriladi. Naqsh bilan amaliy san'at buyumlari bezatiladi, shuning uchun u buyumning ajralmas qismi bo`lib, o`sha buyumning shakliga, vazifasiga va qanday materialdan tikilishiga butunlay bog`liq bo`ladi. Rasmni naqshga aylantirishda uning (guli va hokazo) xarakterli belgilari tanlanadi. O`simlik, qush motivlarini aniq ko`rsatishga intilmay, faqat asosiy chiziqlarnigina bo`rttirib kontur qilib chiziladi.

Biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o`ylab ko`rish, bezakning undagi ayrim bo`laklarining buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko`proq ritmg-naqshdagi alohida elementlarga bog`liq bo`lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo`lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.


Kompozitsiya (mujassamot) - lotincha "Kompositio" so`zidan olingan bo`lib, to`qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g`oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq uyg`un hamda mutanosib joylashtirish degan ma'noni anglatadi. Ritm-naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi ma'lum bir masofada doimiy ravishda

bir tekisda takrorlanib kelishi bo`lib, naqshdagi harakatning uzluksiz va go`zal ko`rinishini ta'minlaydi. Simmetriya-grekcha so`zdan olingan bo`lib, o`lchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.

Bezakning simmetrik tuzilishi. Assimetriya-kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.

Stilizatsiya-tabiatdagi o`simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va uzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Naqshni tuzishda geometrik shakllar (uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolar) dan shuningdek, to`lqinsimon, siniq chiziqlar, spirallardan, o`simliklar (barglar, shoxlar, daraxtlar) dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan foydalanish mumkin. Naqshda geometrik shakllar bilan tabiatdagi o`simliklar qo`shilgan bo`ladi.

Kashta bezaklariga simmetrik, ya'ni asosiy chiziqlar, shakllar, ranglarning gorizontaal yoki vertikal simmetriya o`qiga nisbatan qonuniy joylanishi xarakterlidir. Gul bitta, shuningdek, ikkita yoki bir necha simmetriya o`qiga



nisbatan tuzilishi mumkin.

Bezakning summetrik tuzilishi


Kashtada gul ko`pincha yopiq yuzada, ya'ni qandaydir geometrik shakl bilan chegaralangan yuzada tuziladi. Bu kvadrat yoki to`g`ri to`rtburchak shaklidagi dasturxon, so`zana, palak, zardevor, kirpech, choyshab, belbog`, yostiqlik ustiga

yopiladigan jildi, dastro`mol va hokazolar bo`lishi mumkin. Buyum shakliga va kashtado`zning mo`ljaliga qarab kashta gulning shakli va joy o`zgarishi, masalan, dasturxon, dastro`mollarning burchaklariga yoki o`rtasiga kashta tikilishi mumkin. Burchakdagi kashta gullarining tuzilishi har xil bo`ladi. Bezakda bargli va gulli novdalar burchakdan chap va o`ng tomonga yo`nalgan. Hamma bezaklarda aytilgan o`simliklarga o`xshashlik saqlanib, gul va barglari yangi shaklga kiradi. Kashta uchun xalq orasida tarqalgan bezaklar va rassomlar yaratgan rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmlarning ba'zi qismlarini ixtiyoriy ravishda kompozitsiyalash ham mumkin, lekin tabiatni kuzatib, bezaklarni buyum yuzasiga joylashtirishni ham o`ylab topish yanada qiziqarliroqdir.

Naqsh turlari:

1. Islimiy naqshlar-egri chiziq elementlaridan tashkil topgan bo`lib, barglar, gullar, novda, jingala va boshqa naqshlar kiradi.
2. Geometrik naqshlar- to`rtburchak, aylana va boshqa shakllar.
3. Qush va hayvon tasvirlari.
4. Murakkab naqshlar, masalan, novdada qush tasviri.



Kashta tikishda ranglar tanlash

Kashta tikish rang bilan chambarchas bog`liq. Iplarni tanlashda ranglarning yo`g`onlashuvini, ular bir-biriga qanday ta'sir etishini bilish zarur. O`zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi. Tabiatda ranglarning bunday qo`shilishini ko`pincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan o`tishida ko`rish mumkin. Ko`zga ko`rinadigan spektr uzluksiz o`zgara boradigan qizil, to`q sariq, sariq, yashil, zangori, ko`k, binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan bo`ladi. Rang tusiga qarab bir rangni ikkinchisidan (yashilni ko`kdan, ko`kni zangoridan) farqlanadi. Ochiqlik-oq rangga yaqinlik darajasi. Sirti oq bo`lgan narsalar atrofimizdagi hamma narsalar ichida eng ko`p nur qaytaradigan bo`ladi. Shuning uchun oqqa yaqin (och pushti, och-sariq va boshqa) ranglar eng ochiq (eng yorqin) ranglar bo`ladi. Rangning to`qligini quyuklik darajasiga, eng ko`p rangdorligiga qarab belgilanadi. Masalan, ko`k rangni bundan ham ortiq ko`kartirib bo`lmasa, u to`q hisoblanadi. Rang tanlashda uning yana bir xususiyatini esda tutish kerak. Rang buyumning shaklini yoki katta kichikligini o`zgartirib ko`rsatishi mumkin. Agar qizil va ko`k dog`lar bilan qoplangan yuzaga qaralsa, bunda qizil dog`lar ko`k dog`larga nisbatan yaqinroq bo`lib, aldab ko`rinishi mumkin. Och va iliq ranglar to`q va sovuq ranglarga qaraganda yaqinroq ko`rinadi. Shuning uchun ranglar buyumlarni kattalashgandek, sovuq ranglar esa kichiklashgandek ko`rsatadi. Ranglarning bu xususiyatidan kiyimning ayrim bo`laklarini bo`rttiribroq, turtib turgan joylarini silliqroq qilib ko`rsatish uchun foydalansa bo`ladi. Uzoqdan ko`rinadigan buyumlar kashtasini to`q rangdagi iplar bilan tikiladi. Kashta tikish uchun iplarni tanlash, ular rangini xillash buyumning nimaga mo`ljallanganiga, gulning kattaligi va qanday joylanishiga bog`liq bo`ladi. Odatda, kashta guliga asosiy o`rin berilib, gazlama rangiga qo`shimcha o`rin beriladi. Shuning uchun gazlama rangi naqsh rangidan ochiq bo`lib ajralib turmasligi kerak. Kashta gulining rangini tanlashni bajarish sanama chok, tekis chok va hokazolarga ham bog`liq bo`ladi.

Gazlama va ip tanlash.

Kashta tikish uchun gazlama bilan ip buyumning nimaga mo'ljallanganiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Kashta tikiladigan materialga muvofiq rangdagi ip tanlash kashtado'zlikda katta ahamiyatga ega. Bu kashtado'zdan katta mahorat va did talab qiladi. Kashtada foydalaniladigan iplar rangining o'zaro muvofiqligi ham kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi. O'tmishda turli-tuman rangdagi matolarning kamligi sababli ko'pgina bezak kashtalari bugun mato sathini kashta bilan qoplab tikilgan. Hozirda so'zana, choyshab, zardevor kabi bezak buyumlari baxmal, shoyi, satin, shuningdek turli-tuman iplar ham ko'p. Bu kashtani jozibador chiqarishda rangdan keng foydalanish imkonini beradi. Kashtado'z kashta tikmoqchi bo'lgan kiyim shakliga, matosi rangiga qarab kashta nusxasini tanlashi kerak. Kashta iplari paxta tolasidan to'rt qavatli qilib, turli ranglarda tayyorlanadi, xira bo'ladi va 50 metrli kalava tarzida savdoga chiqariladi.

Mo'lina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. 12 qatli, maxsus ishlov berib sifati oshirilgan, chidamli bo'ladi. O'n yoki yigirma metrlik kalava tarzida chiqariladi. Ipak iplar-tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Pishitib-yigirilgan turli razmerdagi oq bo'yalgan bo'lib, kalava qilingan (40g li), g'altak va qog'oz patronlarga o'ralgan (50, 100, 200m uzunlikda) bo'ladi. 13-18-nomerli ipak iplar jun, zig'ir poyasidan, sun'iy tolalardan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar ip, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmalar bilan tikiladi. Naqshni gazlamaga ko'chirish.

Naqsh nusxasini har xil gazlamalarda har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiradigan qog'ozlar axta yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni gazlama ustidan ko'klab chiqiladi keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Hamma hollarda ham oldin bezakni originaldan shaffof yoki millimetrli qog'ozga uchi yaxshi ochilgan qalamda ko'chirib olinadi. Shundan keyin uni gazlamaga o'tkaziladi.

Bezakni (naqsh) nusxa ko'chiradigan (kopirovka) yordamida ko'chirish.

Gazlamani oldin dazmollab, tekis yuza (stol, taxta) ustiga yozib qo`yiladi, bunda gazlamaning asos va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga qarash kerak. Naqsh (tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan shaffof qog`ozni gazlama ustiga qo`yib, to`g`nog`ich bilan qadab qo`yiladi. Nusxa ko`chiradigan qog`ozini to`q tomonini gazlamaga qaratib shaffof qog`oz tagiga qo`yiladi, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi. Turli rangdagi nusxa ko`chiradigan qog`ozlar bo`lgani ma'qul, shunda och rangdagi gazlamaga to`q rangli (qora, ko`k, yashil), to`q rangli gazlamaga och rangli (oq, sariq) nusxa ko`chiradigan qog`oz ishlatiladi. Bezakni ko`chirib bo`lingach nusxa kopirovka) qog`ozi olinib, bir tomondagi to`g`nog`ichlar chiqariladi va bezagi tekshiriladi. Shundan keyingina shaffof qog`oz olib tashlanadi. Naqshni nusxa ko`chiradigan qog`oz bilan ko`chirishda bezakning chiziqlari qalin bo`lmasligini yodda tutish kerak, aks holda kashta tikayotganda gazlama va ip kir bo`lib qoladi. Shuning uchun ishlatiladigan kopirovka qog`ozidan foydalanish yaxshiroq, yangisini esa ishlatishdan oldin quruq paxta yoki latta bilan artish kerak.

Bezakni yoruqqa tutib ko`chirish

Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulni gazlama tagidan yoritish yo`li bilan ko`chirish mumkin. Tagiga lampa qo`yilgan oyna ustiga yaxshi ko`rinadigan kashta gulni qo`yib, uning ustiga yaxshi tortilgan chambarakka (kergiga) o`rnatilgan gazlama qo`yiladi. Gazlama tagida ko`rinib turgan kashta gulni uchi yaxshi ochilgan qalam bilan gazlamaga chizib olinadi.

Bezakni shaffof qog`oz yordamida ko`chirish

Movut baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulni shaffof qog`oz ustidan ko`klash yo`li bilan ko`chiriladi. Buning uchun bezakni shaffof qog`ozga ko`chirib olib, uni gazlama ustiga qo`yiladigan, butun chizig`i bo`ylab mayda zich qaviqlar bilan ninani oldinga yo`naltirib tikib chiqiladi. Keyin qog`oz yirtib tashlanadi.

Bezakni axta (andaza) yordamida ko`chirish. Axta naqsh yoki biror rasmni shaffof qog`ozga chizib, chiziq yo`llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andoza.

Axtani tayyorlash uchun shaffof qog'ozga naqsh kompozitsiyaga moslab simmetriya o'qi bo'yicha qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokazo buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi.

Naqshli shaffof qog'ozni yumshoq gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog'ozini ustiga qo'yib, naqsh chiziqlari ustidan 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib chiqiladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bo'lingandan keyin, shaffof qog'oz yopib yuboriladi, natijada axta hosil bo'ladi. Tayyor bo'lgan axtani ish yuzasiga qo'yib, ustidan xoka urib va bosib yurgazib chiqiladi. Geometrik shakldagi bezakni teshma ko'chirishda uning kataklari vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi.

Shu maqsadda hech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin. Teshib ko'chirishda kashta gulning gazlamasidagi tasviri aniqroq, buzilmay chiqadi, bu ayniqsa kashta gulning bitta bo'lagini bir necha marta tikish kerak bo'lganda, mehnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Andozalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu axtalar (andoza) alohida paketda saqlangani tuzuk. Naqsh chizilgan gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumaloq chambarakka tortish qiyin bo'lsa, bu gazlama parchasining chetlariga ish tugagandan keyin so'kib tashlanadigan, xohlagan boshqa gazlama parchasini ulab qo'yish mumkin.

Matoda gullarning o'rni-o'rmini topib qo'yish, xususan buyumlardagi gullarni joylashtirib chizish g'oyatda murakkab va mas'uliyat talab ishdir. Kashtado'zlik san'atida nusxachi va chizmakash hunari ustalarining o'rni beqiyos. Chevar har qancha mohir bo'lmasin, naqshlarni nusxachi, chizmakashlar asosan atroflicha o'ylab ko'rib, o'z kasb-hunarlarining an'analari va spetsifik xususiyatlari asosida chizib beradilar.

Kashtado'zning ish o'rni

Kashta tikish qulay bo'lishi, charchatmasligi uchun, ish o'rni to'g'ri tashkil etish, mehnat qilishning muayyan qoidalariga rioya etish kerak.

Asbob va moslamalar qo'yiladigan stol ustidagi ishga yorug'lik chap tomondan tushadigan holatda turishi kerak. Agar stolda yashikcha bo'lsa, unda ip maxsus xaltada, asboblarni qutichada, kashta gulli shaffof qog'ozini paketda saqlanishi kerak;

-gavda holatiga ahamiyat berib, bukchaymay, boshni juda past egmasdan o`tirish kerak;

-ish vaqtida gavda biroz oldinga engashgan bo`lishi, ko`z bilan ish o`rtasidagi oraliq 25-30 sm dan oshmasligi lozim.

Shu maqsadda ba'zi chambarakni tagiga taxtacha, kitob va hokazolarni qo`yib balandroq o`rnatiladi;

-stulni suyanchig`iga suyanish mumkin bo`ladigan qilib, stolga yaqinroq surib qo`yiladi;

-ish vaqtida qo`lni to`g`ri qo`yish katta ahamiyatga ega;

-chap qo`l chambarak tagida bo`lib, o`ng qo`l chambarak ustida bo`lishi kerak.

Siyrak gazlamaga va to`rga baxyasimon suv chokli kashta tikishda o`ng qo`lda ignani uning uch tomoni bilan kashtaning teskari tomonidan o`tkaziladi. Ignaning uchli tomonini chap qo`lda tutib, uning ko`z tomoni bilan kashtaning o`ng tomoniga chiqariladi. O`ng qo`l bilan ip tortib qo`yiladi. Zich gazlamalarga kashta tikishda, kashtaning o`ngiga ignani uning ustki tomoni bilan chiqariladi.

Kashtado`zlikda xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyena qoidalari.

1. Ish o`rniga yorug`lik old yoki chap tomonidan tushishi;
2. Kashta tikayotganda to`g`ri va boshni sal oldinga egib o`tirish;
3. Kashta tikishdan oldin, ish o`rnini ko`rib, ortiqcha narsalar bo`lsa yig`ishtirib so`ngra tikishni boshlash;
4. Tikish tugagach, ya'ni hamma asboblarni joy-joyiga qo`yish;
5. Kashta tikayotganda nina, to`g`nog`ich, qaychi va angishvona bilan ishlaganda ehtiyot bo`lishi kerak.
6. Qaychining og`zi ochiq qolmasligi, biror kishiga uzatganda uning uchidan ushlab uzatish lozim.
7. Ninani og`ziga olib borish, ko`ylakka qadab qo`yish, har yerga tashlash, ipsiz qoldirish eng yomon odat. Ninani biroz ipi bilan nina qadag`ichga qadab qo`yish kerak.


Kashta tikish texnologiyasi

Qo`lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o`rim iplarini sanab kashta tikish; ikkinchisi esa matoga naqsh-gul, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq va o`rish iplari kesishtirib to`qilgan mato polotno, bo`z shaklida to`qilgan matoga tikiladi. Chunki bunday mato ishlarini sanab tikish qulay. Bunday kashta gullari geometrik shakllar, uzun-qisqa to`g`ri chiziqlardan iborat. O`zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan. Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti (konturi) oldin tikib chiqilib, keyin ichi to`ldiriladi. Kashta tikayotganda popop mashinasidan murakkab kashtalar yo`llarini, gullarning o`zaklarini, gul atroflarini tikishda foydalaniladi. Oqlanganda bosma chokida igna bilan buyumning yuza qismida ish bajariladi. Unda ipning uchi bog`lanib matoning tagidan ustiga igna sanchilib ip tortiladi, tugun kashtaning orqa tomonida qoladi. Ip tugagach yana shunday qilinadi. Bu ish kandaxayol, do`ro`ya, xamdo`zi, ilmoq choklarida ham amalga oshiriladi. Kashta tikilayotgan buyum tizza ustiga erkin tashlab qo`yilib tikiladi. Yirik buyumlar (so`zana, takiyapo`sh, gulko`rpa, choyshab, palak va boshqalar) kompozitsiya va naqsh chizilgach bir necha paxtaga ajratilib, kashtado`zlik qilingach, qaytib birlashtirib tikiladi. Bunda har bir bo`lak boshqa-boshqa chevar tomonidan tikilishi mumkin, ammo ip-ranglar, uslub chizmada belgilab olinadi va umumiy ranglar gammasi saqlangan bo`ladi.


Kashtachilikda quyidagi chok turlari ishlatiladi.

Qaytma chok .Bu chok bir xil yiriklikdagi qavariqlarning uzluksiz qatoridan iborat bo`ladi. Ignani o`ngdan chapga yuritib, birinchi qaviq bilan shu qaviq yirikligidagi oraliq hosil bo`ladi. Ikkinchi qaviqni tushirish uchun ip chapdan o`ngga yotqizib birinchi qaviq tutashgan joyidagi nuqtaga igna sanchiladi-da, qaviq yirikligida o`ngiga chiqariladi. Uchinchi va undan keyingi qaviqlarni tushirishda, ularning o`zidan oldingi qaviq tugagan joyga igna sanchiladi. Qaytma chokni qaviqlar orasida ochiq joy qoldirib tiksa ham bo`ladi.

Suv chok . bir-biriga zich joylashgan qator qiya qaviqlarlardan iborat bo`ladi. Bu chokni chapdan o`ngga tomon yoki o`zidan oldinga qaratib yo`naltirib tikish mumkin. Suv chokni tikayotganda ip doimo bir tomonda – chapda yoki o`ngda bo`lishi kerak. Tikayotganda ip yo`nalishini o`zgartirib bo`lmaydi, chunki chokning strukturasi buzilib qoladi.



Iroqsimon chok. Gazlamadan sug`urib chiqariladigan ikkita ip izi bo`ylab yoki ixtiyoriy konturli kashta gulining motividan tikiladi. Bunda kashta gulining goh u, goh bu tomoniga navbatma-navbat igna sanchib, qaviqlar chapdan o`ngga tomon joylashtirib boriladi. Gazlamaga igna sanchilgan joylar oralig`i bir xil bo`lishi kerak. Y`olning o`rtasi bo`ylab qaviqlar chalishib boradi, har bir yangi qaviq oldingi qaviq ustiga tushadi.




Yo`rma chok . ba`zan ziy chok ham deyiladi, chunki burchak bilan gazlamaning chetlari tikilad. Gazlamani teskari tomoniga 3-4 sm bukib, gazlama rangidagi ip


bilan ko`klab chiqiladi. Petlya chok qaviqlari chapdan o`ngga tomon gazlama ziyaga perpendikulyar joylashtirib tikiladi. Bu choklar gardishsiz tikiladi. Chok qaviqlarining yirikligi bir xil bo`lishi kerak.

Popop chok-chok bir-birining ichidan chiqib keladigan uzluksiz qator petlyalardan iborat bo`ladi. Bu chokni gardishda va gardishsiz tikish mumkin. Ikkala holda ham ignani o`zi tomon yuritib qaviq tushiriladi. Kashtani gardishsiz tikayotganda gazlama tortilibqolmasligini, chok petlyalari yumaloq shaklda bo`lishini kuzatib borish kerak. Popop chokni siniq chiziq tarzida tikish ham mumkin. Bunday chok o`rta chizig`idan navbatma-navbat bir chapga, bir o`ngga joylashgan bo`ladi.

Kuppa choki turli yo`nalishda, ya'ni chapdan o`ngga, o`ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg`a tikib hosil qilinadi. Bunda yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib borishi mumkin. Bu chok sanama, do`ro`ya, piltado`zi nomlari bilan ataladi. Turli-tuman kashtalarda, do`ppido`zlikda keng foydalaniladi. "Ignani oldinga yo`naltirib" sanchiladigan chokni tikishda gazlama ipidan 2-3 tasi igna uchiga terib olinib, o`ngdan chapga tomon tikiladi. Undan kashta guli chiziqlarini aylantirib tikishda va gazlama yuzasini to`ldirib badiiy kashtalar tikishda foydalaniladi.




Chinda xayol-do`ro`ya choki, matoga igna qadalib bir me'yorida tikib chiqiladi. Teskari o`girib ya'na tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul hosil qilinadi. Bu chok bilan ikki tomoni ham ko`zga tashlanadigan buyumlar, yani sochiq, ro`mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi. Hamdo`zi choki ikki yoqlama tekis tikiladigan bo`lib, ip tik yoki sal qiyaroq qilib tikiladi. Xom ipak bilan tikilganidan shu nom bilan atalgan. Do`ppi gullarida belboqqa nozik geometrik naqshlar tikish va shu kabilarda bu chokdan ko`p foydalaniladi. Farg`ona vodiysida, Samarqandda keng tarqalgan .



Kanda xayol chokida ip to`shama tik yoki yotiq bo`ladi. Bu chokning ikki xili mavjud. Bir xilida to`shama ip ustidan chatiladigan chok qiyalatib ustma-ust tushadi, kashta tayyor bo`lganda novdadan to`qilgan savatga o`xshab ko`rinadi .Ikkinchi xilida kashtado`z birinchi qatorni oldingi kashta xili tarzida tikib chiqqach, ikkinchi qatorni tikayotganda oldingi qator ostki qismidan o`tkazib tikiladi, shunday qilib, choklar to`shami ip ustiga diogonal yo`nalishdagi ilon izi chiziqlar hosil qilib tushadi. Ilma chokining ikki turi mavjud: ilma bir taraflama, ilma ikki taraflama. Ilma bir taraflama choki gorizontal yo`nalishida chapdan o`ngga yoki yuqoridan pastga tomon tikiladi. Ip o`tkazilgan igna avval o`ng tarafdin, ipni chap qo`l bosh barmog`i bilan ushlab turib, igna yuqori tomondan pastga tikkasiga sanchiladi. Igna sug`urib olinayotgan paytda ip qo`yib yuboriladi, bunda ip igna ostida qolishi lozim. Shu tarzda halqa hosil bo`ladi.

Aylnasimon tikish ham mumkin. Ilma ikki taraflima chokining ikki xil bajarish usulibor:



1 usul. Bir tomoni chapdan o`nga halqa qilib tikib chiqilgach, keyin kashtani o`g`irib qolgan tomoni ham shu tarzda tikib chiqiladi.

2 usul. Ip o`tkazilgan igna gazlamaning o`ng tomonidan qadab, yotiq chiziq bo`ylab chap tomondan sug`urib olinadi. Chap qo`l bosh barmog`i bilan ilib orqaga surilgan ip igna ostida qolishi kerak.

Shu tarzda bir yoqlama halqa hosil bo`ladi, so`ngra o`ng tomondan yana igna qadab, chapdan yotiq holatda sug`urib olinadi. Lekin bu ikkinchi va undan keyin o`ng tomonga uriladigan ignalarni salqiroq tutuvchi vertikal ipdan yuqoriga avvalgi halqa chokning ichkarisiga qadaladi, shu tarzda o`ng tomon halqasi hosil bo`ladi.

Ilma choklari, odatda bosma choki bilan tikilgan kashtalarni hoshiyalashda ishlatiladi.

Iroqi choki ikki xil bo`lib, kashta butun va yarim xechlar tizmasidan tashkil topadi. Chokning ikki turi mavjud: ular terma iroqi va iroqi deb ataladi. Terma iroqi bir-biri bilan ko`ndalang kesishadigan qiya chiziqlardan iborat bo`lib, kashtado`zlar odatda bu chokni pastdan yuqoriga qarata tikadilar.

Terma iroqning ham ikki xili mavjud:

1. Sanama iroqi. Bu chokda ishlatiladigan to`r (kanva)ga yoki arqoq va o`rshidan ip tortib olinib, to`r shakliga keltirilgan matoga kesma chiziqlar sanab gul tikiladi.
2. Chizma iroqi xili esa matoga qadam bilan chizilgan naqsh-gul ustidan tikiladi. Iroqining boshqa turida esa mato ustiga ip to`shalib, u mayda choklar bilan bir tekisda kesib chiqiladi, keyin uning yoniga yana ip to`shalib, shu tarzda kesib tikib chiqiladi.

9- Mavzu: Yumshoq o`yinchoqlar tayyorlash

Reja:

1. Yumshoq o`yinchoqlar haqida ma`lumot.
2. Yumshoq o`yinchoqlarni bichib, tikish haqida tushuncha.

Mavzuga oid tushunchalar

Hozirgi paytda yumshoq o`yinchoqlarda bo`lgan talab. maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, boshlang`ich sinf o`qituvchilarining ishlarini yengillashtirish.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishish munosabati bilan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish tizimida ham ayrim yangiliklar sodir bo'ldi. Bu esa o`z navbatida ayrim qo`shimcha vositalaridan foydalanish lozimligini taqazo etmoqda. Hozirgi paytda yumshoq o`yinchoqlarda bo`lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shunga ko`ra biz maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari, boshlang`ich sinf o`qituvchilarining ishlarini yengillashtirish maqsadida asosan qo`g`irchoq teatri to`garaklarida qo`llanib kelayotgan o`yinchoqlar namunasini e`tiboringizga havola etishni lozim topdik. Bu o`yinchoqlar tarkibiga, bezaklariga sharoitidan kelib chiqib va mahoringizga ko`ra ayrim o`zgarishlar kiritishingiz mumkin. O`yinchoqlarni berilgan katakchalar yordamida 2,3,4 va bir necha marta kattalashtirish andazani unga ko`ra tayyorlash qulaydir. Tikish usullarini esa yaxshi bilasiz. Har bir o`yinchoqning qismlari bir-birga tikilgach, ichki qismlarini tashqariga ag`darishini unutmang. lining ichiga esa gazlama bo`laklari, qiyqimlar, paxta tiqilishi mumkin.

Ayrim o'yinchoqlarning old va orqa oyoqlari mahkam turishi uchun simdan karkao sifatida foydalaniladi. Ko'z, shoxchalarni yog'ochdan ham tayyorlash mumkin. Istalgan gazlama bo'lagini oling va dazmollang .Kartondan tayyorlangan aylana Andazasini matoning teskari tomoniga qoyib ,bir tekisda cheti bo'lab qalam bilan chizib chiqing.Gazlamada aylananing chizmasi hosil bo'ladi.Uni qirqib oling.To'g'ri qavariq shok bilan aylana chetlarini tikib chiqing.

Tikish boshlangan joyga yetib kelingach ,ipni sekinlik bilan torting va gazlamani qatlab yig'ing .Hosil bo'lgan xaltachaning ichini paxta bilan to'ldiring.Paxtaning o'rniga sintefon ,gazlamaning mayda bo'laklari,turli to'quvchilik iplaridan ham foydalanishingiz mumkin.Agar uning g'ijimlangan sellofan paketi solsangiz ,o'ynash davomida shitillagan ovoz chiqadi.Xaltachani zichlab yoki bo'shroq qoldirib to'ldirishingiz mumkin.Shunga qarab yasalgan o'yinchoqning xususiyatlari o'zgaradi.Xaltacha ichi to'latilganidan so'ng ipni oxirigacha torting va chok sitilib ketmasligi uchun choklash yakunlangan qismga mahkamlab tikib qo'ying.

Koptokning tepa qismidagi burmalarni qiyiq chok yordamida qopcha ichiga buklab tikib qo'ying. Shu tartibda ko'z va tumshuqlarni ham yasab oling.Ish barcha qismlarni o'zaro birlashtirib chiqish bilan nihoyalanadi.Mazkur Ijod namunasi uchun qo'shimcha bezaklarni o'z didingiz ,xohishingiz va o'yinchoqqa qo'shimcha bezaklarni o'z didingiz va o'yinchoqqa qo'shimchalar kiritishingiz mumkin.

Bezakli o'yinchoq yostiq tikish.

Andazani qog'ozga chizib oling .Tayyorlangan matoning o'ngini ichkari tomonga ikkiga buklang . Buklangan matoga andazani qo'ying va qalam bilan chizib oling. Chiziq bo'ylab qaychi bilan qirqing. Sizda qirqilgan ikkita tana qismi hosil bo'ldi. Ularni biriga ko'z va burun belgilab ,tikib chiqing.

Ikkala tana qismini ag'darib ularning chetlarini birlashtirib tikib chiqiladi. Bunda ma'lum bir joyni tikmasdan ochiq qoldirishni unutmaslik kerak.

Yaxlit tana qismi tayyor bo'lgandan so'ng ochiq qoldirilgan joydan matoni o'ngiga ag'dariladi .Tana ichiga paxta solinadi .Ochiq joyni tikib qo'yiladi.

Porolon va ipdan yumshoq o'rinchoqlar o'yinchoqlar yasash

Porolon bulagidan to'g'ri to'rtburchak shakli tayyorlanadi. Unga baliq shakli qismlarini chizib va qirib oling. Baliqning qismlarini ketma –ketlikda joylashtirib chiqiladi.

10- mavzu O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi.

Reja:

- 1.To'qish haqida ma'lumot
- 2.Spitsa bilan to'qish usullari
- 3.Ilmoq bilan to'qish usullari

Mavzuga oid tushunchalar:To'qish,kegay,ilmoq ,jun ip,ilmoq.halqa,zanjir chok.

To'qish avvalo kishilar hayotida zaruriyat tufayli kishilar hayotida zaruriyat tufayli paydo bo'lgan .Qadimda ular turmushda o'zlariga kerakli bo'lgan narsalarni oddiy materiallardan foydalanib tayyorlaganlar.To'qish yillar davomida rivojlanib borib,haqiqiy san'at darajasiga ko'tarildi.To'qilgan buyumlar issiq ,pishiq va chidamlidir.Siz ham biroz mehnat ,chidam bilan ip va ilgak yordamida chiroyli buyumlar to'qib ,yaqin kishilaringizni hursand qilishingiz mumkin.

Buyumlarni qo'lda to'qish uchun kegay yoki ilgak kerak bo'ladi. Buyumlarni asosan jun ip ,jun aralashgan ip, ipak ip,paxta ip,quyon va echki tivitidan yigirilgan hamda xom iplardan to'qish mumkin.Kiyim –kechaklar bo'sh lpdan ,dasturxon ,salfetka,yoqa,sumka, yopinchiq kabi buyumlar esa pishiq ipdan to'qiladi.

Kegay yordamida to'qish

Buyumto'qish uchun har ikkala tomoni uchli bo'lgan to'g'ri kegaylar va halqasimon egilgan diametri har xil bo'lgan kegaylarda to'qiladi. Kegayda to'qishda asosan jun ip ishlatiladi. Halqa to'qish uchun ikkita kegay olinadi.

Ularni juflashtirib ushlagan holda uchini ip tagiga kiritib ko'rsatkich barmoq ustida turgan ipni ilib olish va bosh baqmoqdagi halqa orqali tortib chiqarish kerak. Keyin bosh barmoqni halqadan xalos qilib ipni tortish lozim.

Navbatdagi halqalarni to'qishda shu harakat ketma –ket takrorlanadi. Natijada to'qiladigan buyumning dastlabki qatori hosil bo'ladi.

Dastlabki qatorni to'qib bo'lgandan so'ng ishni davom ettirish uchun bitta kegayni asta sug'urib olamiz .

To'qilgan qatorimiz ikkinchi kegayda qoladi.

O'ng va ters ilmoqlar to'qish

Ong va ters ilmoqlar kegayda to'qishning asosiy elementlari hisoblanadi. O'ng ilmoq polotnning orqa tomonida ters ilmoq bo'lib ,ters ilmoq esa o'ng bo'lib ko'rinadi .o'ng ilmoqlarni to'qishda ip har doim ishning orqa tomonida loylashadi .O'ng kegayni o'zingizga nisbatan chapdan o'ngga –chap kegaydagi ilmoqqa kirgizib ipni tortib olamiz .Natijada o'ng kegayda yangi ilmoq hoil bo'ladi. Chap kegayda qolgan ilmoqni tushurib yuboramiz.

Ushbu usuldan foydalanib ,rasmda ko'rsatilganiga qarab sharf to'qib olish mumkin.

Ilgakda to'qish

Ilgak qadimiy to'qish asboblardan hisoblanadi. Ilgak bilan to'qish azaldan rivojlanib kelgan hunarlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ham bu hunar bilan ko'p ayollarimiz shug'ullanib keladi. Ilgaklar metallardan ,yog'ochdan ,plastmassadan tayyorlanadi. Ular uzunligi va qalinligiga qarab har xil

bo'ladi. Ko'pincha metall va plastmassadan yoki bandi yog'ochdan tayyorlangan ilgakdan qalin , yumshoq va elastik qalin ,yumshoq va elastik iplardan buyumlar to'qishda foydalaniladi.

Ilgaklarning turlari ko'p .Ilgaklarning eng yaxshisi suyakdan yasalgan ilgaklar. Ular mahkam va silliq bo'ladi. Qalin ip va mato uchun yog'ochdan yasalgan ilgaklar ishlatiladi. Ipak to'r to'qishda foydalaniladigan ingichka iplar uchun po'latdan qilingan ilgaklar ishlatiladi.

Ilgakda to'qish usullari

Ilgak o'ng qo'lingizda ,ip esa chap qo'lingizda bo'lsin .Ilgakni ruchka yoki qalamni ushlagandek ushlang .Ilgkning uchi tepaga ham ,pastga ham emas ,o'zingizga qaratilgan bo'lishi kerak .Ipni esa rasmda ko'rsatilgandek ko'rsatikich barmog'ingizga ilib ,katta barmog'ingiz bilan kalta bo'g'ini ,yon barmog'ingiz bilan esa ipni ushlab turing .Ilgakni o'ng qo'l bilan ,ipni esa chap qo'lning bosh va o'rta barmoqlari bilan ushlan ushlang . Keyin ipn ilgak bilan ilib olib ,sirtmoq hosil qilish uchun ilgakni o'rab ,halqa hosil qiladi.

Havo halqasi to'qish

Asosiy halqamizni katta barmog'imiz bilan bosib turib ,ipni ilib olsak ,havo halqasi hosil bo'ladi. So'ng yana ilgakni ko'rsatkich barmog'ingiz tagidagi ipga tiqib ,bu ipni ilib olib 'uni ilgakdagi haiqa ichidan tortib chiqaring.

Bu ilgak to'qishning asosiy harakatlari hisoblanadi . Ish jarayonida ipning uzun bo'lagini kichkina barmog'ingiz bilan ushlab turishni unutmang .Boshlang'ich halgani ipning kalta tomonidan tortib mahkamlab qo'yish kerak.

Ishni stolga qo'ying .Ilgak yordamida ipni oxifgi halqadan chiqarib oling.

To'qilmaning ikkala uchidagi iplarni qaychi yordamida qirqing.

Ipni zanjirsimon ko'rinishda to'qib oling . Zanjirsimon to'qilgan ipning oxirgi teshigiga ilgakni tiqing .Ilgak bilan ipni ilib oling .Ipni zanjir va ilmoq ustidan torting .Natijada ,yarim ustun hosil bo'ladi.

Zanjir chokidan kompozitsiya yasash

O'z qollaringiz bilan to'qigan zanjirsimon iplaringizdan foydalanib, applikasiya usulida turli-tuman naqshlar hosil qiling.

Ipdan o'yinchoq yasash

Ipdan yumshoq sharcha yasash mumkin .Bunday sharga popukli telpak ham deyiladi. Uni yasash uchun ikkita kartondan andaza tayyorlab oling.

Ikkala andazani juftlang. Qalin ip olib ,ularni to'liq qoplangunga qadar bir necha qatlamda o'rab chiqing .Andazalarning qo'shilish joyidan ipni qirqing .Andazalarni asta suring ,lekin olib tashlamang .Ularning orasidagi iplarni bog'lagandan keyingina olishiniz mumkin. Ipni popukli telpak hosil bo'lguncha to'g'rilang . Hosil bo'lgan shakldan har xil narsalar yasashingiz mumkin.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari:

- 1-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi
- 2-mavzu. Teatr - saxnalashtirish faoliyatining shakllari.
- 3-mavzu. Teatr - saxnalashtirish faoliyati prinsiplari
- 4-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining ahamiyati.
- 5-mavzu. Turli yosh guruxlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari
- 6-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida
- 7-mavzu. Saxnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish
- 8-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari
- 9-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari
- 10-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish
- 11-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi mazmuni
- 12-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi usullari
- 13-mavzu. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi.
- 14-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati.
- 15-mavzu. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarni qo'g'irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni
- 16-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrini tashkil etish va qo'g'irchoq yasash usullari.
- 17-mavzu. Qo'g'irchoq teatri turlari.
- 18-mavzu. Stol teatr.
- 19-mavzu. Soya teatri.
- 20-mavzu. Barmoq teatri.
- 21-mavzu. Qo'g'irchoq – qo'lqop.
- 22-mavzu. Ijodiy faoliyat turlari.
- 23-mavzu. Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda Ijodiy faoliyatning ahamiyati.
- 24-mavzu. Tasviriy faoliyatga o'rgatishning maqsadi.
- 25-mavzu. Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.
- 26-mavzu. Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.
- 27-mavzu. Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.
- 28-mavzu. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash.
- 29-mavzu. Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash.
- 30-mavzu. Qo'g'irchoq – qo'lqop.
- 31-mavzu. Tabiiy buyumlar ishlash usullari.
- 32-mavzu. Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash
- 33-mavzu. Kashta turlari.

- 34-mavzu. Bezakli va mazmunli kashtalar.
- 35-mavzu. Applikatsiya – amaliy san’at turi sifatida. MTMda applikatsiya turlari.
- 36-mavzu. Applikatsiyaga o‘rgatishning vazifalari.
- 37-mavzu. MTMning turli yosh guruxlarida applikatsiyaga o‘rgatish metodlari.
- 38-mavzu. Ilmoq bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari
- 39-mavzu. Spitsa bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari.
- 40-mavzu. Chinni xamirni tayyorlash usullari.
- 41-mavzu. Chinni xamirdan tirli o‘yinchoqlar tayyorlash usullari.

Seminar ishlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

- 1-mavzu. Maktabgacha ta’lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi
 - 2-mavzu. Teatr - saxnalashtirish faoliyatining shakllari.
 - 3-mavzu. Teatr - saxnalashtirish faoliyati prinsiplari
 - 4-mavz Maktabgacha ta’lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining axamiyati.
 - 5-mavzu. Turli yosh guruxlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari
 - 6-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida
 - 7-mavzu. Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning axamiyati..
 - 8-mavzu. O‘rigami san’atining kelib chiqish tarixi..
 - 9-mavzu. Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha.
 - 10-mavzu. Maktabgacha ta’lim muassasasida qo‘g‘irchoq teatri va jihozlarini yasash.
-

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari

Bakalavr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o`quv qo`llanmalar boyicha fan boblari va mavzularini o`rganish;
- tarqatma materiallar bo`yicha ma`ruzalar qismini o`zlashtirish;
- nazariy material boyicamisolva masala yechish,
- avtomatlashtirilgan o`rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo`yicha fan bo`limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- masofaviy ta'lim.

Bakalavrga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo`yicha egallanishi kerak bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko`rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko`riladi, test yoki savol-javob o`tkaziladi. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar yechimi ko`rsatiladi va o`xshash misollar yordamida tekshiriladi.

1-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi

2-mavzu. Teatr - saxnalashtirish faoliyatining shakllari.

3-mavzu. Teatr - saxnalashtirish faoliyati prinsiplari

4-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining axamiyati.

5-mavzu. Turli yosh guruxlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari

6-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida

7-mavzu. Saxnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish

8-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari

9-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari

10-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish

11-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi mazmuni

12-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi usullari

13-mavzu. Qo`g`irchoq teatrining paydo bo`lish tarixi.

14-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo`g`irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati.

15-mavzu. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarni qo`g`irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni

16-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo`g`irchoq teatrini tashkil etish va qo`g`irchoq yasash usullari.

17-mavzu. Qo`g`irchoq teatri turlari.

18-mavzu. Stol teatr.

19-mavzu. Soya teatri.

20-mavzu. Barmoq teatri.

21-mavzu. Qo`g`irchoq – qo`lqop.

- 22-mavzu. Ijodiy faoliyat turlari.
 - 23-mavzu. Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda Ijodiy faoliyatning ahamiyati.
 - 24-mavzu. Tasviriy faoliyatga o'rgatishning maqsadi.
 - 25-mavzu. Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.
 - 26-mavzu. Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.
 - 27-mavzu. Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.
 - 28-mavzu. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash.
 - 29-mavzu. Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash.
 - 30-mavzu. Qo'g'irchoq – qo'lqop.
 - 31-mavzu. Tabiiy buyumlar ishlash usullari.
 - 32-mavzu. Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash
 - 33-mavzu. Kashta turlari.
 - 34-mavzu. Bezakli va mazmunli kashtalar.
 - 35-mavzu. Applikatsiya – amaliy san'at turi sifatida. MTMda applikatsiya turlari.
 - 36-mavzu. Applikatsiyaga o'rgatishning vazifalari.
 - 37-mavzu. MTMning turli yosh guruxlarida applikatsiyaga o'rgatish metodlari.
 - 38-mavzu. Ilmoq bilan o'yinchoqlar to'qish usullari
 - 39-mavzu. Spitsa bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.
 - 40-mavzu. Chinni xamirni tayyorlash usullari.
 - 41-mavzu. Chinni xamirdan tirli o'yinchoqlar tayyorlash usullari.
-

GLOSSARIYLAR

ESTETIK TARBIYA - voqelikni badiiy idrok qila olishni rivojlantirish, san'at asarlariga barqaror qiziqishini tarbiyalash, voqealar va badiiy obrazlarning hayotiy bog`liqligini tushunishga, san'at asarlarini tur va janrlarini ajratishga o`rgatish, badiiy va ijodiy qobiliyatlarini o`stirish, badiiy faoliyatning turlariga qiziqishni, unda faol qatnashishni tarbiyalash, ijtimoiy voqealarga nisbatan o`zining munosabatini bildirish, malakasini shakllantirish.

estetik tarbiya - go'zallikni xis qilish, atrof-muxitdan go'zallikni payqay olish va tushunishga bo'lgan qobiliyatni tarbiyalash.

extiyoj - individning biror narsa-xodisaga muxtojligi va kishining ruxiy quvvati xamda faolligi manbai xisoblanadigan asosiy xususiyati.

extimollik - tasodifiylik, pedagogik xayotdagi o'zgarishlarni aniq aytib berish mumkin bo'lmagan, extimol kutilgan jarayon.

Uyin faoliyatnini bir turi bo'lib, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va bunyod etishga, o'z xatti-xarakatlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

Avtoritar – lotincha “autos” – o‘zim degan ma'noni anglatadi. munosabatlarni yoki hokimiyatni boshqarish usuli. avtoritar boshqaruvda siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsni yoki yetakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi.

axloq - shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biri.

biografik metod – odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

boshqarish – tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, ob'ektni o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

breynstorming – aqliy xujum – baxslarni tashkil etishda qo'llaniladigan interfaol usuldir.

bosqichlar – muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

verbal – og'zaki ifodalangan nutq.

genotip – ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmui.

gnostik – butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

davlat ta'lim standarti – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

demokratik – yunoncha “demos” – xalq va “kratiya” – hokimiyat ma'nolarini anglatadi. munosabatlarni yoki jamoani boshqarish uslubi. bunda boshqaruvchi boshqariluvchi tomon fikrini hurmat qiladi va inobatga oladi. muammolar hamjihatlikda hal etiladi.

didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi.

dunyoqarash – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi.

dialog – ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro og'zaki gaplashishi.

dominant shaxs – boshqalar bilan muomala va munosabat o'rnatishda o'z fikrini o'tkazish xislatining yorqin namoyon bo'lishi.

izohlash, tushuntirish – og'zaki izoh, yoritilishi lozim bo'lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

yosh psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

yosh davri nizolari – o'ziga xos, uncha uzoqqa cho'zilmaydigan ontogenez davrlari bo'lib, bu vaqtda keskin psixik o'zgarishlar yuz beradi.

jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga ms keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

jamoaning negizi – umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

yo'nalish – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat'i nazar ma'lum yo'lga yo'naltiruvchi barqaror motivlar yig'indisi.

individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o'ziga xosligi, qaytarilmasligi.

istedod – shaxsning ma'lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayoni.

ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta'sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

interfaol – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta'sir ko'rsatish jarayoni.

kasb – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub'ektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmui.

kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog'liq ravishda tekshirish, o'rganish, ma'lumotlar to'plash metodi.

kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda ma'lumot, axborot, g'oyalar almashinuvi jarayoni.

kichik guruh – a'zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo'luvchi kishilar guruhi.

ko'nikma – odamening ma'lum ishni bajarishga tayyorligida ko'rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

liberal – lotincha “liberalis” – hur fikrli, erkin shaxs, murosaso'z ma'nolarini anglatadi. Munosabatlarni yoki hokimiyatni boshqarish uslubi.

ma'ruza – odatda oliy o'quv yurtida biror fan mazmunini og'zaki bayon qilishga asoslangan o'quv jarayoni, metodi.

malaka – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

mafkura - g'oya va qarashlar tizimi.

motivasiya Metod – bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

metodologiya – tadqiqot, tekshirish usuli bo'lib, bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisidir.

motiv – ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

– odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat. Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo'lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o'zaro bir-biriga ta'sir etishi.

monolog – ma'ruzachi tomonidan nutq so'zlanishi, ma'ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo'lgan jarayon.

mobil shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

negativizm - individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o'zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o'zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko'zda tutilishi.

noverbal - nutqsiz ifodalangan xarakter, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo'naltirilishi.

nizolar – o'zaro ta'sir ko'rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozitsiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

nizo turlari – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko'ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqe yoki darajaga ko'ra: vertikal va gorizontal; yo'nalishiga ko'ra: destruktiv va konstruktiv.

oila – turmush qurish, qarindosh-urug'chilik asosidagi kichik guruh.

Pedagogik jarayon – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va talabalarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

pedagogik texnologiya – 1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotga rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani echishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir; 2) ta'lim-tarbiya metodlarini u yoki bu to'plamini qo'llash bilan bog'liq bo'lgan pedagogning uzluksiz, o'zaro shartlangan harakatlari tizimidir; 3) ta'lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o'zaro hamkorligi asosida o'qitish jarayoni va bilimlarni egallash, yaratish, qo'llash hamda belgilashning tizimli metodidir.

pedagogik faoliyat – ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turi.

faoliyat – 1) ongli maqsad bilan boshqariladigan kishining ichki (ruhiy), tashqi (jismoniy) faolligi; 2) atrof-muhitning kishilar tomonidan maqsadga muvofiq qayta bunyod etilishi.

rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi

real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

so'rov – asosiy metodlardan biri bo'lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma'lumot olinadi.

tarbiya- shaxsni his-tuyg'ularini xarakterini, jismoniy rivojini, hulq- atvorini muayyan o'nalishda shakllantirish maqsadida kishilar bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy xodisadir.

ta'lim- maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir.

test – sinaluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

tushuncha – narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so'z yoki so'zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

tushunish – biror narsaning ma'nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

tahlil – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob'ektlar qismlarga bo'linib o'rganiladi.

trening – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo'lib, shaxsning muloqotga o'rgatish va obro'li bo'lishini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

Tobe shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko'nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog'liqlik, fikriga bo'ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

umumlashtirish – voqelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

uyushganlik - guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

xarakter – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

shaxs – 1) kishilarning ijtimoiy xulqi, insonlar orasida o'zini tutishini aks ettiradigan ruhiy sifatlari majmuini bildiruvchi tushuncha;

2) turli-tuman sifatlari tizimidagi kishining ruhiy, ma'naviy mohiyati;

emosiya – odam va hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

empatiya – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

e'tiqod - shaxs amal qiladigan bilim, tamoyil va xodisallarning qalban va asosli ishonch bilan bog'langan, uning atrof-muxitga xamda o'zining xatti-xarakatlariga bo'lgan sub'ektiv munosabati.

o'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

o'yin – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish xarakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

o'z-o'ziga baho berish – shaxsning o'z-o'ziga baho berishi.

o'z-o'zini baholash – shaxsning o'z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, qadr-qimmatini, kamchiliklarini baholay olishi.

o'z-o'zini tarbiyalash - 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

o'qitish - ta'lim oluvchining bilish faoliyatini boshqarishga qaratilgan o'qituvchining faoliyati. Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

o'qituvchining innovasion faoliyati - ijtimoiy pedagogik fenomen bo'lib, ijobiy imkoniyatni aks ettirish, kundalik faoliyatdan chetga chiqishdir.

o'qitish vazifasi - ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlanish vazifalari.

o'qitish turlari - sokratcha suxbat metodi, qoloq ta'lim, izoxlash-namoyish etish asosida o'qitish, bilimlarni mustaqil egallash, dasturlashti-rilgan ta'lim, o'quv jarayonini algoritmlash, differensiasiyali xamda individual ta'lim va boshqalar.

o'qish – o'quvchinning o'z qobiliyati, bilimi, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xarakat.

qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

qobiliyatlar – shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

xalollik - shaxsiy va ijtimoiy majburiyatlarni, axloqiy me'yorlarni rostguylik bilan saqlash.

xasad - o'z galarpiig muvaffaqiyatlarini ko'ra olmaslikdan kelib chiqadigan tyyg'u.

pedagogikaning nazariy vazifasi- ilg'or va yangi pedagogik tajribalarni o'rganish.

pedagogikaning texnologik vazifasi - diagnostik satx - pedagogik xodisalar xolatini aniqlash; bashorat qilish satxi - pedagogik faoliyatni eksnerimental tadqiq qilish va shu asosda pedagogik voqelikni yaratish modellarini o'rnatish; loyixa

satxi- pedagogik faoliyatning nazariy konsepsiyasi, uning mazmuni va xarakteri asosida ularga muvofiq metodik materiallar (o'quv reja, dastur, darslik va o'quv ko'planmasi, pedagogik tavsiyanomalar) ishlab chiqish; yaratuvchilik satxi - pedagogik fan yutuqlarini takomillashtirish va qayta rejalashtirish maqsadida ta'lim amaliyotiga tatbiq etish; reflekslik tuzatma (korrektirovka) satxi - ilmiy tadqiqotlar natijalarining ta'lim va tarbiya amaliyotiga singib ketishini baxolash.

pedagogika fani - maxsus institutlarda (oila, ta'lim va tarbiya, madaniyat muassasalari) maqsadga muvofiq tashkil etiladigan real, yaxlit pedagogik jarayon.

pedagogik jarayon - ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini xal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o'zaro munosabatlari.

Pedagogik jarayon tamoyillari - pedagogik faoliyatni tashkil etishning asosiy talablari bo'lib, u pedagogik jarayonning yo'nalishini ko'rsatadi va uning qonuniyatlarini ochib beradi.

pedagogik ixtisoslik - ta'lim natijasi o'laroq bilim, malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat bir kasbiy gurux doirasidagi faoliyat turi.

pedagogik ixtisoslashish - pedagogik ixtisoslik doirasidagi faoliyatning bir turi.

pedagogik malaka - muayyan toifadagi vazifalarni xal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan mutaxassisning kasbiy pedagogik tayyorgarligi darajasi va turi.

pedagogik masala - pedagogik jarayonning asosiy birligi, o'ziga xos tizimdir. U voqelikni bilish va qayta yaratish zaruriyati bilan bog'lik tafakkur qilinadigan pedagogik vaziyatdir. Ta'lim qatnashchilarining ma'lum bir maqsadini ko'zlagan ta'lim va tarbiyadagi moddiylashtirilgan vaziyatdir.

pedagogik maxorat - pedagogik jarayonni bilish, uni tashkil eta olish, xarakterga keltira olish (A.S. Makarenko), pedagogik jarayonning yuqori samaradorligini belgilovchi shaxsning ish sifati va xususiyatlari sintezi.

pedagogik muloqot - ta'lim oluvchilarning maqsadlari xamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o'zaro aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishni, bir-birini anglash va qo'llab-quvvatlashni tashkil etishning ko'p qirrali jarayoni.

pedagogik takt - shaxslar faoliyatini turli doiralarida ular bilan muloqotda bo'lishning pedagogik tamoyili, o'lchovi, talabalar bilan ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda to'g'ri muloqotda bo'la olish malakasi.

pedagogik texnika –

1) xar bir ta'lim oluvchiga va jamoaga pedagogik ta'sir o'tkazishning samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar majmuasi;

2) xar bir ta'lim oluvchi va jamoaning faolligini pedagogik jixatdan ta'minlash uchun zarur bo'lgan malaka va kunikmalar.

pedagogik tizim - shaxsni rivojlantirish va yaxlit pedagogik jarayonni birlashtirgan ta'limning o'zaro bog'langan tashkiliy tuzilmasi.

pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

pedagogik uyin - bilim olishga qaratilgan va ma'lum bir pedagogik natijani ko'zlagan xamda ta'lim jarayonida muayyan maqsadni amalga oshiruvchi faoliyat turi.

pedagog nuqtai nazari (pozisiyasi) - pedagogning dunyoga, pedagogik voqelikka va pedagogik jarayong'a bo'lgan intellektual va xissiy munosabati.

pedagogik haqqoniylik – o'qituvchining obektivlik mezoni, uning ma'naviy tayyorgarlik darajasi.

pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatning aloxida turi.

proektiv malaka - malakaning maxsus turi bo'lib, kutilgan pedagogik natijalarni aniq ta'lim va tarbiya rejalarida aks ettiradi.

preskreptiv - me'yoriy.

psixologiya - 1) shaxsning ob'ektiv borlikni faol aks ettirish jarayonini o'rganuvchi fan; 2) ma'lum bir faoliyat turining o'zaro shartlangan psixik jarayonlar tuplami; 3) psixika, xarakter xususiyati, ko'ngil xazinasasi.

rasionalizasiya - metodlarni yoki biror ish - xarakatni takomillashtirish.

releksasiya - kuchli xayajon va jismoniy zuriqishdan so'ng engil yurish, tinchlanishning umumiy xolati.

retrospektiv - o'tmishga murojaat etish.

Ruxiy pedagogik tayyorgarlik - pedagogikaning metodologik acoclari va kategoriyalarini, shaxsniig ijtimoiylashuvi va таракқиёти қонуниятлари, ta'lim va tarbiyaning mohiyati, maqsadi va texnologik g'oyalarini bilish.

Suhbat - kuzatuv juda etarli darajada aniq, bo'lmagan zarur axborotni olish uchun qo'llanadigai tadqiqot metodi.

tadqiqot ob'ekti - ziddiyat va muammoli vaziyat tug'diruvchi, bilishga qaratilgan ilmiy taxlilga muxtoj ob'ekt.

tadqiqot predmeti - bevosita o'rganilishi lozim bo'lgan va amaliy yoki nazariy jixatdan muxim axamiyat kasb etadigan ob'ektning mohiyati, ma'lum bir tomoni, xususiyati.

tayziq o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik xissi yoki ko'ngli chukkanlarning fikri, xissiyoti, intilishi va moyiligi ularning ongidan xalos qilish.

takabbur - o'z manfaatlarini yuqori quyuvchi, manman shaxs.

takt - misli ko'rilmagan tarzda o'zini tuta bilish.

ta'lim - 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoi, ijtimoiy etalonlarnipg ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy kadr, malaka, ko'nikma, axloq me'erlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustakil tizim Tarbiya - 1) shaxsning ma'naviy va jismoniy xolatiga muntazam va maqsadga muvofiq, tasir etish;

2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

texnika – yunoncha “texne” –mahorat, sa'nat ma'nolarini anglatadi.

Pedagogik texnika o'qituvchining o'quvchilarga shaxsan (o'z xatti-harakatlari, nutqi, kayfiyati orqali) ta'sir etish usullari yig'indisi.

TARBIYA - pedagogik xodisa bo`lib, yosh avlodga ilmiy bilimlar sistemasida, malaka va ko`nikmalarini maxsus metod va vositalar orqali rejali ravishda singdirib borish va buning natijasida xar tomonlama shakillangan kishini tarbiyalashni maqsad qilib qo`yadi.

MA'LUMOT - asosiy pedagogik tushuncha bo`lib, u ijtimoiy xayot voqealarini obektiv aks ettirishidir. Bu jarayon kishi tomonidan tabiat, jamiyat va kishi tavakkuri to`g`risidagi umumlashtirilgan ijtimoiy zarur bilim, malaka, ko`nikmalar sistemasining egallab olishi natijasidir.

Ma'lumot kishini bilishga bo`lgan talabini ta'minlab, undagi qobiliyatlarni ma'lum darajaga ko`taradi va ommaviy faoliyatga tayyorlaydi.

Ma'lumot ta'limning natijasi bo`lib, u kishi tomonidan bilim, malaka va ko`nikmalarni mustaqil egallash o`z bilim darajasini takomillashtirishdir.

TA'LIM - ijtimoiy zarur bilimlar, muayyan ko`nikma va malakalarni o`quvchilarga singdirish, ularning ongiga va xulqiga ta'sir etish, dunyoqarashiga va bilish faoliyatini rivojlantirishdir. U insonni mexnatga, xayotga tayyorlashning asosiy vositasidir.

Ta'lim berish jarayonida tarbiya va ma'lumotning maqsadi amalga oshiriladi. Ta'lim ikki tomonlama jarayon o`qitish va o`qishni o`z ichiga oladi.

O`QITISH - pedagogik faoliyat bo`lib, u bilim, malaka, ko`nikmalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga raxbarlik qilishdir.

O`QISH - o`quvchining bilim, malaka, ko`nikmalarini egallashdan mamliy faoliyatidir. U o`quvchilarning xar tomonlama rivojlanishini taminlaydi.

Bola shaxsini uyg`un rivojlantirish shaxsni insoniyat tomonidan to`llangan xamma boyliklarini xozirgi zamondagi fan texnika taraqqiyoti va madaniyat darajasida egallab olishni xar tomonlama rivojlangan barkamol shaxsning insoniy sifatlarni takomillashtirishidir, zamon talabiga javob beradigan darajaga ongli ravishda intilishidir.

O`Z-O`ZINI TARBIYALASH -yaxshi tarbiya natijasida yuzaga kelib, shaxsning o`z-o`zini kamolga etkazishga olib keladi.

KUZATISH-bu ba'zi bir salbiy sifatlardan ozod bo`lishdir. U odatda o`z-o`zini tarbiyalash jarayoniga kiradi.

QAYTA TARBIYALASH-kishidagi salbiy sifatlarni shakillantirish.

METOD - tartibga solingan faoliyatga maqsadga erishish usulidir.

KUZATISH METODI - ma'lum bir pedagogikxodisani biror maqsadni ko`zlab muntazam ravishda. O`rganish, ta'lim-tarbiya jarayonining turli sharoitlarida uning rivojlanishi va o`zgarishini kuzatib borishdir. Kuzatishdan ko`zlangan asosiy maqsad faktlarni to`plash uning muxim tomonlarini ajratib borishdir.

SUXBAT METODI -suxbat aniqlanish kerak bo`lgan masalalarni oydinlashtirib olish maqsadida oldindan tuzilgan reja asosida o`tkaziladi. Suxbat yakka tartibda va jamoa bo`lish mumkin. Suxbat bolalarning xayotning u yoki bu voqea xodisalari to`g`risidagi qiziqishlarini, tasavvurlarini, muloxaza va muxokamalarni aniqlab olishga yordam beradi. Suxbat bolalar bilan xam, kattalar bilan xam o`tkaziladi.

Suxbat metod sifatida foydalanishda uning maqsad va rejasini aniq belgilab

olish kerak. Suxbatning borishi to`la yozib olinadi. Buning uchun tatqiq qilinayotgan kishiga bildirmay, magnit tasmaiga yozib olinishi shart.

JISMONIY TARBIYA- bolalar sog`ligi mustahkamlash, mashg`ulotlarda aqliy va jismoniy faollikni oshirish, nerv sistemasini asrash, charchash va mayib bo`lishning oldini olish, shaxsiy gigiena, madaniy gigienik malakalar, o`z-o`ziga xizmat qilish, kun tartibini aniq bajarish, asosiy harakat turlarini bajarish, ularni ongli o`zlashtirib olib aniq ado etish.

AXLOQIY TARBIYA- bolalarda mustaqillikni tarbiyalash madaniy xulq odatlarini shakllantirish, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatda bo`lish, faoliyat madaniyatini shakllantirish, buyumlarga nisbatan extiyotkorlik bilan bo`lishni tarbiyalash, bolalarning yoshiga xos bo`lgan yaxshilik, to`g`rilik, halollik, jasurlik, kamtarlik kabi axloqiy tasavvurlarini shakllantirish.

MEHNAT TARBIYASI- mehnatga ijobiy munosabatni, mehnat axliga xurmatni, uning faoliyatga qiziqishini tarbiyalash; mehnat natijalariga, tevarakatrofdagi narsalarga extiyotkorlik munosabatlarini, mehnat qilish extiyojini tarbiyalash, bolalarni muntazam ravishda mehnatga jalb qilib borish, uyushqoqlik va intizomlilikni tarbiyalash, o`lkamizdagi ijtimoiy voqealar to`g`risida tasavvurlarni shakllantirish.

AQLIY TARBIYA- bolalarning aqliy qobiliyatlarini, bilim va amaliy faoliyatlarini o`stirish, tevarakatrofdagi buyumlar, voqealar, o`simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatdagi mavsumiy o`zgarishlar to`g`rsidagi tasavvurlarini aniqlash va kengaytirish kuzatuvchanligini shakllantirish va shu asosida voqealar o`rtasidagi sabab- natijalarini aniqlash, nutqini o`stirish, nutq tovush madaniyatini takomillashtirish, faol lug`atini boyitish, aniq ifodali gapirishga o`rgatish.

MAKTABGACHA TARBIYA PEDAGOGIKASIDABOLA EGALLASHI LOZIM BO`LGAN MADANIY-GIGIENIK KO`NIKMALARNING QUYDAGI GURUHLARIGA AJRATILADI:

OVQAT EYISH KO`NIKMALARI -ovqatni tartib bilan olish, yaxshilab chaynash, qoshiqdan, sanchqidan, salfetkadan foydalanish va xokazo.

O`Z TANASINI PARVARISH QILISH KO`NIKMALARI -yuvinish, soch tarash va xokazo

XONADA TARTIBGA RIOYA ETISH, KIYIMDAN FOYDALANISH VA UNGA QARASH KO`NIKMALARI -tez kiyinish va echinish, ko`nikmalarni tartibli, ozoda saqlash va hokazo.

BOLALAR HARAKAT KO`NIKMALARI VA MALAKALARINI EGALLAYDIGAN JISMONIY MASHQLAR HAM BELGILANADI:

ASOSIY HARAKATLAR -yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, uloqtirish, muvozanatni saqlash mashqlari, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, safga turish va qayta safga turish:

SPORT MASHQLARI -suzish, chang`ida yurish, konki uchish va xokazolar.

XARAKATLI O`YINLAR-syujetli, syujetsiz, sport tarkibiy qismlari bo`lgan o`yinlar va boshqalar ham ko`rsatilgan, yozgi va qishki davrda uchastka tashqarisiga qilinadigan uzoq sayrlar ko`zda tutilgan.

JISMONIY TARBIYA ISHINING MAZMUNINI BELGILAB BERUVCHI ASOSIY XUJJAT “BOLALAR BOG`CHASIDA TARBIYA VA TA'LIM

DASTURI"DIR-U bolalarni izchil harakat malakalari va ko`nikmalariga o`rgatish imkonini beradi, harakatlarning muvofiqligini rivojlantiradi va makonda yo`l topishni rivojlantiradi, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezlik, chidamliliklar)ni tarbiyalaydi.

"SENSOR SO`ZI LOTINCHA -"sensus"- "tuyg`u" "sezgi", "idrok", sezish qobiliyati ma'nolarini anglatadi. Borliqni bilish, sezish, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko`rish, sezish va xokazolar yordamida tevarak-atrofdagi narsa va xodisalar to`qrisida bilimga ega bo`ladi, faqat shular asosidagina unda xotira, tafakkur, xayol kabi jarayonlar xosil bo`ladi.

SENSOR TARBIYA -pedagogika fanidan bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyasining asosi xisoblanadi.

Sensor tarbiya pedagogika fanidan bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mexnat tarbiyasining asosi xisoblanadi.

BOG`CHA MAYDONCHASI- Har bir yosh guruhi uchun ajra-tilgan alohida maydoncha bo`lishi kerak. Maydonchada bolalarni harakatlanish uchun joy (tekis maydoncha)qum, suv, qurilish meteriallari, aynan o`ynaladigan o`yinlar uchun joy, ijodiy o`yinlar va turli o`yinchoklar bilan o`ynaladigan o`yinlar uchun joy ajratiladi. OQILONA TASHKIL ETILGAN OVQATLANISH -bolalarning o`sib borayotgan organizmi uchun ayniqsa, muhim ahamiyatga ega, u barcha to`qimalarning meyorli o`sishi va rivojlanishini ta`minlaydi.

OVQATLANISH MEYORI- har qanday chetga chiqish bolalar organizmi, hayotiy faoliyatiga tezda ta`sir qiladi va bola qanchalik kichik bo`lsa, u eng kichik bu-zilishga ham shunchatik kuchli ta`sir ko`rsatadi.

BOLALARNI ILK YOSHLIGIDAN - boshlab ovqatni mustaqil yeyishga o`rgatish ularga ovqatni ishtaha bilan yeyishga, ovqatga ijobiy munosabat uyg`otishga yordam beradi. 2 yoshdan boshlab qoshiqdan foydalanishga o`rgatish, 4 yoshdan sanchiqdan, 5 yoshdan pichoqdan foydalanish ma-lakalarini tarbiyalab borish zarur.

Ovqatlanish vaqtida bolalarga tarbiya berish, ular-ni koyish yaramaydi. Bu holat bolalarning asabini bu-zadi, ishtahasini bo`g`adi. Bir bolaga berilgan tanbeh boshqa bolalar diqqatini tortmasligi lozim.

UYQU.- Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashdagi muhim vazifa asab sistemasi gi-giyenasidir. Bu vazifani hal etishda uyqu katta ahamiyatga ega. Uyqu miya katta yarim sharlarining meyorli ishlashi uchun zarur bo`lgan kuch-quvvatni tiklaydi.

SAYR - Bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo`lishi ularning sog`ligi va jismoniy rivojlanishiga har tomonlama ijobiy ta`sir etadi. Bolaning ochiq havoda bo`lishi natijasida qon aylanishi yaxshilanadi. Haroratning o`zgarib turishi havoning namligi shamol ta`siri termoregulyatsion apparatni mashq qildiradi. Organizmning faolligi yanada ortadi, harakatlar, jismoniy sifatlar takomillashadi.

CHINIQTIRISH.- Bola organizmini chiniqtirish degan-da, chidamlilik, zararli ta`sirlarga qarshilyk ko`rsatish, hayotiy sharoitlarning o`zgarishiga tez mos-lashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tad-birlar tizimi tushuniladi.

CHINIQTIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI -sistemali-lik, doimiylik va*shaxsning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdir. Chiniqtirishning asosiy

vositalari tabiat in'omlari: havo, suv va Quyosh vannasidir.

KUN TARTIBI VA UNI O'TKAZISH METODIKASI- Kun tarti-bi jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Kun tartibi xilma-xil faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan muvofiq taqsimlanishidir.

KUN TARTIBINI TASHKIL ETUVCHI BARCHA QISMLARNI - ovqatlanish, uyqu, o'yin, mashg'ulot, sayr) bir meyorda takrorlash natijasida bolalarda faoliyatning bir tu-ridan ikkinchi turiga utishni yengillashtiruvchi mustahkam ko'nikma hosil bo'ladi.

KUN TARTIBIGA QO'YILGAN ASOSIY TALABLAR. -Kun tartibini tashkil etish gigiyenik omil, ya'ni bolalar sog'lig'ini saqlash, o'zini yaxshi his etishi ham sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish kabi vazifalar bilan cheklanadi.

OVQATLANISH -Oqilona tashkil etilgan ovqatlanish bolalarni to'laqonli jismoniy tarbiyalashning muhim jixati xisoblanadi.

**“BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA
ORGATISH ” FANIDAN UMUMIY SAVOLNOMA**

1. Maktabgacha yoshdagi bolarni tasviriy faoliyatga o'rgatish.
2. Loy va plastilin ishlarining mazmuni
3. Haykaltaroshlik san'atining turlari
4. To'rtburchak shakldagi qog'ozdan murakkab gul yasash yo'llari
5. Qog'ozni belgilash. Andaza. Uyma andaza
6. «Pape-mashe» usulida piyoladan nusxa ko'paytirish usullari
7. Qog'oz va kartondan yasaladigan buyumlarni yig'ish va bezash
8. Qog'ozdan applikatsiyalar yasash usullari
9. Badiiy mehnat darslarida estetik tarbiyaning o'rni
10. Mehnat darslari uchun ishlatiladigan asboblarning va ularning xavfsizligini ta'minlash

11. Haykaltaroshlik san'atining turlari
12. Kubni qog'ozdan yasash usullari
13. Qog'ozdan prizmaning yoyma shaklini yasash
14. Qog'oz va kartondan buyumlar yasash usullari
15. Qog'ozdan piramida yasash yo'llari
16. To'rtburchak qog'ozdan «CHigirtka» yasash usuli
17. Rangli qog'ozlardan buyumlar tuqish
18. Qog'ozdan yasaladigan buyumlarni yig'ish va bezash
19. Kartondan tsilindr shaklini yasash yo'llari
20. O'zbekistonda mahalliy materiallar va ulardan foydalanish yo'llari
21. Qog'ozlarni belgilash qoidalari
22. Qog'oz va kartondan buyumlar tuqish
23. Tuxum puchog'idan buyumlar yasash usullari
24. Somondan buyumlar yasash yo'llari
25. Tuxum puchog'idan buyumlar yasash
26. Applikatsiya va uning turlari
27. Maydalangan tuxum puchog'idan buyumlar yasash
28. Tashlandiq materiallardan unumli foydalanish
29. Bo'shagan qutichalardan predmetlar yasash usullari
30. Qog'ozni belgilash qoidalari

O'rtacha savollar:

1. Ikkita aylanadan to'rt qirrali shakllar yasash bosqichlari
2. Boshlang'ich sinflarda mehnat predmeti va vazifalari
3. Xatcho'p yasash usullari
4. Qog'oz va kartonni bukish qoidalari
5. Qog'oz va kartonni qirqish qoidalari
6. Qog'ozdan «Qurbaqa» yasash yo'llari
7. O'zbekiston bayrog'i mavzusida applikatsiya yasash .
8. Qog'ozdan kabutar yasash usullari
9. Simmetrik shakllarni qirqish bosqichlari
10. Kubni qog'ozdan yasash yo'llari
11. Xatcho'p yasash usullari
12. Yo'l ichida naqsh chizish bosqichlari
13. To'rtburchak qog'ozdan savatcha yasash bosqichlari

14. Tashlandiq qog'ozlardan archa o'yinchoqlari yasash
15. Qog'ozdan kabutar yasash usullari
16. Mehnat darslari uchun ishlatiladigan asboblari va ularning xavfsizligini

ta'minlash

17. Sakkiz qirrali yulduzcha yasash usullari
18. Archa o'yinchoqlarini yasash yo'llari
19. To'rtburchak shakldagi qog'ozdan murakkab gullar yasash usullari
20. Qog'ozdan prizma yasash yo'llari
21. Qog'ozdan applikasiyalar yasash
22. Badiiy mehnat darslari orqali estetik tarbiya
23. Tashlandiq materiallardan archa o'yinchoqlari yasash
24. Qog'oz va kartondan yasalgan buyumlarni yig'ish va bezash
25. Gazlama va tolali matolardan buyumlar yasash
26. O'zbekiston sharoitida mahalliy, tabiiy va tashlandiq materiallardan

foydalanish

27. Tashlandiq qutichalardan foydalanish
28. Tashlandiq materiallarga ishlov berib buyumlar yasash
29. Applikasiyaning usullari
30. Applikasiyaning turlari

Oddiy savollar:

1. Matematik xatcho'p yasash usullari
2. Ikki aylanadigan to'rt qirrali shakllar yasash
3. Qog'oz va kartondan buyumlar yasash
4. Yo'l ichida naqsh chizish bosqichlari
5. To'rtburchak qog'ozdan savatcha yasash bosqichlari
6. Qog'ozdan har xil buyumlar tuqish
7. To'rtburchak qog'ozdan savatcha yasash bosqichlari
8. Tashlandiq qog'ozlardan archa o'yinchoqlari yasash
9. Baliqcha yasash yo'llari
10. Harakatlanadigan ko'rgazmali qurollar yasash usullari
11. Qog'oz va kartondan yasaladigan buyumlarni yig'ish va bezash
12. Qog'ozdan applikasiyalar yasash usullari
13. O'zbekiston bayrog'i mavzusida applikasiya yasash
14. Applikasiya mashg'ulotlarining turlari
15. O'zbekiston sharoitida mahalliy materiallardan foydalanish
16. Qog'oz va karton bukish qoidalari
17. Qog'oz va kartonni qirqish qoidalari
18. Kartondan konus yasash yo'llari
19. Qog'ozdan kabutar yasash
20. Rangli qog'ozlardan bahor gullari yasash yo'llari
21. Kashtachilik san'ati
22. Quritilgan barg va maysalardan buyumlar yasash
23. Tanlandiq ip va tolalardan applikasiya yasash
24. To'rt yoqli prizma shaklini yasash usullari
25. Talandiq qog'ozlardan foydalanib buyumlar yasash

26. Qog'ozlardan gullar yasash yo'llari
27. Applikatsiya mashg'ulotlari va ularning turlari
28. Tashlandiq materiallardan buyumlar yasash
29. Tashlandiq qog'ozlardan bahor gullarini yasash
30. Assimetrik shakllar va ularni qirqish

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
SHAHNISABZ FILIALI**

“ TASDIQLAYMAN”

TDFU Shahrisabz filiali

direktorining o`quv va tarbiya

ishlar bo`yicha o`rinbosari

_____ N.J. Toshmanov

« _____ » _____2019yil

**BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIVATGA
O`RGATISH
FANINING ISHCHI O`QUV DASTURI**

1-kurs

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta`lim sohasi: 110000 - Pedagogika
Ta`lim yo`nalishi: 5111800 – Maktabgacha ta`lim

№

Mashg`ulot turi	Ajratilgan soat	Semester	
		I	II
Ma`ruza	44	22	22
Amaliy	54	26	28
Seminar	16	8	8
Mustaqil ta`lim	132	66	66
Umumiy soat	246		

Shahrisabz 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201__-yil "____" ____dagi ____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fanidan namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

T.G.Begimova	Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi
Xasanova SH.T	Nizomiy nomidagi TDPU «Maktabgacha ta'lim metodikasi» kafedrasida katta o'qituvchisi
I.T.Nurmatova	Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi.

Taqrizchilar :

1. M.X.Tadjieva - Toshkent Pedagogika kolledji direktori, p.f.n.
2. A.Muxsieva – Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrasida dotsenti, p.f.n

Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali

Pedagogika fakulteti dekani:

2019-yil "____" _____ A.Muhammadiyev

(imzo)

Nizomiy nomidagi TDPU Shahrisabz filiali

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasida mudiri

2019-yil "____" _____ SH.A.Boyyigitov

(imzo)

Fanning ishchi o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Shahrisabz filiali Kengashining 2019 yil "____" ____dagi "____" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

1. O'quv fani o'qitilishi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

Dasturda bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish kursining maqsad va vazifalari, ijodiy tarbiya haqida tushuncha, ijodiy tarbiyaning nazariy asoslari, MTMsida bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari, bolalarga o'rgatiladigan ijodiy ishning mazmuni, ijodiy tarbiyani amalga oshirish vosita va shakllari, ijodiy faoliyatni o'yin jarayonida tashkil etish, ijodiy malakalarini shakllantiruvchi omillar, ish jarayonini loyihalash, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, ijodiy natijalarini namoyish etish va baholash, bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatuvchi ish turlari, o'z-o'ziga xizmat, maishiy xo'jalik ishlari, tabiatda ishlash, qo'l ijodiyoti, o'quv ijodiyoti kabi masalalarni qamrab olgan. Dasturda ijodiy faoliyatga o'rgatuvchi shart-sharoitlar, bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatish usullari: jamoa bo'lib bajaradigan ijodiy, mustaqil ijodiy, yakka tartibdagi ijodiy, qiz va o'g'il bolalar ijodiyotidagi umumiylik va xususiylik, ijodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan predmetlar turlariga oid masalalar yoritilib berilgan.

Fan bo'yicha talabalarni bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- talaba bu fanni egallashda qog'oz uning turlarini ajrata olish, qog'ozdan turli o'yinchoqlar yasay olish, qog'ozdan turli qirqish usuli asosida tasvir qirqa olish, mato turlarini ajrata olish, undan o'yinchoqlar tikish, to'qish (gilam, shapkacha, sharf, paypoqcha) guldasta yasash malakasini *bilishi kerak*;

- qog'oz va uning paydo bo'lish tarixi, qog'ozni qayta ishlash, bo'yash, ta'mirlash va undan har-xil buyumlar yasash texnologiyalari, qog'ozdan estaliklar yasash, bayramlar uchun ijodiy ishlar tayyorlash, xbilish kabi arakatli o'yinchoqlar tayyorlash yo'l yo'riqlari *ko'nikmalariga ega bo'lishi* kerak.

- oilada va maktabgacha ta'lim muassasasida bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni shakllanganlik darajasini aniqlash va tahlil qilish *malakalariga ega bo'lishi* kerak.

2.Ma'ruza mashg'ulotlari

1-jadval

№	Ma'ruzalar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1-Modul. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil etish.		
1	1-mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyati. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi Teatr- saxnalashtirish faoliyatining shakllari. Teatr-saxnalashtirish faoliyati prinsiplari	2

2	2-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida turli yosh guruhlarda saxnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining axamiyati. Turli yosh guruhlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari.	2
3	3-mavzu: Saxnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida. Saxnalashtirish faoliyatida bolalarda aktiyorlik qobiliyatini rivojlantirish.	2
2-modul. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishning o'ziga xosligi.		
4	4-mavzu: Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning o'ziga xosligi. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy kriteriyalari.	4
5	5-mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish. Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish.	2
3-modul. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi metodlari.		
6	6-mavzu. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi metodlari. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi mazmuni. Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi usullari.	2
7	7-Mavzu. Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati. Qo'g'irchoq teatrning paydo bo'lishi tarixi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq personajlarini yasash orqali badiy ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishning tarbiyaviy ahamiyati	2
4-modul. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiy ijodiy qobiliyatlarni shakillantirish mazmuni va qo'g'irchoq yasash usullari.		
8	8-mavzu. Qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiy ijodiy qobiliyatlarni shakillantirish mazmuni va qo'g'irchoq yasash usullari. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiy ijodiy qobiliyatlarni qo'g'irchoq teatri vositasida shakillantirish mazmuni. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq	2

	teatrini tashkil etish va qo'g'irchoq yasash usullari.	
9	9-mavzu. Maktabgacha ta'lim muassasasida qo'g'irchoq teatri va jihozlarni yasash. Qo'g'irchoq teatri turlari. Stol teatr. Soya teatri. Barmoq teatri. Qo'g'irchoq qo'lpop.	2
5- Modul Bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatish maqsad va vaziflari.		
10	10-mavzu: Ijodiy faoliyatga o'rgatish maqsad va vazifalari. Ijodiy faoliyat turlari. Bolalarni xar tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatining ahamiyati.	2
2-semestr		
1	1-Mavzu: Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash ("Origami usuli") Origami san'atining kelib chiqish tarixi.	2
2	2-Mavzu: Qog'ozdan buklash yo'li bilan o'yinchoq yasash ("Origami usuli") Origami usulida o'yinchoq yasash.	2
3	3-Mavzu: Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha. Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.	2
4	4-Mavzu: Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha. Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.	2
5	5- Mavzu: Pape-mashe usuli. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash.	2
6	6- Mavzu: Pape-mashe usuli. Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash.	2
7	7- Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash. Tabiiy buyumlar ishlash usullari. Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash.	2
8	8-Mavzu: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi. Kashta turlari. Bezakli va mazmunli kashtalar.	2
9	9-Mavzu: Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash Yumshoq o'yinchoqlar tayyorlash turlari. Yumshoq o'yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.	2
10	10-Mavzu: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi. Ilmoq bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.	2
11	11-Mavzu: O'yinchoqlar to'qish texnologiyasi. Spitsa bilan o'yinchoqlar to'qish usullari.	2

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tiladi. O'quv mashg'ulotlarining sifatli va samarali tashkil etilishiga ta'sir etuvchi quyidagi interfaol usullardan: klaster, aqliy hujum, T-sxema, baliq skeleti, konseptual jadval, venn-diagramma, keys-stadi kabilardan keng foydalaniladi.

3. Amaliy mashg'ulotlari

2-jadval

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1.	Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatning asosiy maqsadi.	2
2.	Teatr-saxnalashtirish faoliyatining shakllari.	2
3.	Teatr-saxnalashtirish faoliyat prinsiplari.	2
4.	Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining axamiyati	2
5.	Turli yosh guruxlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari.	2
6.	Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida	2
7.	Saxnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish.	2
8.	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy kriteriyalari.	2
9.	Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.	2
10.	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakillantirish .	2
11.	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi mazmuni.	2
12.	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish usullari	2
13.	Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi.	2
	Jami	26 soat
2-semestr		
1	Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishning tarbiyaviy ahamiyati.	2
2	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatini qo'g'irchoq teatri vositasida shakillantirish mazmuni.	2
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrni tashkil etish va qo'g'irchoq yasash usullari.	2
4	Qo'g'irchoq teatri turlari.	2
5	Stol teatri.	2
6	Soya teatri.	2
7	Barmoq teatri.	2

8	Qo'g'irchoq-qo'lqop.	2
9	Ijodiy faoliyat turlari.	2
10	Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.	2
11	Tasviriy faoliyaga o'tgatishning maqsadi.	2
12	Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.	2
13	Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.	2
14	Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.	2
	Jami	28 soat

4. Seminar mashg'ulotlari

3-jadval

№	Seminar mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1.	Maktabgacha ta'lim muassasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.	2
2.	Teatr-saxnalashtirish faoliyatining shakillari.	2
3.	Teatr-saxnalashtirish faoliyatining prinsiplari.	2
4	Maktabgacha ta'lim muassasida saxnalashtirish faoliyatining ahamiyati.	2
	Jami	8 soat
2-semestr		
1	Turli yosh guruhlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifzlari.	2
2	Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida.	2
3	Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.	2
4	Origami san'atining kelib chiqish tarixi.	2
	Jami	8 soat

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari va boshqa texnologiyalar bilan

jihozlangan auditoriyada har bir akadem guruhda alohida o'tkaziladi. Mashg'ulotlarni olib borish usullari turli-tuman ko'rinishda bo'lsa-da, faol va interfaol metodlar ko'proq qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, "Key-stadi" texnologiyasi ishlatiladi, keyslar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

5. Mustaqil ta'lim

4-jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1.	Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.	4
2.	Teatr- saxnalashtirish faoliyatining shakllari	4
3.	Teatr- saxnalashtirish faoliyati prinsiplari.	4
4.	Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatining ahamiyati.	4
5.	Turli yosh guruhlarda saxnalashtirish faoliyatining vazifalari.	4
6.	Saxnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida.	4
7.	Saxnalashtirish faoliyatida bolalarda aktiyorlik qobiliyatini rivojlantirish.	4
8.	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyaalri.	4
9.	Maktabgacha ta'lim muassasasida saxnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.	4
10	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakillantirish.	4
11	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi.	4
12	Saxnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanish usullari.	4
13	Qo'g'irchoq teatrining paydo bo'lish tarixi.	4
14	Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakillantirishning tarbiyaviy ahamiyati.	4
15	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatini qo'g'irchoq teatri vositasida shakillantirish mazmuni.	4
16	Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq teatrn tashkil etish va qo'g'irchoq yasash usullari.	6
Jami		66
2-semestr		
1	Qo'g'irchoq teatri turlari.	4

2	Stol teatri.	4
3	Soya teatri.	4
4	Barmoq teatri.	4
5	Qo'g'irchoq-qo'lqop.	4
6	Ijodiy faoliyat turlari.	4
7	Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.	4
8	Tasviriy faoliyga o'tgatisning maqsadi.	4
9	Tevarak atrofni tasvirlash asosida bolalarning tasviriy faoliyati.	4
10	Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.	4
11	Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.	4
12	Pape – mashe usulida o'yinchoqlar yasash.	4
13	Pape – mashe usulida turli buyumlar yasash.	4
14	Qo'g'irchoq – qo'lqop.	4
15	Tabiy buyumlar ishlash usullari.	4
16	Tashlandiq buyumlardan o'yinchoq yasash.	6
Jami		66

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil qilinadi. Talabalar tomonidan mustaqil ishlar tayyorlanayotganda ular e'tiborini ilg'or xorij tajribasi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning asoslarini bog'lash, tahlil etish, o'z fikrlarini hayotiy misollar bilan yoritishga yo'naltiriladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Ushbu fan bo'yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

5. Oraliq nazorat savollari

- 1 Bolalar ijodiyotining qanday o'ziga xos tomonlari mavjud?
- 2 Ijod mahsuli bu..?
- 3 «Origami» so'zining kelib chiqishi qaysi tilga mansub?
- 4 Origami san'at sifatida ilk marotaba qaysi asrda rivoj topa boshlagan?
- 5 Applikatsiya bundan necha yil avval paydo bo'lgan?
- 6 Applikatsiya birinchi bo'lib qaysi xalqlarda paydo bo'lgan?
- 7 Qozoq va qalmoq xalqlari applikatsiyadan nimalarni bezashda foydalanishgan?
- 8 Applikatsiya so'zining ma'nosi
- 9 Applikasiyaning turlarini aniqlang?
- 10 Dekorativ applikatsiya -
- 11 Qog'oz ishlab chiqarish sanoati qog'ozning rangi va xususiyatiga ko'ra bir – biridan farq qiluvchi necha navini ishlab chiqaradi?
- 12 Qog'ozni 5-6 qavat qilib buklab turib qirqishning qanday usuli deyiladi?
- 13 Mazmunli applikatsiya qanday bo'ladi?

- 14 Origami so‘zining ma‘nosi?
- 15 Origami so‘zi qaysi davlat tiliga mansub?
- 16 Origami san‘at sifatida qayerda paydo bo‘lgan?
- 17 Origami san‘at sifatida ilk marotaba nechanchi asrlarda paydo bo‘lgan?
- 18 Nechanchi asrga kelib origami san‘ati Yevropa mamlakatlariga ham tarqaldi?
- 19 Applikatsiya qanday qobiliyatlarni o‘stiradi?
- 20 Zar qog‘ozdan savatcha yasash necha bosqichda amalga oshiriladi?
- 21 Zar qog‘ozdan savatchayasash uchun necha sm oralig‘ida qirriladi?
- 22 Zar qog‘ozdan savatcha yasash uchun nechta tasmacha kerak?
- 23 Qor parcha yasash uchun kvadrat shaklidagi qog‘ozni necha qirrali qilib buklab chiqamiz?
- 24 To‘tiqushni origami usulida yasash necha bosqichda amalga oshiriladi?
- 25 Origami vositasida bolalarni qanday qobiliyatlarini o‘stirish mumkin?
- 26 Origami usulida o‘rdak yasashda necha bosqichda ish bajariladi?
- 27 Qanday buyumlar applikatsiya ishida kerak?
- 28 Applikatsiya ishining ish qurollari nimalardan iborat?
- 29 MTMda qanday taklifnomalardan foydalaniladi?
- 30 MTMda tabriknomalar qanday bo‘lishi lozim?
- 31 MTMda bayram taklifnomalar kimlarga beriladi
- 32 MTMda tabriknomalar qanday bayramlarda beriladi?
- 33 Ijodiy o‘yinlar uchun yasalgan niqoblar yordamida qanday o‘yinlar o‘ynash mumkin?
- 34 Ijodiy o‘yinlar deb qanday o‘yinlarni aytiladi?
- 35 Niqoblarni yasash usuli qanday?
- 36 Xarakterlarni rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar uchun qo‘l mehnati orqali nimalar yasash mumkin?
- 37 Ijodiy o‘yinlar uchun qanday jihozlar tayyorlanadi?
- 38 Xarakterli o‘yinchoqlar qanday yasaladi?
- 39 Bolalar bog‘chasida milliy burchakda qanday jihozlar bo‘lishi kerak?
- 40 Ijodiy o‘yinlar uchun qanday jihozlar tayyorlanadi?
- 41 Xarakterlarni rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar uchun qo‘l mehnati orqali nimalar yasash mumkin?
- 42 Niqoblarni yasash usuli qanday?
- 43 Applikatsiya so‘zining ma‘nosi nima?
- 44 Amaliy uslub bu?
- 45 Tasviriy qobiliyatni joylashuv fondi bu?
- 46 Qobiliyat o‘shida tayanch vosita nima?
- 47 Qobiliyatni o‘shidagi boshlovchi omil bu?
- 48 Ko‘nikmalarni egallashda eng muhim omil nima?
- 49 Ijod darajalarini aniqlash uchun degan tushunchalar qo‘llaniladi?
- 50 Ijodiy faoliyatga o‘rgatish metodikasi fanining asosiy maqsadi?

6. Yakuniy nazorat savollari

1. Bolalar ijodiyotining qanday o'ziga xos tomonlari mavjud?
2. «Origami» so'zining kelib chiqishi qaysi tilga mansub?
3. Origami san'at sifatida ilk marotaba qaysi asrda rivoj topa boshlagan?
4. Pape-mashe so'zining ma'nosi?
5. Pape-mashening qog'oz massasidan bajariladigan qanday usuli mavjud?
6. Pape-mashe texnikasi yordamida qanday buyumlar tayyorlanadi?
7. Pape-mashe uchun zaruriy ashyolar?
8. Tabiiy materiallar qanday to'planadi?
9. Barglarni to'plash jarayonida bolalar qanday xususiyat rivojlanadi?
10. Milliy kashtachilik qanday san'at turiga kiradi?
11. O'zbek kashtalarida qanday naqshlar tasvirlanadi?
12. Kashtachilikda bezak buyumlarining turlari
